

SH.O. DIAMALDINOVA,
H. UNAROVA, S. SARIYEVA



ONNA TILI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT UNIVERSITETI**

SH.O DJAMALDINOVA., H.A. UNAROVA, S.N. SARIYEVA



ONA TILI

O'quv qo'llanma



2023

UO·K: 811.512.133(072)(075)

81.20'zb-9

D 45

SH.O. Djamaldinova., H.A. Unarova, S.N. Sariyeva

Ona tili [Matn]: o'quv qo'llanma / SH.O. Djamaldinova., H.A. Unarova, S.N. Sariyeva – Samarqand : Samarqand, 2023. – 152 b.

Tuzuvchilar:

Sh.O.Djamaldinova -Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti "O'zbek tili va adabiyoti, rus tili bilan" kafedrası mudiri, dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

H.A. Unarova -Samarqand davlat tibbiyot universiteti akademik litseyi "Tillar va ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası mudiri, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

S.N. Sariyeva -Samarqand davlat tibbiyot universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Taqrizchilar:

SamDTU f.f.n. dotsent **Razikova L.T.**

A.Navoiy nomidagi TDO'TAU professori, ped.f.d. **Niyozmetova R.X.**

Ushbu o'quv qo'llanma maktab, akademik litseylar o'qituvchi va o'quvchlari hamda ona tili faniga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ona tili fani haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

MAKTABDA O'QITISH METODIKASI O'ZGARMASA, TA'LIM SIFATI HAM MAZMUNI HAM MUHIT HAM O'ZGARMAYDI.

Sh. Mirziyoev

ISBN 978-9910-771-12-5

© SH.O. Djamaldinova., H.A. Unarova, S.N. Sariyeva.

© Samarqand 2023 y

KIRISH

O'quvchini intellektual faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj muammoli vaziyatlarda paydo bo'ladi.

Bu ehtiyoj uning oldiga qo'yilgan murakkab masala mohiyatini bilishga bo'lgan qiziqishdan tug'iladi.

Har qanday fanning taraqqiyoti va umrboqiyliigi asosida o'sha fanni o'qitish metodikasi yotadi. Ilmdagi yangiliklar o'z yo'nalishi amaliyotiga yetib bormas ekan, hayotga tatbiq etilmas ekan, bu kashfiyotlar qog'ozlarda qolib ketaveradi. Ularni amaliyotga yetkazadiganlar esa o'qituvchi-professorlar, metodika ilmidan xabardor mutaxassislar bo'lishadi.

Milliy tarbiyashunoslikda metodika ilmiga barmoq orasidan qarash, uni ikkinchi darajali fan deb bilish chuqur ildiz otib ketgan. Sababi – soha ta'limi metodikasini oliy o'quv yurtlarida uning nazariy asoslaridan bexabar, amaliy xususiyatlarini bilmaydigan, hammasiga yuzaki qaraydigan, metodikani fan sifatida mensimaydigan, tan olmaydigan va uni yaxshi ko'rmaydigan kishilar o'qitishadi. Va natija ham talabalarning metodika faniga munosabati ham shunga yarasha bo'lyapti. Eng yomoni, bu qarash avloddan-avlodga o'tib, ildiz otib bormoqda.

Gap shundaki, har xil soha bo'yicha izlanishlar olib borayotgan kishilar tomonidan kashf etilgan yangiliklar o'sha mutaxassisning o'zida, uning dissertatsiyasi, monografiya va maqolalari mazmunida qolib ketmoqda. Ular bo'lajak mutaxassislarga, bu qarashlarning davomchilariga yetib bormayapti. Buni yetkazish metodika ilmining, metodist olimning vazifasi. Milliy metodika ilmi esa bu vazifani eplab bajara olmayapti. Chunki uning qo'li kalta, o'zi nazardan qolgan. Bu muammo mamlakat prezidenti tomonidan ko'tarilmaguncha o'z yechimini kutib, e'tiborsiz yotaverdi. Umid shulki, endi metodika ilmiga mamlakat ilm ahlining e'tibori qaratiladi. Uning mavqeyi, hurmat-e'tibori boshqa fanlar darajasiga ko'tariladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari» to'g'risidagi Farmoni loyihasida ta'kidlanganidek, mamlakat ta'lim tizimida so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish, bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilari, maktab o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalari talaba-

yoshlarida zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimi bilan ilm-fan sohasi o'rtasida integratsiyani, ta'limning uzviylik-uzluksizligini ta'minlash borasida ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayni zamonda, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish ham taqozo etilmoqda.

Bu jarayonda «yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqa biladigan, o'z g'oyalarini amalga oshirishga qodir, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak kadrlarni tayyorlash, ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, dunyo miqyosidagi raqobatga bardosh bera oladigan» avlodni tarbiyalashda metodika ilmining o'rnini beqiyosdir.

Ta'lim tizimi amaliyotida o'quvchi-tarbiyalanuvchilarni o'qituvchi aytganlarini bajaradigan ishtirokchilikdan o'qish-o'zlashtirish kechimining ijrochilari darajasiga ko'tarish, bilimlarni ustozidan tayyor holda olib faqat xotirasi hisobidan ish yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan voz kechilib ilmiy va hayotiy haqiqatlarni o'zi mehnat qilib, o'zini ham aqlan, ham ruhan zo'riqtirib anglash hamda o'zlashtirishga yo'naltirish metodika ilmining zimmasida. Jamiyat bugun ta'lim tizimidan ma'naviy komillik sari yuz tutgan avlodni tarbiyalab berishni talab qilayotgan ekan, bu talabni amalga oshirish uchun avval, o'qituvchi-tarbiyachining o'zini ma'naviy komillik yo'lga solish lozim. Chunki o'qituvchi-pedagog ma'nan ko'tarilmas ekan, millat ko'tarilmaydi. Millat ko'tarilmas ekan, mamlakat ko'tarilmaydi. Bugun o'qituvchi-tarbiyachining zimmasida ana shunday mas'uliyatli yuk bor.

Mustaqillik davri milliy ta'limidagi muammolardan yana biri shuki, metodika ilmi, xususan, adabiyot o'qitish metodikasida ham bir qator dissertatsiyalar himoya qilingan. Gap sonda emas, albatta, lekin shu son orasidan sifat ajralib chiqishidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Bir qator tadqiqot ishlarida yaxshidir, yomondir g'oyalar, o'qitish samaradorligini oshirish, shaxs shakllantirish bilan bog'liq salmoqli fikrlar ham mavjud. Lekin bu qarashlar ta'lim amaliyotiga yetib bormayapti. Milliy tarbiyashunoslikda ilm bilan amaliyot orasida aloqa yo'q. Ilm o'z yo'lida, o'z imkoniyatlari doirasida, garchi juda sekinlik

bilan bo'lsa ham ketib, rivojlanib boryapti. Amaliyot esa joyida deysinib turibdi. O'qituvchi-tarbiyachilar dars jarayonida har xil texnologiya va interfaol metodlardan ko'r-ko'rona, ularning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalaridan bexabar holda foydalanmoqdalar. Amaliy natija ham shunga yarasha bo'lmoqda.

Shu ma'noda muammoli ta'lim ham o'zlashtiriladigan bilimlarni tarbiyalanuvchi oldiga muammo shaklida qo'yish g'oyasi bilan metodika ilmida alohida o'rinni egallaydi va bu masala bilan jahon pedagogikasida o'tgan asrning oltmishinchi, yetmishinchi yillarida V. Okon, M. Maxmutov, V. Kudryavtsev, V. Marantsman, N. Mochalova, A. Matyushkin, I. Ilnitskaya va boshqa bir qator metodist olimlar alohida shug'ullanishgan. Ular o'quvchini intellektual faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj muammoli vaziyatlarda paydo bo'lishini, bu ehtiyoj uning oldiga qo'yilgan murakkab masala mohiyatini bilishga bo'lgan qiziqishdan tug'ilishini asoslaganlar. Bu metodist olimlar o'quvchi muammoli vaziyatda butun qobiliyati, bor imkoniyati va hayotiy tajribasini to'liq safarbar etgan holda faoliyat yuritishini ilmiy-amaliy jihatidan isbotlab berganlar. Ularning tadqiqotlarida o'quvchi faolligini oshirish orqali bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini ko'tarish maqsadi yetakchilik qilgan.

Ma'lumki, har qanday inson o'z oldida ko'ndalang turgan hayotiy yoki ilmiy muammoni hal etish uchun o'ylanadi, izlanadi, bilganlarini taftish qiladi, zo'riqadi, mashaqqat chekadi. Bu ruhan sog'lom odamga xos bo'lgan tabiiy xususiyat. Ta'lim jarayonida shunday vaziyatga solingan o'quvchi ham ta'limiy muammoni hal qilish orqali bilim olish yo'lida mehnat qiladi. O'quvchi-tarbiyalanuvchining bu jarayondagi mehnati har jihatdan samarali bo'lishini ta'minlash muammoli ta'limning asosidir.

ONA TILI

Ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, ravon bayon qila oladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'z galar fikrini anglay oladigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Ona tili fanini o'qitishning vazifasi o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'z galar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; ona tilining imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrni to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish; yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish hamda fanning mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

1 va 2- bosqichda ona tili ta'limi o'rta ta'lim bosqichida olingan bilimlarni chuqurlashtiradi va rivojlantiradi. Bu esa o'rta ta'lim bosqichi ona tili darslarida o'rganilgan o'quv materialining maxsus takrorlanishini inkor etmaydi.

Dasturda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan leksik-grammatik bilimlar majmui o'zaro bog'liq va uzviy tarzda talqin etilgan bo'lib, o'quvchilarning bilim va dunyoqarashi ko'lamiga, ijtimoiy hayot va davlat siyosatidan kelib chiqadigan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarga asoslangan.

Ona tili o'quv rejasida 1- va 2- bosqichlar jami 144 soat hajmida belgilangan bo'lib, 1-bosqich 72 soat, 2- bosqich 72 soatga mo'ljallangan. Ona tili fanini o'qitish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

– mavjud axborot manbalari (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalarni (audio-video yozuv) va boshq.)dan o'quv maqsadlari doirasida izlab topa olish, saralash, qayta ishlash va foydalana olish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o'z faoliyatida qo'llash; media-madaniyatga rioya qilish;

– shaxs sifatida ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma'naviy ehtiyojga aylantirish;

– o‘z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o‘zini nazorat qila bilish, og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera bilish;

– jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish;

– tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo‘lish;

– mavzu doirasida berilgan badiiy asar namunalarida aks etgan ma‘naviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalarini anglash, his etish va boshqalarga yetkazishga intilish;

– inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda ulardan foydalana olish layoqatlarini shakllantirish.

1-MAVZU: SINTAKSIS

SO'ZLARNING TENG VA TOBE BOG'LANISHI

GAP VA SO'Z BIRIKMASI

Siz o'z fikr-mulohazalaringizni boshqalarga yetkazish uchun so'zlarni bir-biriga bog'lab gap tuzasiz. So'zlarni tilning ma'lum qoidalari asosida bir-biriga bog'lab so'z birikmasi va gap hosil qilish sintaktik hodisasidir, ana shunday hodisalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi esa sintaksis deb yuritiladi.

Eslab qoling. Sintaksis (qadimgi yunoncha "syntaxis" so'zidan olingan bo'lib, yig'ish, yopishtirish) - tilshunoslikning gap, so'z birikmalari va boshqa til birliklaridagi turli nutq qismlarining tuzilishi va funksional o'zaro ta'sirini o'rganadigan bo'limi.

Til odamlarning asosiy muloqot vositasidir. Til inson tafakkuri va ongi bilan chambarchas bog'liq. Biz fikrlarimizni, so'ngra nutqimizni so'z va jummalarga joylashtiramiz. Atrofdagi dunyo haqidagi bilimlar mehnat jarayonida, tadqiqot faoliyatida, tilda - gapni tashkil etuvchi so'z va iboralarda mustahkamlanadi. Tilshunoslikning "sintaksis" deb nomlangan bo'limi nutqimiz tuzilgan ibora va gaplarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Sintaksis yunoncha "syntaxis" so'zidan olingan bo'lib, yopishtirish, bog'lash, demakdir. Demak, so'zlarning va gaplarning (qo'shma gap doirasida) o'zaro bog'lanish qonun-qoidalarini, ularning xillarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi sintaksis sanaladi. Bu bo'lim gapda so'zlarning bog'lanishini — so'z birikmalarini, gap va uning tuzilishi hamda mazmuniy turlarini o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, sintaksis so'z birikmasi va gap haqidagi ta'limotdir.

Biz o'z fikrimizni o'zgalarga yetkazish uchun gaplardan foydalanamiz.

1. *Vatanimizni, milliy qadriyatlarimizni chin dildan sevamiz.*
2. *Mehnat qilgan rohat ko'radi.*
3. *Men akademik litsey talabasiman.*

Yuqoridagi uchta gap uch xil fikrni, uch xil axborotni ifodalaydi. Shu bilan birga, ulardan ifodalanayotgan voqeaning zamoni, kim

tomonidan bajarilayotganligi, bo'lishli-bo'lishsizligi, aniq-noaniqligi kabi qator ma'nolar ham anglashiladi. Bu ma'nolar gap kesimining kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Birinchi gapda *sevamiz* kesimi tarkibidagi *-miz*, ikkinchi gapda *rohat ko'radi* kesimi tarkibidagi *-a*, *-di*, uchinchi gapda *talabasiman* kesimidagi *-man* shakllari shaxs, zamon (doimiylik), bo'lishli (tasdiq), aniqlik ma'nolarni ifodalaydi.

Bu ma'nolar kesimlik ma'nolari sanaladi. Shuningdek, yuqoridagi ma'nolar kesimning nol shakli orqali ham ifodalanishi mumkin.

Masalan: *Bu — litsey* deganda uchinchi shaxs, hozirgi zamon bo'lishli, aniqlik ma'nolari maxsus shakllar bilan ifodalangan emas. Ohang ana shularning hammasini ifoda etadi. Maxsus shakllar qatnashmagan holda kesim nol shaklga ega bo'ladi. Kesimlik ma'nolari maxsus shakllar yordamida (shaxs, zamon, bo'lishli-bo'lishsiz va mayl shakllari) hamda 0 (nol) shakl yordamida ifodalanadi. Demak, har qanday gapning asosida kesim yotadi.

Juda muhim. Gapning gap bo'lmagan boshqa sintaktik birliklardan (masalan, so'z birikmasidan) farqi ham kesimlik belgisidir.

Masalan: *Men keldim* — gap. Bu gapda *keldim* so'zi grammatik shakllanib kesim vazifasida kelyapti. *Mening kelishim* — gap emas. *Kelishim* kesimlik shakliga ega emas va kesim vazifasida kelmayapti. Kesimlik belgisiga ega bo'lgan har qanday so'z gap bo'lib kela oladi.

Masalan: *Bahor... Go'zalsan!*

Eslab qoling. Kesimlik belgisiga ega bo'lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma'lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik gap deyiladi.

O'ylang: O'zingiz mustaqil ravishda gaplar tuzing va uning tarkibidagi so'zlarning bog'lanishi haqida fikrlang.

Tayanch tushunchalar: gap, sintaksis, kesim, kesimlik belgilari.

Berilgan maqolning ma'nosini tushuntiring, u gap bo'la oladimi yoki yo'qmi? Uni izohlang.

Poklik sog'likni, aql sabrni saqlar.

So'z birikmasi

Sintaktik birlik, tushuncha ifodalaydi, kelishik, egalik shakllari, ko'makchilar ohang yordamida bog'lanadi

Gap

Sintaktik birlik, kesimlik belgisiga ega, fikr ifodalaydi, tugallangan ohangga ega.

Sintaktik birliklar hisoblanadi. Erkin ravishda yaratiladi. Moviy osmon—so'z birikmasi. Osmon moviy— gap

Savol va topshiriqlar

1. Gap deganda nimani tushunasiz? Uning muhim belgisi nima?
2. Gapning so'z birikmasidan farqini aytib bering.
3. Kesimlik belgisi deganda nimani tushunasiz?
4. Kesimlik ma'nolari qanday vositalar orqali ifodalanadi?

MASHQLAR

I. Matnni o'qing. So'z ma'nosining ko'chish yo'llarini topib, izohlang.

ETIKDO'Z TOPILMASI

Ishni boshlash uchun toshni ko'mir va alif moyi bilan qizdirdi, lekin bunday qilingani bilan «negadir» oltin ajralib chiqavermadi. Birdan tajriba ro'y-rost ishonarli natijalarga olib keldi: qizdirib sovutilgan mahsulot to'q qizil rangga kirdi.

Odamlar bilan tez chiqishib ketadigan Kassiarolo o'zining alximik hamkasblaridan bu ajoyib tosh sirini ham yashirib o'tirmadi. Bu shov-shuvli xabar oltin izlovchi yor-u birodarlarini qidiruv talvasasiga solib qo'ydi: «Quyosh tosh», «Bolonya toshi», «Bolonya chaqnoqtoshi» kabi turli nomlarni olgan mineral har xil reaksiya va tajribalarning manbayi bo'lib qoldi. Vaqtlar o'tdi, ammo oltin mineraldan ajralishni istamasdi, shundan so'ng unga bo'lgan qiziqish ham sekin-asta so'ndi.

Faqat oradan bir yarim asr o'tgach, 1774-yili mashhur shved kimyogarlari Karl Sheele va Yuxan Ganlar «Bolonya toshi»ni har tomonlama tekshirishdan o'tkazdilar. Bu tuproq avvaliga barot, keyinchalik esa barit (grek tilida «baros» — og'ir, demakdir) nomini oldi. Uni tashkil qilgan metall esa bariy nomi bilan atala boshladi.

II. Fe'llarni topib, ularning qaysi nisbat, mayl va zamonda ekanligini aniqlang.

O'qituvchi:

— Rustamjon, bitta gap tuz va uni buyruq mayliga aylantir.

Rustamjon:

— Ot aravani tortmoqda.

O'qituvchi:

— Yaxshi. Endi uni buyruq mayliga aylantir.

Rustamjon:

— Chu!

O'qituvchi bolalarga dedi: «Ikkita gap yozing va har birida beshtadan fe'l ishtirok etsin».

Erkinboy birinchi bo'lib nihoyasiga yetkazdi. U o'rnidan turdi va ovozini chiqarib o'qidi: «Ona pishiradi, yig'ishtiradi, tikadi, yuvadi va dazmollaydi. O'g'li yeydi, ichadi, o'ynaydi, o'qiydi va uxlaydi».

MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI:

1. Qaysi so'z birikmasida bosh so'z ham ergash so'z ham morfologik tamoyil asosida yozilgan?

a) el-yurt dard-u tashvishlari

b) og'ir-bosiqlik bilan

c) aql-idrok bilan anglamoq

d) yig'im-terim mavsumi

2. 1) daftarning varag'i 2) daftar varag'i 3) bizning daftar 4) daftar varaq. Berilgan birikmalardan qaysi biri so'zlashuv uslubiga xos?

a) 1

b) 2

c) 3

d) 4

3. Bosh so'z sifatdosh bilan ifodalangan soz birikmasini toping.

a) vazifani bajarib

b) kelajakka umid

c) chet elda o'qigan

d) o'qigan bola

4. Teng bog'lanish haqidagi noto'g'ri hukmni aniqlang.

a) Teng bo'laklar bir xil gap bo'lagi vazifasida keladi.

b) Teng bog'lanishda so'zlar teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi yordamida bog'lanadi.

c) Teng bog'langan bo'laklar ko'pincha bir xil so'roqqa javob bo'ladi. d) Teng bog'lanishda nechta so'z bo'lishidan qat'iy nazar ular bitta tushunchani ifodalaydi.

5. Chaqimchining tilidan ilon zahar oladi. Gapda qanday munosabatli so'z birikmalari qo'llangan?

a) 1ta moslashuv, 1ta boshqaruv

b) 1ta moslashuv, 2ta boshqaruv

c) 1ta moslashuv, 1ta boshqaruv, 1ta bitishuv

d) 1ta moslashuv, 2ta boshqaruv, 1ta bitishuv

6. Qaysi qatordagi birikma tarkibidagi ergash so'z turlanmagan?

a) yoppasiga ommalashmoq

b) unga bildirmoq

c) ukasiga bermoq

d) chiroylisini tanlamoq

7. Bitishuvli so'z birikmasi qaysi qatorda berilgan?

a) ukamdan olmoq

b) qiz husni

c) birdan gapirmoq

d) ukam uchun olmoq

8. Ot kesimli gapni toping.

a) Pastak eshik g'iyqillab ochildi.

b) Shoikrom qizning gapini eshitmadi.

c) Bultur xotini shu qulupnay tufayli onasini qattiq ranjitgan edi.

d) Jahl — dushman, aql — do'st.

9. Yaxshidan ot qoladi, yomondan — dod. Kesimni aniqlang.

a) ot qoladi

b) qoladi

c) dod qoladi

d) dod

10. Qaysi gapda nomustaqil va mustaqil to'ldiruvchi ishtirok etgan?

- a) Opamdan eshitgan gaplarni aytdim.
- b) Dangasaning non yeyishini ko'r.
- c) Senga aytgan gaplarimni yodda tut.
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

11. Nomustaqil hol qo'llangan gapni toping.

- a) Litseyda musobaqa bo'ldi.
- b) Litseyning 2-bosqich o'quvchisiman.
- c) Ariq bo'ylab ketdi.
- d) Daladan charchab kelgan yigit tezda uxlab qoldi.

12. Xullas, uning uyida allaqanday yangi gaplar ko'paymoqda edi. Ushbu gapda qo'llangan kirish so'z qanday ma'noni bildiradi?

- a) ishonch va tasdiqni
- b) fikrning kimga qarashli ekanligini
- c) fikrga yakun yasash
- d) inkorni

13. Nasriddinovning xonadonida beminnat xizmat qiladi, bog'chorbog'idan, chorvasidan xabar oladi. (A.Nasriddinovning "xobbisi" bir juft qo'y, o'n-o'n besh tovuq boqish edi). Gapda qavsga olingan jumlaning belgilang.

- a) ajratilgan izoh bo'lakli gap
- b) kirish birikma
- c) kirish gap
- d) uyushiq bo'laklar

14. Xalq ertangi kuni yaxshiroq bo'lishini istasa, birlashmog'i, uyushmog'i va haqiqat uchun kurashmog'i kerak. Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi uyushgan?

- a) kesim
- b) ega
- c) to'ldiruvchi
- d) bu qo'shma gap

15. Quyidagi qo'shma gap tarkibidagi ergash gap bosh gapdagi qaysi bo'lakni izohlab kelgan? Kim insonlikni o'zida sinab ko'rmagan bo'lsa, hech qachon odamlarni chuqur bilmaydi.

- a) kesimni
- b) to'ldiruvchini
- c) holni
- d) egani

2-MAVZU. GAPDA SO'ZLARNING BOG'LANISHI.

SO'Z BIRIKMALARINI TUZISH

Teng bog'lanish:

Teng bog'lanishni quyidagi ishoralar bilan ifodalash mumkin:

— sanash ohangi yordamida hosil bo'lgan teng bog'lanish

ammo

lekin

va — teng bog'lovchilar yordamida hosil bo'lgan teng bog'lanish

bilan


hamda

-u (-yu)

-da

Gap odatda bir so'zdan yoki bir necha so'zlarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan ham tashkil topishi mumkin. Masalan, *Kuz... Bog'larda mevalar qiyg'os pishgan.* Yuqoridagi gaplarning birinchisi faqat bir so'zdan tashkil topgan bo'lsa, ikkinchisi to'rtta so'zning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan. Gap ikki va undan ortiq so'zlardan iborat bo'lganda, bu so'zlar o'zaro grammatik va mazmun tomondan bog'lanadi.

Gapda so'zlarning bog'lanishi faqat grammatik bog'lanish bilan cheklanib qolmaydi. Bog'lanayotgan so'zlar mazmuniy tomondan ham o'zaro muvofiq bo'ladi. Masalan, *gullamoq* so'zi *gul chiqarmoq* ma'nosi bilan gullash xususiyatiga ega bo'lgan narsalarni bildiruvchi so'zlarga bog'lanadi: *o'rik gulladi, jiyda gulladi* kabi, lekin *tosh, loy, suv* kabi so'zlar bilan bog'lana olmaydi. *Yashnadi, rivojlandi* ma'nosi bilan yashnashi mumkin bo'lgan turli jamoa, tashkilot, mahalla nomlarini bildiruvchi so'zlarga ham bog'lanadi: *qishloq gulladi, litsey gulladi* kabi. Ko'rinadiki, o'zaro bog'lanayotgan so'zlarda mazmuniy uyg'unlik bo'ladi.



Eslab qoling. Bir so'zning boshqa so'zga ma'lum grammatik vositalar (grammatik qo'shimchalar, yordamchi so'zlar) yordamida bog'lanishi grammatik bog'lanish hisoblanadi.

Juda muhim. Gapda so'zlarning bog'lanishi ikki xil bo'ladi: a) teng bog'lanish; b) tobe bog'lanish.

Masalan, *Kalila va Dimna*; *Kitobni o'qimoq*. Bularning birinchisida **Kalila** so'zi **Dimna** so'zi bilan *va* teng bog'lovchisi yordamida; *kitobni* so'zi esa *o'qimoq* so'ziga — *ni* tushum kelishigi yordamida bog'lanyapti. Birinchi bog'lanish **teng bog'lanish**, ikkinchi bog'lanish esa **tobe bog'lanish** sanaladi. O'zaro teng bog'langan bo'laklar bir xil gap bo'lagi vazifasida keladi va ko'pincha bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Ularni bir-biri bilan bog'lovchi vosita sifatida teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi ishtirok etadi. Xususan, yuqoridagi o'zaro teng bog'langan bo'laklarning hammasi qaratqich aniqlovchi vazifasida kelgan, **kimning?** so'rog'iga javob bo'ladi. *Hofiz*, *Navoiy*, *Bedil* bo'laklari bir-biri bilan sanash ohangi yordamida, **Bedil** esa **Fuzuliy** bilan *va* bog'lovchisi yordamida bog'langan.

Eslab qoling. Bir xil gap bo'lagi vazifasida kelib, ko'pincha bir xil so'roqqa javob bo'luvchi bo'laklarning o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi yordamida bog'lanishi teng bog'lanish sanaladi.

Juda muhim. Quyidagi vositalar teng bog'lovchi vazifasini bajaradi.

I. a) biriktiruvchi bog'lovchilar: *va, hamda (ko'pincha va o'rnida bilan ko'makchisi ham qo'llanadi. Masalan, Oygul va Baxtiyor; Oygul bilan Baxtiyor.*

b) zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq.*

d) ayiruv bog'lovchilari: *yo, yoki, yo-yo, goh-goh, dam-dam.*

II. Bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar:

a) gumon yuklamasi: *na...na...*

b) kichraytiruv va ta'kid yuklamasi: *-u (-yu), -da.*

MASHQLAR

I. Matnni o'qing, so'zlarning bir-biriga bog'lanish yo'llari haqida fikrlang.

IKKI MULLA

— Keyingi vaqtlarda ko'zlarim xiralashib qolyapti, — debdi birinchi mulla.

— Nega? — deb so'rabdi ikkinchi mulla.

— Nazarimda, kitobni ko'p o'qiganimdan bo'lsa kerak.

— Bilasizmi, — debdi ikkinchi mulla, — meniki aksincha. Ilgari ko'zlarim xiraroq edi. Kitobni ko'p o'qiyverganimdan ko'zlarim katta-katta ochilib, borgan sari ravshan tortyapti.

II. Teng bog'lanishni hosil qiluvchi vositalarni ko'chirib yozing. Ular ishtirokida yana teng bog'lanishli so'z qo'shilmalariga misollar keltiring.

AMERIKALIK BULOQBOSHI

Fidoyi yurtdoshlarimizdan biri Amerika Qo'shma Shtatlarida yashagan shoir va siyosatshunos Buloqboshi (Ergash Shermat)dir.

Buloqboshi aslida Andijon viloyatining Chaqar qishlog'ida tavallud topgan. O'sib-ungan joylari buloqlarga boy, sersuv-u bahavo bo'lganligi uchun taxallusini Buloqboshi deb olgan.

U 1940-yilgacha, ya'ni askarlik xizmatiga chaqirilgungacha avval Toshkent huquqshunoslik institutining dotsenti, huquqshunoslik fakultetining dekani vazifasida ishlagan. Urush boshlanganda harbiy xizmat burchini o'tash muddati qariyb tugayotgan edi. Kutilmagan qismat «o'yini» sababli xorijda qolib ketishga majbur bo'lgan, chunki qaytib kelguday bo'lsa, asir tushgan askarning taqdiri ma'lum edi. Avval Olmoniyada yashagan, keyin Amerikaga ketgan. Dunyoning ko'p

mamlakatlarini kezgan. Rus, turk, ingliz hamda olmon tillarini yaxshi o'zlashtirib olgan.

U xalqaro anjumanlarda, Amerikaning yirik dorilfununlarida, ayniqsa, Kolumbiya dorilfununida, «Amerika ovozi» radioeshittirishlarida milliy fan, madaniyat, ekologiya hamda Orolni qutqarish muammolari bo'yicha ma'ruzalari bilan muntazam qatnashardi. Amerikadagi qator ilmgohlar, turli tashkilotlar xilma-xil masalalarda maslahat so'rab, ul zotga murojaat qilishardi.

U o'z vataniga muhabbatini va yurt taqdiri haqidagi fikrlarini, falsafiy-badiiy mushohadalarini she'riy satrlarda «Gullar makoni» to'plamiga jamlagan. To'plam 1961-yilda Vashingtonda tayyorlanib, Anqarada nashr etilgan.

MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

1. Qaysi gapda teng bog'lanish ishtirok etgan?

- a) Men bilan opam suhbatlashdi
- b) Siz bilan men boraman
- c) A va B
- d) Ba'zan qor, ba'zan yomg'ir yog'adi.


2. Maktab direktori kotiba olib kirgan hujjatlarga qo'l qo'ydi. Rahimjon ma'yus holda so'ri suyanchig'iga qo'l qo'ydi. Ushbu gaplardagi "qo'l qo'ymoq" birligi haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

- a) har ikkala gapda qo'shma so'z
- b) birinchi gapda qo'shma so'z, ikkinchi gapda so'z birikmasi
- c) har ikkala gapda so'z birikmasi
- d) birinchi gapda qo'shma so'z, ikkinchi gapda ibora

3. Quyidagi birliklardan qaysilari ham erkin, ham turg'un birikma (ibora) sanaladi?

- a) boshiga yetmoq, yaxshi ko'rmoq, qulog'iga quymoq, o'z yog'ida qovrilmoq
- b) boshini ko'tarmoq, ko'ngliga keltirmoq, qo'l ko'tarmoq, to'nini teskari kiymoq
- c) ko'zini yog' bosgan, ko'nglidan o'tkazmoq, qo'lini siltamoq, tosh otmoq
- d) bo'yniga qo'ymoq, kapalagi ochmoq, turidan o'tmoq, ko'zini tikmoq

4. Quyidagi atamalardan qaysi biri sintaksisga tegishli?



- a) orttirma nisbat
- b) modal so'z
- c) taqlid so'z
- d) bosh so'z
- e) bog'lovchi

5. So'zlar o'zaro teng bog'langanda, qanday vositalar orqali bog'lanadi?

- a) ohang va teng bog'lovchilar, teng bog'lovchilar vazifasidagi yordamchi so'zlar bilan
- b) barcha bog'lovchilar bilan
- c) faqat teng bog'lovchilar bilan
- d) teng bog'lovchi va teng bog'lovchi vazifasidagi ko'makchi va yuklamalar bilan
- e) bog'lovchi va ohang

6. Teng bog'lanishli so'z qo'shilmasi qaysi qatorda berilgan?

- a) chiroyli manzara
- b) shoirlar bilan uchrashmoq
- c) go'zallik va yaxshilik
- d) vahimadan qutilish
- e) uchuvchining hikoyasi.

7. So'z qo'shilmasidagi so'zlarning tobe bog'lanishini toping.

- a) yoritadi, ammo isitmaydi
- b) dam qizarib, dam oqardi
- c) taklif, mulohazalar
- d) aniq va puxta
- e) jo'shib gapirmoq.

3-MAVZU. GAP BO'LAKLARI. EGA VA KESIMNING IFODALANISHI. EGALI VA EGASIZ GAPLAR

Gap tarkibidagi o'zaro tobe bog'lanishda bo'lgan so'zlardan bittasi tobe bo'lak, ikkinchisi hokim bo'lak vazifasini bajaradi. Tobe bo'lak hokim bo'lakka bog'lanib, hokim bo'lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo'lagi nomi bilan yuritiladi.

Eslab qoling. Gap tarkibida tobe bog'lanib ma'lum so'roqqa javob bo'luvchi so'z yoki so'zlar birikmasiga gap bo'lagi deyiladi. Masalan, *O'qituvchimga gul berdim.* Bu gapda uchta gap bo'lagi bo'lib, birinchisi *kimga?* so'rog'iga javob bo'lib, to'ldiruvchi vazifasida, ikkinchisi *nima (ni)?* so'rog'iga javob bo'lib, to'ldiruvchi vazifasida, uchinchisi *nima qildi?* so'rog'iga javob bo'lib, kesim vazifada kelyapti.

Demak, gap bo'lagi tobe bog'lanish doirasida, tobe qism vazifasida kelgan bo'laklar hisoblanadi. Uning qaysi bo'lak vazifasida kelayotganligi hokim bo'lakka nisbatan aniqlanadi. Gapda kesimgina boshqa bo'laklarga nisbatlanmagan holda aniqlanadi, chunki uning kesim ekanligini kesimlik shakllari ko'rsatib turadi. Shuning uchun uni gap tarkibidan topish qiyinchilik tug'dirmaydi. Qolgan bo'laklar kesimga nisbatan aniqlanadi. Boshqa bo'laklar javob bo'lishi lozim bo'lgan so'roqlar kesimga qarab beriladi. Masalan, *Sen Pushkinning sevgan malagi gapida kim?* so'rog'iga kesim vazifasidagi *Pushkinning sevgan malagi* bo'lagiga bog'lanadi. *Kim?* so'rog'iga javob bo'luvchi bo'lak ega vazifasida keladi. Demak, ega ham kesimga nisbatan belgilanadi.

Gap bo'laklari gap tuzilishidagi vazifasiga ko'ra ikki guruhga, ikki darajaga bo'linadi.

Juda muhim. Gapni gap qilib shakllanishida muhim bo'lgan, uning mazmuniy va grammatik markazi hisoblanuvchi bo'lak — kesim. Shuning uchun u gapning eng muhim bo'lagi, bosh bo'lak sanaladi.

Ega kesim ifodalagan belgi, harakat-holatlarning egasi sifatida kesimdan keyingi bo'lak sanaladi.

To'ldiruvchi va hol kesim bilan tobe munosabatga kirishib, uning ma'nosini izohlab, to'ldirib keladi. Shuning uchun ular ikkinchi darajali bo'laklar sanaladi.

Aniqlovchi yuqoridagi barcha bo'laklarga bog'lanib, ularning ma'nosini izohlab keladi. Gapda qaysi bo'lak bilan munosabatda bo'lsa,

shu bo'lak bilan birgalikda bitta gap bo'lagi, birikmali gap bo'lagi bo'lib keladi.

Aniqllovchi shu birikmali gap bo'laklarining bo'lagi sifatida keyingi bosqichda ajralib chiqadi.

Shunday qilib, gap bo'laklari bir necha darajalarga bo'linadi:

1. Bosh bo'lak: kesim, ega.

2. Ikkinchi darajali bo'laklar: to'ldiruvchi, hol, aniqllovchi.

MASHQLAR

I. Berilgan gaplarga mos kesim qo'yib gaplarni ko'chiring. Ega bilan moslang.

1. Beshik tebratgan qo'llar dunyoga... 2. Dunyoda kechayotgan tabiat tanazzulini o'ylasam, dilim tubidan bir nido... 3. Tarix haqiqati oyga... 4. Hikmat toshi vositasida kumush oltinga... 5. Qurumsoq tabassumini ham o'zgalardan... 6. Qafasda dunyoga kelgan qum ham erkin tush... 7. Begona yurt osmonidagi quyosh ham musofirga g'arib... 8. Eng xosiyatli buloq — ilm chashmasi: undan suv ichgan sayin tashnalik... 9. Hikmatni o'tda yoqsangiz, u qaqnus yanglig' kuldan yana... 10. U tavbaning kuchiga ishongani uchun ham dahriylik ko'chasiga...

II. Ko'chiring. Gaplarning ega va kesimi, shuningdek, kesimlikni hosil qiluvchi shakllarni toping.

1. Vadud Mahmud do'stlari bilan birga Behbudiyning so'nggi izlarini boshqa shaharlardan ham qidirgandi. 2. U Cho'lpon ta'sirida ozmi-ko'pmi barmoqda (barmoq vaznida) qalam tebratgan. 3. Iste'dodli shoir Botu suronli davr zayli bilan 34 yil umr ko'rdi. 4. Botu haqida o'ylaganimda, uni yaqindan bilgan kishilardan biri Laziz Azizzodaning satrlari yodimga tushadi. 5. Abdulla Alaviyning bizgacha yetib kelgan bor-yo'g'i yetti-sakkiztagina she'rini o'qiydigan bo'lsak, ularda Cho'lpon singari, bir xillikdan qochib, she'riyatning yangi-yangi ufqlariga intilgan shoimi ko'ramiz. 6. 1931-yilning 8-yanvarida xalqimizning yana bir ardoqli farzandi A. Alaviy avji qirchillama yoshida olamdan o'tdi. 7. Mana shunday sharoitda har jihatdan bilimdon va til biladigan kishini ko'rsangiz, og'zingiz ochilib qolishi turgan gap edi. 8. Usmonxon Eshonxo'jayev 1937-yili «Xalq dushmani» sifatida hibsga olinib, otib tashlangan edi. (N. Karimov)

KESIM



1-topshiriq. Ko'pdan quyon qochib qutulmas maqolidagi so'zlar-ning bir-biri bilan qanday bog'langanini aniqlang. Har bir bog'lanishda qaysi so'z takrorlanayotganini aniqlang.

2-topshiriq. Litseyning III bosqich o'quvchisiman gapidan gapga xos bo'lgan shaxs-son, zamon, bo'lishli- bo'lishsizlik, tasdiq- inkorlik ma'nolari qaysi bo'lakda o'z ifodasini topgan?

Esda saqlang. Kesimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modal) ma'nosini ifoda etgan gapning markaziy bo'lagi kesim deyiladi.

Kesimlik ma'nolari kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Har bir kesimlik ma'nosi alohida-alohida ifodalanishi mumkin. Masalan, yozma (tasdiq-inkor) -say (mayl) -di (zamon) -m (shaxs-son). Bitta kesimlik shakli bir necha kesimlik ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, kel-di (o'tgan zamon, III shaxs, tasdiq, aniqlik mayli) yoki o'quvchi-man (I shaxs, hozirgi zamon, tasdiq, aniqlik mayli). Ba'zan kesimlik ma'nolari hol shakli orqali ifodalanadi. Masalan, Kel (kelasi zamon, II shaxs, tasdiq-

buyruq mayli) yoki *Men o'quvchi* (I shaxs, hozirgi zamon, tasdiq, aniqlik).

Kesim nima qildi? nima bo'ldi? nima qilmoqda (qilyapti)? kim (dir)? nima (dir)? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan, *Ishlasang, tishlaysan* maqoli ikkita kesimdan tashkil topgan. Birinchisi *nima qilsang?* Ikkinchisi *nima qilasan?* so'roqlariga javob bo'ladi. *Otam — o'qituvchi* gapida *o'qituvchi* bo'lagi kesim sanalib, *kim (dir)? Kim hisoblanadi?* so'roqlariga javob bo'ladi.

FE'L KESIM VA OT KESIM

Kesimlar ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) fe'l kesimlar; 2) ot kesimlar.

Esda saqlang. *Fe'ldan ifodalanib, nima qilmoq? nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'lgan kesimlarga fe'l kesim deyiladi.*

Masalan, *kitob o'qiyapman* gapida *o'qiyapman* nima qilyapman? so'rog'iga javob bo'lib, fe'l kesim sanaladi.

Opam — shifokor gapida *shifokorkim* (dir)? so'rog'iga javob bo'lib, ot kesim hisoblanadi.

Esda saqlang. *Ot, sifat, ravish, son, olmoshdan foydalangan kesimlarga ot kesim deyiladi.*

Fe'l kesimlar shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl (modal) ma'nolarni kesimlik (fe'l) shakllari orqali ifodalaydi. Ot kesimlarda esa otni kesim qilib shakllantirish uchun maxsus vositalar (-**man**, -**san**, -**dir**; *bo'la* (-*man*, -*san*, -*di*), *hisoblana* (-*man*, -*san*, -*di*), *sanala* (-*man*, -*san*, -*di*) qo'shiladi.

Masalan: U o'quvchi(dir). U o'quvchi hisoblanadi. U o'quvchi sanaladi.

Juda muhim. *Bunday ot kesimni shakllantiruvchi vositalar bog'lama deyiladi.*

Bog'lama ba'zan qo'llanilmasligi mumkin. Bunday vaqtda kesim ohang yordamida shakllanadi. Masalan: U o'quvchi.

Sodda va qo'shma kesimlar

Kesimlar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma kesimlarga bo'linadi. **Esda saqlang.** Faqat bir so'z bilan ifodalangan kesimga sodda kesim, ikki va undan ortiq so'z bilan ifodalangan kesimga esa qo'shma kesim deyiladi. Masalan, *qirlarda lolalar ochildi* gapida *ochildi* sodda kesim, «*Lolazor*» romanini *o'qib chiqdim* gapida *o'qib chiqdim* bo'lagi qo'shma kesim sanaladi. Sodda va qo'shma kesimlar ifodalanishiga ko'ra

sodda fe'l kesim va sodda ot kesim hamda qo'shma fe'l kesim va qo'shma ot kesimlarga bo'linadi. Masalan, 1. Dugonam tashqariga ko'z qirini tashladi. 2. Dadam kasalxonaning bosh shifokori hisoblanadi. Birinchi gapda **ko'z qirini tashladi** bo'lagi *nima qildi?* so'rog'iga javob bo'lib, qo'shma fe'l kesim, ikkinchi gapda esa **kasalxonaning bosh shifokori hisoblanadi** bo'lagi *kim hisoblanadi?* so'rog'iga javob bo'lib qo'shma ot kesim vazifasini bajaradi.

O'ylang: Otni kesim qilib shakllantiruvchi vositalar qaysilar?

Tayanch tushunchalar: fe'l kesim, ot kesim, bog'lama, kesimlik ma'nolari, kesimlik shakllari.

MASHQLAR

I. Quyidagi berilgan so'zlar, qo'shimchalar yordamida kesimni shakllantirib gaplar hosil qilib, yozing.

1. -man, -san, -dir, -miz, -siz, -dir (lar).
2. To'liqsiz fe'llar orqali.
3. Bo'ldi, qildi, etdi kabi yordamchi fe'llar bilan.
4. Ot va sifat bilan ifodalanadigan kesimlar.

II. Matnni o'qing. Ot kesimni shakllantiruvchi vositalarni alohida ko'chirib yozing. Bog'lamarining ostiga chizing.

«XAYR XX-ASR, SALOM XXI-ASR!»

Yaponiyada o'tkazilgan xalqaro rasmlar ko'rgazmasi ana shunday nomlandi. Dilfuza esa yer yuzi bo'yicha shu tanlovda ishtirok etgan 5000 ishtirokchi ichida g'olib bo'ldi.

Izboskanning To'rtko'l qishlog'ida yashovchi Dilfuza Matboboyeva yuzlab, minglab iqtidorli yoshlarimizning biri, xolos. O'zbekiston bag'rida hur shamollar o'stirayotgan bunday navnihollar hali behisob. Kelayotgan asr Sharq asri va, albatta, O'zbekiston asri bo'lishi shubhasizdir. Zero, bugungi Dilfuzalar tashlagan odimlar XXI asr shohsupalariga qo'yilgan ilk qadamlarimizdir. (M. Otamirzayeva)

Esda saqlang. Ega kesim bilan grammatik va mazmun tomondan bog'langanligi uchun doimo kesimning shakliga mos shaklda turadi. Eganing kesim shakliga mos (shaxs-son) shaklda kelishiga moslashuv deyiladi.

Masalan, yuqorida keltirilgan *talabaman* kesimi birinchi shaxs birlikda turganligi uchun uning egasi ham birinchi shaxs birlikdagi olmosh bo'ladi. Yoki *ishlaysiz* kesimi II shaxs ko'plik (hurmat) shaklida turganligi uchun u faqat *siz* so'zini tanlaydi va bu so'z ega vazifasida

keladi. Kesim bilan ega ba'zan son shakli bo'yicha moslashmasligi mumkin. Xususan, ega narsa, hayvonlarni bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanganda. Masalan, *qushlar sayraydilar* emas, *qushlar sayraydi*, lekin shaxsda doimo moslik bo'lishi shart.

Juda muhim. Kesim ot kesim bo'lib, uning kesimlik shaklini ko'rsatuvchi bog'lamalar qo'llanilmasa, u vaqtida kesim ohang yordamida shakllanadi.

Ot kesimning kesimlik shakllari maxsus ifodalanmay, ohang yordamida shakllanganda, shu tugallangan ohangni ifodalash uchun ega bilan kesim o'rtasiga yozuvda tire qo'yiladi. Masalan, *Ro'paradagi bino — maktab. O'zbekistonning poytaxti — Toshkent. Samarqand — azim shahar.*

1. Berilgan maqolni izohlang, kesimlarni topib, qanday so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l.

Bilim — aql chirog'i.

2. Ega va kesimning moslashishini tushuntiring.

MASHQLAR

I. Gaplarning ega va kesimini aniqlab, kerakli o'rinda ular orasiga tire qo'yibko'chiring.

1. Qo'l yugurigi oshga, til yugurigi boshga. (Maqol.) 2. Mehmonlarning aksariyati o'rta yoshli, o'ttiz-qirq orasidagi odamlar edi. (O.) 3. Yaxshining gapi moy, yomonning gapi loy. (Maqol.) 4. Hosilning otasi suv, onasi yer. (Maqol.) 5. Yaxshi niyatli kishilarning ahdi shu. 6. Karim ham shu zavodda faol a'zo. 7. Mardga o'lim yo'q. (Maqol.) 8. Ozod yuraklarga baxt nuri to'lgan. (U.)

II. Kerakli o'rinlarga tire qo'yib gaplarni ko'chiring. So'ngra uni izohlang.

1. Kishidan kishiga qoladigan meros so'z. 2. Bilimsiz kishilar donolarning dushmani. 3. Dunyo shodligini olmoqchi bo'lgan odamga chora ezgulik. 4. Bilimsiz kishi yilqi-hayvon bilan teng. 5. Qo'limda keskir xanjar. Bu mening kimligimga ishora. 6. Ezgulik o'ng, yomonlik chapdir. 7. Ko'p so'zlash donolik belgisi emas. U ezmalik alomati. 8. Otalar so'zi aqlning ko'zi. 9. Do'stlikka yaramaydigan shaxsning eng yaramasi chaqimchi. 10. Qunt donoga yarashiq. Bilim mardlarga ziynat. 11. So'ramoq oson ish. Javob bermoq mushkul. («Qutadg'u bilig»dan)

III. Tire ishlatilgan gaplarni tiresiz holga keltirib ko'chiring (ularning o'rniga kesimlik shakllari va bog'lamalarni qo'ying).

1. Ochiq yuzlilik — bekning yaxshi fazilatlaridan biri. 2. Shoshilish, yengil-yelpi ishlarga havas, jahldorlik — nodonlar ishi. 3. Fisq-fasod qut-saodat dushmani. 4. Vazirlik — ulug' ish. 5. Tamagirlik — kishining boshiga bitgan balo. 6. So'zga chechanlik — kirishimlik alomati. So'zi go'zalning ishi ham yurishadi. Xotira baquvvatligi — elchiga ziynat. 7. Simi eshitishga qobil bo'lgan ikki kishi bor: ularning birinchisi — vazir, boshqasi — kotib. 8. Bu

dunyodagi eng yirik yov — nafsing. 9. Qorin to'ysa arpa ham, holva ham bir xil — ikkalasi ham ortib qolaveradi. 11. Ko'ngil chopmagan ishni qilish — xatar. («Qutadg'u bilig»dan)

MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

1. Qaysi qatordagi gapda fe'l kesim mavjud?

- a. Luqmoni hakimning jahli chiqibdi
- b. Dehqonning gaplari Luqmonga qattiq ta'sir qilibdi
- c. Boshqa xonada bolalar uxlab qolishibdi
- d. A, B va S

2. Qaysi gapda kesim ibora bilan ifodalangan?

- a. Dadam qo'li ochiq odam edilar
- b. U birdaniga to'nini teskari kiyib oldi
- c. Qo'l yugurligi – oshga, til yugurligi - boshga
- d. Ozod yuraklarga baxt nuri to'lgan

3. Qaysi gapda nomustaqil kesim shakli qo'llangan?

- a. Qalb salomat bo'lsa, aql ham, fikr ham salomat bo'ladi
- b. Qani til bo'lsa-yu, u bilan suhbatlasha qolsa!
- c. Bugundan boshlab aravachilar siz bilan borishsa
- d. barcha javoblar to'g'ri

4. Qaysi qatorda ibora bilan ifodalangan kesim berilgan?

- a. Ammamning zardali ovozi eshitib, damim ichimga tushib ketdi.
- b. Qolaver-sa doktorlarga ham qiyin.
- c. O'sha yulduz seniki.
- d. Faridaning onasi har bir harakatini ko'zdan kechirdi.
- e. A va D

5. Sodda ot-kesimini aniqlang.

- a. Chigitni ekib bo'lishdi-yu, bari bir ish ko'p

- b. Ayasi chiqib ketishi bilan, Sherzod karavotda yonboshlaganicha, uyni ko'zdan kechirodi.
- c. Sherzodning esida bor.
- d. Ko'pchilikning haqi yetim haqidan yomon.
- e. Ava S

6. Kesimi majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan qatorni toping.

- a. Shu ko'chadan borib chapga burilasiz.
- b. Uzoqdan ikki otliq ko'rindi.
- c. Yangi xabardan shodlanib ketdi.
- d. Bahor kelib dala ishlari boshlandi.
- e. Buloq suvida yuvindi.

7. Ot-kesimli gap qaysi qatorda berilgan?

- a. O'qishda, mehnatda, fanda, xalqqa astoydil xizmat qilishda o'z baxtingni topasan.
- b. O'smirlikdagi tushkunlik-yoshlikka xos kasallik
- c. Me'yor-sog'likning posbonidir
- d. A va B

8. Qaysi gapda ega qo'llangan?

- a. O'zboshimchalikka yo'l qo'yilmaslik
- b. O'quvchi yo'q har qadamda qoqiladi
- c. Tarbiyachi va o'qituvchi bo'lish uchun chidam bilan o'qiladi
- d. O'zinigina o'ylovchi kishini yaxshi odam deb bo'lmaydi.

9. So'z birikmalari zanjiri gapning egasi atrofida birlashgan holatni toping.

- A. Badanni junjiktiruvchi sovuq shamol izg'ib qoldi
- B. Boboning tabiati ravshan bo'lib ketdi
- C. Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to'ldiradi
- D. Sayohatchilar daraning pillapoya kabi yotiqroq yerlaridan yuqoriga intildilar.

10. Ma'lum matnda gaplar qaysi jihatdan bog'lanadi?

- A. morfologik jihatdan
- B. sintaktik jihatdan
- C. mantiqiy jihatdan
- D. A, B va S

11. Quyida berilgan gaplardan qaysisida ohang o'zgarishi

orqali farqli fikr hosil qilish mumkin?

A. Tog' qushlarining sayrashi qo'ylarning ma'ragan ovozloriga jo'r bo'lmoqda

B. Haligi sumka ko'targan qizini chaqirdi

C. Gulchehra mo'ysafidga nima javob qilishini bilmay, o'zini tramvayga otdi

D. Nima bo'ldi, qizim, nega yig'layapsan

12. Qaysi gapda gapning o'zgargan tartibi ega va kesimga tegishli?

A. Shovulladi tun bo'yi shamol

B. Qaldiroqlar ko'chdi larzakor

C. Men nechun sevaman O'zbekistonni?!

D. Arra tortar, Nosirning boshi egik, ko'zi nam

13. Quyidagi gapning egasi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

Senga tengdosh Pomir-u, Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.


A. Pomir-u, Tiyonshon

B. tengdosh

C. senga

D. o'zbekim

4-MAVZU. GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI. TO'LDIRUVCHI VA UNING IFODALANISHI



Eslab qoling. *Gapning kesimi bilan bog'lanib predmetlik ma'nosini ifodalovchi va kimni? nimani? kim (bilan, orqali, uchun), nima (bilan, orqali, uchun) so'roqlariga javob bo'lgan ikkinchi darajali bo'lakka to'ldiruvchi deyiladi.*

E'tibor bering: Men **undan** (kimdan?) so'radim: Mehringni qo'yib, bunchalar saralab **gul** (nimani) terding **kimga**? Gulidan (nimadan) ko'zini (nimani) uzmayin singlim. Asta javob berdi: — **O'qituvchimga** (kimga).

To'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakat-holat, belgi-xususiyat bilan bog'langan predmetni bildirganligi tufayli ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi.

To'ldiruvchi doimo gapning kesimi bilan bog'lanadi. Agar u bog'langan so'z kesim bo'lib shakllana olmagan bo'lsa, ana shu so'z bilan birgalikda kesimga nisbatan bitta gap bo'lagi vazifasida keladi. Bunday vaqtda u gapning emas, bo'lakning bo'lagi bo'ladi. Masalan, *Onamdan eshitgan gaplarni aytdim.* Bu yerda *onamdan eshitgan gaplarni* birikmasi nimalarni? so'rog'iga javob bo'lib, kesimga bir butun holda bog'lanadi. Bu birikmali to'ldiruvchi o'z ichida qismlarga

bo'linadi: *onamdan eshitgan*(qanday) gap. Qanday? so'rog'iga javob bo'luvchi *onamdan eshitgan* birikmali aniqlovchi o'z ichida yana tarkibiy qismlarga bo'linadi: *onamdan* (kimdan?) *eshitgan*.

Shunday qilib, to'ldiruvchilar kesimga to'g'ridan to'g'ri bog'lanish-bog'lanmasligiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: a) mustaqil to'ldiruvchilar; b) nomustaqil to'ldiruvchilar.

Juda muhim. *To'g'ridan to'g'ri kesimga tobe bog'lanib kelgan to'ldiruvchilar mustaqil to'ldiruvchilar sanaladi. Masalan, seni sog'indim gapida kimni? so'rog'iga javob bo'luvchi seni so'zi kesim vazifasida keluvchi sog'indim bo'lagiga bog'lanib, mustaqil to'ldiruvchi vazifasida keladi. Kesim vazifasida kelmagan, bunday to'ldiruvchilar o'zi bog'langan fe'l bilan bog'langan to'ldiruvchilar nomustaqil to'ldiruvchi hisoblanadi. Shuning uchun u biron bir ikkinchi darajali bo'lakning tarkibiy qismi — bo'lakning bo'lagi vazifasini bajaradi. Masalan, Dangasaning nonyeyishini ko'r gapida dangasaning non yeyishini birikmasi nimani? so'rog'iga javob bo'lib, birikmali to'ldiruvchi vazifasida keladi. Birikmali gap bo'lagi esa kimning? va nimani? so'roqlariga javob bo'luvchi aniqlovchi (dangasaning) va to'ldiruvchi (non)larni o'z ichiga oladi. Bu bo'lak tarkibidagi non bo'lagi nomustaqil to'ldiruvchi, bo'lakning bo'lagidir.*

To'ldiruvchilar kesim bilan qanday bog'lovchi vosita yordamida bog'lanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: a) kelishikli to'ldiruvchilar; b) ko'makchili to'ldiruvchilar. Masalan, **sen bilan** (kim bilan?) **olam munavvargapida sen bilan** bo'lagi ko'makchili to'ldiruvchi. Senga (kinga?) **aytar gapim bor** gapidagi **senga** bo'lagi kelishikli to'ldiruvchi sanaladi.

Tushum kelishigi bilan shakllangan to'ldiruvchilarda to'ldiruvchi bilan u bog'langan hokim bo'lak yonma-yon turganda tushum kelishigi ifodalanmasligi mumkin, lekin uning borligi so'rog'idan va kesimning o'timli fe'l ekanligidan bilinib turadi. Masalan, *shoirlari g'azal bitadi*, gapida *g'azal* so'zi u bog'langan kesim o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lib, nimani? so'rog'iga javob bo'luvchi so'zning bo'lishini talab qiladi. Agar to'ldiruvchini kesimdan uzoqlashtirsak, to'ldiruvchi bilan kesim o'rtasiga boshqa bir so'zni kiritsak, tushum kelishigi tiklanadi. Masalan, *g'azalni shoirlari yozadi*. Ko'rinadiki, tushum kelishigi doimo tushib qola bermaydi.

Juda muhim. *To'ldiruvchi hokim bo'lakdan anglashilgan harakatiga, munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:*

1) vositasiz to'ldiruvchi; 2) vositali to'ldiruvchi.

Tushum kelishigi orqali ifodalangan to'ldiruvchi vositasiz, qolgan shakllardagi to'ldiruvchilar vositali sanaladi.

Savol va topshiriqlar

1. To'ldiruvchi qanday gap bo'lagi hisoblanadi?
2. Qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi?
3. Vositali to'ldiruvchi qanday ifodalanadi?
4. Vositasiz to'ldiruvchi qanday ifodalanadi?

Mashqlar

I. Berilgan matnni davom ettiring. Mustaqil to'ldiruvchilarni aniqlang.

Non — bu mo'jiza. Non — bu ilohiy ne'mat. Non — bu ona kabi muqaddasdir.

Ha, nonni ta'riflashga har qanday so'z ojizlik qiladi. Non to'g'risida rejissorlar yuzlab filmlar yaratdilar. Uning shifobaxsh xususiyati haqida shifokorlar ilmiy asarlar yozdilar. Non haqida ertakchilar ajoyib rivoyatlar-u ertaklar to'qidilar...

II. Nuqtalar o'rniga quyidagi kelishik qo'shimchalari va ko'makchilardan mosini qo'ying. -ga, -da, -ning, -ni; qarab, tomon, yanglig', sari...

1. Netkay erdi o'z otasi... o'zi tosh otgan padarbezorilar... qo'llari shol bo'lsa?! 2. Koshkiydi, ozod qush... aylansam-u qoshingiz... uchib borsam, diydangiz yarasi..., dilingiz jarohati... malham bo'lolsam! 3. Koshkiydi, hayotbaxsh shamol... boshingiz ustidagi qora bulutlar... quvolsam! 4. Qismat bu isnod-u uyat... ayni biz... boshimiz... solgan erkankim, shul zamon... tug'ilganim... pushaymonda..., musibatli damlar... qulayotgan saltanat tojdori... — Sizga, Qiblagoh, qanot bo'lolmaganim... ozurda va armondaman! 5. Dushmanlar Xorazm... bormoqdalar, chunki tuprog'i ofatlar... bardoshli, el-ulusi sabr-qanoatli, jo'mard, tili... Olloh kalomi, dili... iymon-e'tiqod quvvati bisyordir.

(E. Samandar)

1. *Harakat nomi bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchi qo'llangan gapni toping.*

- A. *Uning kulib boqishlarini bir zum ham unutmayman.*
- B. *O'quvchilar dam olishga dala shiyponiga kelishdi*
- C. *Mening borishimdan sizga nima foyda?*
- D. *So'rashdan uyalma, bilmaslikdan uyal*

2. O'rin-payt kelishigi kelishigi shaklidagi so'zning to'ldiruvchi vazifasida kelishi qaysi qatorda berilgan?
- A. Yozda qilingan mehnat o'z natijasini berdi
 - B. Birlashma idorasi uch qavatli binoda edi
 - C. Katta chinni kosada suv olib chiqdi
 - D. Nemis do'stlarimizni Buxoroda uchratdik
 - E. Ohangni chuqur sukutda tingladilar
3. Chiqish kelishigi shaklidaga so'zning to'ldiruvchi vazifasida kelishi qaysi qatorda berilgan?
- A. Anvar bolalikdan otlarni sevardi
 - B. G'ulomjon uyidan erta chiqib ketgan ekan
 - C. Sultonovning gapini chin yurakdan qarshiladi
 - D. Men Farg'onaning bir chekka qishlog'idanman
 - E. U ham muhabbat zavqidan bahramand bo'ldi
4. Otlashgan so'z bilan ifodalangan to'ldiruvchini toping.
- A. Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin
 - B. Chiniqqanga dard yuqmas
 - C. Kulgu yuzni go'zal qiladi
 - D. Dardsiz odamdan ijodkor chiqmaydi
 - E. Ko'rmaganlar ko'rishni orzu qildilar
5. Ko'pdan quyon qochib qutilmas. Ushbu maqolda to'ldiruvchi vazifasida qo'llangan so'z qaysi so'z turkumiga mansub?
- A. son
 - B. sifat
 - C. ot
 - D. olmosh
 - E. ravish
6. Ibora bilan ifodalangan to'ldiruvchi bor gapni toping.
- A. Kulganni kulib yengasan
 - B. Yomonga yondoshma, yaxshidan adashma
 - C. Urgan kishidan bola nafratlanadi
 - D. E'tiqodsiz odamdan har qanday qabohatni kutish mumkin
 - E. Men uning teppa sochi tikka bo'lishini kutmagan edim.
7. Olmosh bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan gapni aniqlang.
- A. Usta u deb ko'rdi bu deb ko'rdi bo'lmadi
 - B. O'zbekning otpuskasi yo uy qurish bilan o'tadi yo to'y qilish bilan o'tadi

- C. Qubba o'yini qiyin emas
- D. Uning gapi yolg'on dedi bola
- E. Ikkovlashib Zebi xolani kabinaga chaqirdik.

8. Kishilik olmoshining to'ldiruvchi vazifasida kelishi qaysi qatorda berilgan?

- A. Siz bir oz dam oling
- B. Parizod bo'lgan voqeani unga aytib berdi
- C. Shubhasiz, bu – sizning yutug'ingiz
- D. Ular bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmoqdalar
- E. Men supaga o'tirdim.

9. Ko'makchi so'zlar bilan qo'llangan vositali to'ldiruvchini aniqlang.

- A. Vaqt hamma jarohatlarni davolaydi
- B. Baxtsizlik faqat kurash bilan yengiladi
- C. Muhayyo bu sodda, beg'ubor bolaga havas bilan qaradi
- D. Yoshlik kishiga faqat bir marta beriladi
- E. Yoshlikdagi yanglishishlarni kechirmoq kerak.

10. Qaysi gap tarkibida ham vositali ham vositasiz to'ldiruvchi qo'llangan?


- A. Fanni ko'pincha bilim bilan yanglishtiradilar
- B. Quruq so'z bilan ish bitmas
- C. Dehqon kasbini xo'rlamas
- D. Tinchlik bilan el ko'karar, yomg'ir bilan yer ko'karar
- E. Aql bo'y bilan o'lchanmaydi.

*Quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim:

— Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz.

— Biz bitta kemadamiz: birgalikda suzib chiqamiz yoki halok bo'lamiz.

5-MAVZU: HOL VA UNING IFODALANISHI



4-ilova

Esda saqlang. Gapning kesimidan anglashilgan harakatning belgisini bildiruvchi gap bo'lagiga hol deyiladi. Hollar qanday? qanday qilib? qay holda (tarzda?), qachon (-gacha, -dan, -dan buyon)? qayer (-da, -ga, -dan?), nima sababdan? nima maqsadda? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Juda muhim. Hol doimo fe'l kesimga bog'lanadi. Masalan, *Quyosh ko'kdan mo'ralab qarar gapida qarar so'ziga mo'ralab so'zi bog'lanib, undan anglashilgan harakatning tarzini, ko'kdan so'zi qarar so'ziga bog'lanib, uning o'rnini bildiradi. Ba'zan hol ot kesimlarga ham bog'lanishi mumkin. Bunday vaqtda hol ot kesimdan anglashilgan predmetning o'rnini bildiradi. Masalan: Andijonda o't yoqsam, O'shda tutuni.*

Ayrim paytlarda hol kesim vazifasida kelmagan fe'llarga ham bog'lanishi mumkin. Hol bog'lanib kelgan fe'lning kesim vazifasida kelishi yoki kelmasligiga ko'ra hollar xuddi to'ldiruvchilar kabi mustaqil va nomustaqil hollarga bo'linadi.

Esda saqlang. To'g'ridan-to'g'ri kesim vazifasidagi fe'lga tobe bog'lanib kelgan hollarga mustaqil hollar deyiladi.

Masalan, *Dalalarda boshlanadi ish.* (H.Olimjon) Bu gapda qayerda so'rog'iga javob bo'luvchi *dalalarda* o'rin holi nima qiladi? nima bo'ladi? so'roqlariga javob bo'luvchi fe'l kesimiga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol mustaqil holdir.

Esda saqlang. Kesim vazifasida kelmagan fe'llarga tobe bog'langan hollar nomustaqil hol hisoblanadi.

Masalan, *Daladan charchab kelgan yigit tezda uxlab qoldi.* Bu gapda qayerdan? so'rog'iga javob bo'lib hol vazifasida kelayotgan *daladan* bo'lagi kesimga emas, balki aniqlovchi vazifasidagi *charchab kelgan* bo'lagiga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol **nomustaqil hol** hisoblanadi.

Hollar o'zi bog'lanib kelgan hokim bo'lakning qanday belgisini bildirishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1) ravish holi; 2) o'rin holi; 3) payt holi; 4) sabab holi; 5) maqsad holi.

Holning ma'no turlari, ularning shakllari va ichki ma'nolarini jadvalda ko'ring.

1.	Ravish holi	Fe'l-kesimdan anglashilgan harakatning qay tarzda bajarilishini ifodalaydi	Qanday? Qanday qilib? Qay holda?	ravish, -ib, taqlid so'zlar	Tez o'qidi, yugurib keldi, g'ir-g'ir esdi
2.	O'rin holi	Kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish o'rmini bildiradi.	Qayerda? Qayerdan? Qayerga?	o'rin oti +da +dan, o'rin ravishi+ ga sari, tomon	Bozordan oldim. Dala tomon ketdi.
3.	Payt holi	Fe'l-kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish paytini bildiradi	Qachon? Qachongacha? Qachondan?	payt oti+da, +dan, payt ravishi+ gacha,guncha	Tongda, ayozda, hozirgacha, charchaguncha
4.	Sabab holi	Fe'l-kesimdan anglashilgan harakat-	Nimag? Nima uchun? Nima sabab?	-ligi(sabab-li, uchun, tufayli),	Yaxshi o'qiganligidan oliygohga kirdi.

		holatning bajarilish yoki bajarilmaslik sababini bildiradi		-ligidan, -ib	
5.	Maqsad holi	Fe'l-kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish maqsadini bildiradi.	Nima maqsadda? Nima uchun?	-gani, -sin deb,(-i)sh maqsadida, uchun	O'qigani ketdi. O'qish maqsadida ketdi.

SAVOLLAR

- 1.Hol qanday gap bo'lagi hisoblanadi?
- 2.Qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi?
- 3.Necha xil ma'no turi bor?
- 4.Mustaqil hol qanday hol hisoblanadi?
- 5.Nomustaqil hol qanday hol hisoblanadi?

Mashqlar

I.O'qing. Hollarni topib, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga birikma tarzida ko'chiring, qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanganini va turini ayting.

1. Xiyobonning chap tomonida kutubxona joylashgan. 2. Xiyobon oxirida ayvoni baland bahavo binoni butun hovlining ko'rki desa bo'ladi. 3. Ular qushdan ham yengil uchardilar. 4. Oraga jimlik cho'kdi, hammaning qulog'i ding bo'ldi. Hech qayerdan hech qanday sado eshitilmas, faqat Chorsu maydoni tomonda sadaqa so'rab yurgan bir gadoning o'tkir ovozi elas-elas quloqqa chalinardi. 5. U sal noxushlik seza boshladi. 6. Lakshman esa darrov tanidi, ularni Chorsu maydonida, bozorda, to'y-tomoshalarda ko'p ko'rgan. 7. Shunday dedim-u apil-tapil ko'zimni ochdim! 8. Men atay indamasdan chiqib ketayotgandim. 9. Axsidan chiqib ketganimning beshinchi yili Xo'jandda turganimda yashirincha bolalarimni ko'rib kelishga qaror qildim. 10. Samarqand hokimi maktubni avaylab naycha holiga keltirdi-da, bir lahza Chorsu tomonga, uzoqlarga tikildi. 11. Abu Bakr Kalaviy pokdomon odam edi.
(Muhammad Ali)

II. O'qing. Hollarni topib quyidagicha tablil qiling:
a) ma'nosiga ko'ra turi; b) qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligi;
d) tuzilishiga ko'ra turi (sodda yoki birikmali).

1. U hayron bo'lib ohista boshini ko'tardi, oyoqlarini ko'rpaning ichiga uzatib o'tirgan holda quloq soldi. 2. Hamma yerda bulbulning shirin kuylari hamisha qulog'i ostida jaranglab turardi. 3. Qish oxirlab, vodiydagi qorlar allaqachon erib ketgan. 4. Oyoqning yuzlari qizarib ketdi, uyalganidan boshini quyi solib, indamay qoldi. 5. Oyoq o'z-o'zicha o'ylanar edi. 6. Ko'zlari tolib, endigina uyquga ketgan Oyoq yarim kechada qichqirgan xo'rozning bo'g'iq ovozi bilan uyg'onib ketdi. 7. U kamzulchasini yelkasiga tashlagan holda ohista yurib chiqdi, musaffo havodan to'yib-to'yib nafas oldi. 8. U o'zini zo'rg'a bosib olib, Umurzoq otaning ko'krigiga boshini shilq etib tashlar, shivirlab iltijo qilardi. (Sh. Rashidov)

1. Ravish bilan ifodalangan hol qo'llangan gap qatorini aniqlang.

- A. Uy ichida odam ko'p edi
- B. Shodmonbek zarbdan ko'zi tinib hushdan ketdi
- C. Yig'lab-yig'lab marza olsang, o'ynab-o'ynab sug'orasan
- D. U o'ychan ko'zlari bilan Botirga qarab sekin gapirdi

2. Joni xalqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig'lab yubordi. Ushbu gap qanday gap bo'laklaridan iborat?

- A. ega, kesim, ikkita ravish holidan
- B. ega, kesim, sifatlovchi aniqlovchi, sabab va ravish holidan
- C. ega, kesim, ikkita ravish holi va bitta sabab holidan
- D. ega, kesim, sifatlovchi aniqlovchi va ikkita ravish holidan

3. Faqat ravish holi bilan kengaygan sodda yoyiq gapni toping.

A. Tursunali bir-bir bosib minbarga chiqdi va dona-dona gapirdi

- B. Bola epchillik bilan turdi, qisqa va lo'nda javob berdi.
- C. Tiniq suvdan hovuch-hovuch oldi, qonib-qonib ichdi
- D. Quvvatsizligidan tez charchadi

4. Qaysi gapda ibora hol vazifasida qo'llangan?

A. Qani endi u hozir yonida bo'lsa, yurt tinchigan, dehqonning og'zi oshga yetib, ro'zg'origa baraka kiritgan vaqtlarni ko'rsa

B. Yulduzni benarvon urgan yigitlar o'shalar

C. Tiyrak ko'zlarining yiltirashidan jiddiy gapga bel

bog'laganini angladi

D. Ular o'zlarini qayerga qo'yishini bilmay yugurishadi.

5. Mahmud majlisda qatnashmagan bo'lsa-da topshiriqni bajardi. Ushbu gapda holning qaysi turi mavjud?

A. sabab holi

B. maqsad holi

C. vaziyat holi

D. o'rin holi

E. to'siqsizlik holi.

6. Maqsad holini toping.

A. Tarixiy joylarni tomosha qilish maqsadida Samarqandga jo'nadik

B. U uyalganidan qizarib ketdi

C. Bizning mardlar ko'kka parvoz qilmoqda

D. Qizil olma mevasining mo'lligidan hovuzga engashib tushgan

E. Inson amaliy tafakkurni o'rganishga hamisha ehtiyoj sezadi.

7. Qaysi gapda sabab holi berilgan?

A. U ona bilan samimiy salomlashdi

B. Nima uchun achchig'i chiqqanini o'zi ham bilmasdi

C. U sho'xlikni qancha bilsa kattalarga hurmatni shuncha bilar

edi

D. Ular atayin aylanma yo'llardan yurdilar

E. Biz u bilan baxt haqida ko'p o'ylar edik.

8. Vaziyat holi qatnashgan gap qaysi qatorda berilgan?

A. Shu kuni nima yumush berishsa oyog'im olti, qo'lim yetti bo'lib yugurdim

B. Bir mahal tashqarida gurji kuchugimning akillagani eshitildi

C. Nasiva bu gapni jo'rttagi baqirib aytdi

D. Bugun-erta havo ham o'zgarib qolsa kerak

E. A va S

9. Payt holi qo'llangan gapni aniqlang.

A. Alimardon qayrilib qaraguncha boshqa odamlar uni o'rab olishdi

B. Hech qachon zeriktirmaydigan o'ta topqir odam topilmasa kerak

C. Hazillashayotganda odobni saqlang

D. A va S

E. B va S

10. O'rin holi qaysi javobda berilagnini aniqlang.

A. Yaxshi fikrlarni takrorlash hech qachon ortiqchalik qilmaydi

B. Qayerda aniq bilim bo'lmasa, u joyda farazlar hukm suradi

C. Istak yo'qolgan yerda odam ham ado bo'ladi

D. A va B

E. B va S

11. Qaysi gapda ravish (vaziyat) holi qo'llangan?

A. O'z burchini bajarishdan mamnun odamgina erkin yashaydi

B. Vaqtni behuda o'tkazma

C. Xurshida boshidan hushi uchib borayotganini his qilib turar, yuragi gursillab urardi

D. A va B

E. A, B va S

12. Sabab holi qaysi gap tarkibida qo'llangan?

A. Bu kitobni o'qiyman deb olib kelgan edim

B. Odam faqat aqli bilan odamdir

C. Siz borki, dunyo husni barkamol

D. G'iyos uyalganidan nima qilishni bilmay qoldi

E. B va D

13. Miqdor (daraja miqdor) holi qaysi gap tarkibida qo'llangan?

A. Buyuk ishlar tez yuzaga chiqmaydi

B. Yangilikka ko'proq e'tibor berilsin

C. Bitta dushmaning ham ko'p, do'stlaring mingta bo'lsa ham kam

D. Odam ikki marta yashamaydi, lekin bir marta yashashni ham bilmaydiganlar bor

E. B va D

14. Maqsad ravishdoshi bilan ifodalangan maqsad holi qaysi qatorda berilgan?

A. Dam olishga shifonga to'plandik

B. Bu rasmlarni ukamga ko'rsatayin deb olib keldim

C. Siz bilan bafurja gaplashgani keldim

D. G'iyos Tursunni ko'rmoqchi bo'lib kelgan ekan

E. B va S

15. Shart holi qo'llangan gapni ko'rsating.

A. Bu vazifani hamma bajarishi shart

- B. Savar shartta jo'nab qoldi
- C. Bugundan tayyorgarlikni boshlasang bemaolol ulgirasan
- D. Yer yaxshi ishlansa, hosil ham shunga yarasha bo'ladi
- E. S va B

16. Sabab ravishi bilan ifodalangan sabab holini toping.

- A. Bu kishilar doim insoniyat uchun qayg'uradi
- B. Yangi chiqqan oy yoyilib ketgan o'roqday ingichka bo'lgani uchun yo'lni yoritmasdi.
- C. Mahbuba uning taklifiga noiloj ko'ndi
- D. Alisher shu sababli vahimaga tushdi
- E. Nima uchun uning bashorati ijobat topmadi.

*O'zingiz ham yordam bering.


*Guruhlar faoliyati natijalarini baholashda barcha ishtirok etishi shart.

*Quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim:

— Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz.

— Biz bitta kemadamiz: birgalikda suzib chiqamiz yoki halok bo'lamiz.

6-MAVZU: ANIQLOVCHI VA UNING IFODALANISHI



Ma'lum bir gap bo'lagi vazifasida kelgan predmetni bildiruvchi so'zlarga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak aniqlovchi hisoblanadi.

Masalan, *Shakar qovunlarning mayin hidlari sabo bilan tarqalar sekin* gapida nima tarqaladi? so'rog'iga *shakar qovunlarning mayin hidlari* birikmasi javob bo'ladi. Demak, bu birikmaning hammasi yaxlit holda birikmali ega vazifasida keladi. Birikmali ega, o'z navbatida, aniqlovchi va aniqlanmish qismlariga bo'linadi: *shakar qovunlarning* (qaratqich aniqlovchi) *mayin hidlari* (aniqlanmish). Qaratqich aniqlovchi ham, aniqlanmish ham birikmali bo'lib, ular sifatlovchi va sifatlanmishlardan tashkil topgan. *Shakar* (sifatlovchi) *qovunlarning* (sifatlanmish), *mayin* (sifatlovchi) *hidlari* (sifatlanmish).

Aniqlovchilar sifat, olmosh va sifatdoshlar bilan ifodalanadi.

Aniqlovchilar predmetning qanday belgisini ifodalashiga ko'ra uch turli bo'ladi:

- a) sifatlovchi aniqlovchilar;
- b) qaratqich aniqlovchilar;
- d) izohlovchi aniqlovchilar.

Sifatlovchi aniqlovchi

Esda saqlang. *Predmetning belgisini (ta'm-maza, xil-xususiyat, miqdor, tartib, o'rin-paytga munosabat) bildirgan aniqlovchilarga sifatlovchi aniqlovchi deyiladi.*

Sifatlovchi aniqlovchilar qanday? qanaqa? qancha? nechta? qaysi? qanaqa? qayerdagi? nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan,

qizil (qanday?) olma, uchta (nechta?) olma, ana bu (qaysi?) olma, adirdagi (qayerdagi?) olma, kechagi (qachongi?) olma, uchinchi (nechanchi) sinf kabi.

Juda muhim. Sifatlovchi aniqlovchi sifatlovchi, aniqlanayotgan predmet esa sifatlanmish deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish munosabati sifatlovchili birikma sanaladi.

Esda saqlang. Bir predmetning boshqa predmetga qarashlilik belgisini bildirgan aniqlovchiga qaratqich aniqlovchi deyiladi. Masalan, *Mirzacho'lning shamoli. O'rik guli* kabi.

Juda muhim. Qaratqich aniqlovchi qaratqich, qaratqich aniqlovchi bog'langan bo'lak esa qaralmish deyiladi. Qaratqich va qaralmish munosabati qaratqichli birikma hisoblanadi.

Qaratqich aniqlovchi qaratqich kelishigi shaklini, qaralmish egalik qo'shimchasi shaklini olgan bo'ladi. Ba'zan bu shakllar ifodalanmasligi mumkin. Qaratqich va egalik shakllarining ifodalanishi quyidagicha bo'ladi:

- | | |
|---------------------------|-----------------------|
| a) ot+qaratqich-ot+egalik | Litseyning ko'rinishi |
| b) ot+qaratqich-ot+□ | Quyoshning nuri |
| d) ot+□ - ot+egalik | Shahar ko'chalari |
| e) ot+□ - ot+□ | Bozor ko'cha |

Juda muhim. Qaratqichda qaratqich kelishigi doimo tushib qola bermaydi. Agar qaratqich atoqli otlar, olmoshlar, otlashgan so'zlar bilan ifodalangan bo'lsa, albatta, qaratqich kelishigi bilan qo'llanadi. Shuningdek, qaratqich va qaralmish o'rtasida boshqa bir so'z bo'lsa, qaratqich kelishigi tushib qolmaydi. Masalan, *Mirzacho'l shamoli, Mirzacho'lning sovuq shamoli.*

Qaratqich bilan qaralmish o'zaro shaxs-sonda moslashadi. Masalan: *Mening daftarim, sening daftaring, uning daftari.*

Izohlovchi aniqlovchi

Ayrim otlar, hatto atoqli otlar ham ba'zan bir necha shaxslarni ifodalashi mumkin. Bunday vaqtda ko'pincha qaysi Ahmad, qaysi Karim singari so'roqlar yordamida gap kim haqida ketayotganligini aniqlashtirib olamiz. Ana shu vaqtlarda izohlovchilarga ehtiyoj tug'iladi.

Esda saqlang. Predmetni boshqa bir nom berish bilan aniqlaydigan bo'lakka izohlovchi aniqlovchi deyiladi. Masalan, *akademik Habib Abdullayev, Jo'ra soatsoz, dutorchi qizlar* kabi.

Esda saqlang. *Izohlovchi bog'langan hokim bo'lak izohlanmish deyiladi. Izohlovchi va izohlanmish munosabati izohlovchili birikma sanaladi.*

Izohlovchi-izohlanmish munosabati sifatlovchi-sifatlanmish munosabatiga o'xshaydi, lekin ular qanday so'zlar bilan ifodalanishi bilan farq qiladi. Sifatlovchi-sifatlanmish munosabatida sifatlovchi, asosan, **sifat** va sifatlashgan so'zlardan ifodalanadi. **Sifat+ot** ko'rinishida bo'ladi. Solishtiring: *qizil gul* (sifatlovchi-sifatlanmish); *professor G'ozim Olim Yunusov* (izohlovchi-izohlanmish).

Izohlovchi taxallus va o'xshatish ma'nolarini bildirganda, izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasiga tire qo'yiladi. Masalan, *Erk kuychisi — Abdulhamid Cho'lpon she'rlarini sevib o'qiyman.*

Hayotning poyonsiz ummoni ichra

Bor shunday g'ariblar — temirlar hissiz. (A. Oripov)

	Aniqlovchining ma'no turlari	Izohi	So'rog'i	Shakllari	Misollar
1.	Sifatlovchi aniqlovchi	Predmetning belgisini(mazata'm, xususiyat, miqdor, tartib) bildiradi.	Qanday? Qaysi? Qayerdagi? Qachongi? Nechanchi?	Fe'l, sifat, ot, ravish, taqlid so'z, olmoshlar	Ilg'or ishchilarga mukofotlar topshirildi.
2.	Qaratqich aniqlovchi	Hokim bo'lakdan anglashilgan predmetning uch shaxsdan biriga qarashli ekanini bildiradi.	Kimning? Nimaning?	Ot, olmosh, otlashgan so'zlar.	Bizning eshon kabobpazlar- ning piridir.

3.	Izohlovchi aniqlovchi	Aniqlanmishning millati, jinsi, kasb-kori, nasl- nasabi, unvoni, laqabi, yoshi, qarindoshligi kabi qo'shimcha belgilarni bildiradi.	Kim? Qaysi?	Ot, otlashgan so'zlar	Juman pismiqlning askiyalarini eshitdik. Kapitan Mansurov so'zladi.
----	--------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------	-----------------------------	------------------------------------------------------------------------------------

Mashqlar

I. Ko'chiring. Aniqlovchilarni topib, so'rog'i, ifodalanishi va qaysi so'z bilan bog'lanib kelganini ayting.

Alisher rastalardan ildam o'tib bordi. Bozor chekkasidagi qo'l yozma kitoblar taxlab qo'yilgan kichik do'konchalar uning e'tiborini jalb qildi. Bu sovuq va nim qorong'i do'konchalarda inson aqlining xazinalari o'yma guli charm muqovalarga o'ralib taxlanib yotardi. Kitob do'konlari yoniga muqovasoz ustalarning do'koni joylashgan. Alisher to'xtab, mashhur muqovasoz ustaning gul solish oldidan charmni tarang qilib tortib, iylashini uzoq tomosha qildi. Ayniqsa, ana shu rastalarda Alisher o'zining hirotlik ekanini yaqqol his etdi. eski qo'l yozmalarning hidini huzur qilib iskarkan, u ketishga shoshilmasdi. (L.Bat.)

II. Ko'chiring. Aniqlovchilarni topib, turini, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting. Sifatlovchilarni sifatlanmishlar bilan birga ko'chiring. Sifatlovchi tagiga to'lqinli chiziq chizing.

1. Choy ustida shiringina oilaviy suhbat boshlanib ketdi. (J.Ikromiy.) 2. Yangi klub. Katta zalda o'tgan kuni bo'ldi bal. (Q.H.) 3. Ming bir xil davo bor totli qimizda. (Mirm.) 4. Chang-to'zon bilan qoplangan osmonda mayda-mayda yulduzlar g'ira-shira miltirardi. (N.Biryukov.) 5. Boychechaklarning xushbo'y, sezilar-sezilmas hidini nayning yoqimli sasi bilan uchirib keldi. (I.R.) 6. Bir qarashdayoq uning zehnli, udli-shudloi ekanligini bilib oldim. (Sh.Siddiqiy.)

III. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'shib ko'chiring.

1. Farg'onalik ... terimchi Fayziniso opa mavsum oxirigacha 10 ming kilogramm paxta terib berishga ahd qilgan edi. 2. Manzura ... sinfda o'qiydi. 3. Bahorning ... shabadasi kishiga orom beradi. 4. Paxta maydonida ... mashinalar paxtalarni yig'ib bormoqda. 5. esdi ... shamollar, izg'irinlar, bo'ronlar. 6. Oyoqlarimiz ostida ... qor g'ijirlaydi. 7. ... narsa oltin bo'la bermaydi.

So'zlar: paxta terar, kuchli, yoqimli, yaltiroq, oppoq, ilg'or, oltinchi.

IV. Sifatlovchi va sifatlanmishni so'z birikmasi tarzida ko'chiring.

1. Bu yerda yangi imoratlar, ko'm-ko'k paxtazorlar bor. 2. Bektemir chiqib borayotgan qir yon bag'ri pakana dublar bilan qoplangan edi. 3. Karima 3-kursni «a'lo» baholar bilan bitirdi. 4. Shahar o'rtasidagi qalin akas daraxtlari soyasiga joylashgan oq imoratda mohir po'lat quyuvchi Hafiz G'aniyev turar edi.

V. Qaratqich-aniqlovchili gaplarni ko'chirib, qaratqich-aniqlovchilarning tagiga chizing.

1. O'smoqdamiz biz, yosh avlod, qalbimizda zo'r istak. 2. Uzoqdan ko'ringan yashil qishloq - bizning qishloq. 3. Yigitlar bolaning orqasidan kichkina ko'chaga qayrilishdi. (O.) 4. Xayol surib o'tirgan Farida shoshilib ko'chaga yugurdi. 5. Daryoning har ikki yuzida poyonsiz tayga- ulkan daraxtzor - quloch yoyib yotadi. (V.Ajayev.) 6. Kuzning oltin barglari suv yuzida suzar edi. (M.G.) 7. Toshkentda o'n birinchi tramvay Navoiy ko'chasidan o'tadi.

1. *Qaysi gapda sifat aniqlovchi vazifasida qo'llangan?*

A. *To'g'ri yursang murodingga oson yetarsan*

B. *Ayol sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq ko'chaga otiladi*

C. *Bir xotin sabzavotlar solingan xaltasini ko'tarib kelayotgandi*

D. *Har narsaga qiziqish-biz uchun eski odat.*

2. *Qaysi gapdagi aniqlovchi narsa-buyumning qarashlilikini ifodalagan?*

A. *Bu kitoblar kimniki?*

B. *Yangi binolar qishloqning husniga husn qo'shmoqda*

C. *Shu payt ichkaridan ship-ship qadam tovushi eshitildi*

D. *Uzoq-yaqinlardan odamlar yig'ila boshladi*

3. *Olmosh bilan ifodalangan sifatlovchi-aniqlovchini toping.*

A. *Har kimning niyati o'zining yo'ldoshi*

B. *Bu o'lkada har narsa bordir*

C. *Avval o'z aybingni bil keyin birovdan kul*

D. *Yaxshi niyatli kishilarning ahdi - shu*

E. *Kimning ishi to'g'ri bo'lsa u doim bexavotir bo'ladi.*

4. *Ot bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi qaysi gapda?*

A. *Bir azobning bir rohati bor*

- B. Supada qator o'tiribmiz
C. Shu paytda uy eshigi ochildi
D. Zumrad bahorni kim sevmaydi
E. Qorong'ida chuqur ho'rsindim.
5. Men do'kondan shisha idishda yog' olib keldim. Gapdagi aniqlovchi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?
A. sifat
B. olmosh
C. ot
D. sifatdosh
E. A va D
6. Aniqlovchi vazifasida kelgan olmosh qaysi gapda qo'llangan?
A. Shularni odam yaratgan
B. Nimadan gap ochishni bilmay turdi
C. Kimning uyi yaqin
D. Sizni nima qiziqtiradi
E. Hech kimga qalbida nimalar kechayotganini bildirmasdi.
7. Kiyimi qo'pol lekin yangi va puxta edi. Gapdagi sifatlarning sintaktik vazifasini aniqlang.
A. ega
B. to'ldiruvchi
C. kesim
D. aniqlovchi
E. aniqlovchi-kesim
8. Qaysi gapda sifatlovchi-aniqlovchi ot-kesimga bog'langan?
A. Obodli va oqil odamlarga nisbatan eng arzimas hazilni ham qila ko'rmang
B. Hamma qobilyatlarning sarvari sog'lom fikrdir.
C. Faoliyat bilimlarga olib boradigan yagona yo'ldir
D. Faqat harakatgina ezgulikning qadr-qiymatini belgilaydi
E. B va C
9. Ibora bilan ifodalangan aniqlovchi qaysi qatorda qo'llangan?
A. Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamoman hovridan tushdi.
B. Boshimiz oqqan tomonga ketaveramiz

C. Xo'zabekovning g'ururi lat yedi: raislik amaliga tumshuq suqmagan shu mo'ylov qoluvdi

D. Har kim dili tortgan kishi bilan yuradi

E. Bunday aniqlovchi hamma javoblarda qo'llangan.

10. 1. Dunyo dunyo bo'lib yaraldi qachon? 2. Keltirgan gullaringizning qaysi biri chiroyli? 3. Nima-nima oldingiz? 4. Musobaqada g'olib chiqqan kim? Ushbu berilgan gaplarda so'rov olmoshlari qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

A. 1. hol; 2. aniqlovchi; 3. to'ldiruvchi; 4. ega;

B. 1. hol; 2. ega; 3. kesim; 4. aniqlovchi;

C. 1. to'ldiruvchi; 2. ega; 3. ega; 4. kesim;

D. 1. hol; 2. ega; 3. to'ldiruvchi; 4. kesim;

E. 1. to'ldiruvchi; 2. ega; 3. kesim; 4. aniqlovchi;

**7-MAVZU. SINTAKTIK VOSITALARNI NUTQIY
USLUBLARDA QO'LLASH. GAP BO'LAKLARINING TARTIBI.
ODATDAGI VA O'ZGARGAN TARTIB**

Odatdagi tartib

Ega → kesim

Aniqlovchi → ega → to'ldiruvchi → hol → kesim

O'zgargan tartib

Kesim → ega

Kesim → to'ldiruvchi

Ega → kesim → hol

She'rni ifodali o'qing. Uni og'zaki nasriy bayon qiling. Undagi gap bo'laklarining odatdagi va o'zgargan tartibiga diqqat qiling.

KO'KLAM KELADIR!

Ko'klamoyim yo'lga chiqqan. Ko'klamoyim qo'zg'algan,

Ko'k ko'ylakning bitishiga, uncha ko'p ham qolmagan!

Tiniq havo... ko'k yuzinda oppoq, harir pardadek

Oq bulutlar, unda-munda yopilganlar parishon.

Shu'lalarning aksi bilan, yiltillagan, yongandek,

Kun tig'lari, qarashlarga o'tkir-o'tkir sanchilgan...

Qip-yalong'och daraxtlar ham quchoq ochib, ko'z tutib,

Ko'k ko'ylakning bitishini chidamasdan kutalar.

Qarg'alar ham qishda qilgan gunohlarni unutib,

Uzr aytmasdan, indamasdan uchib-uchib ketalar.

Sezgilarni uyg'otuvchi hidli gullar to'planib:

«Biz ham yo'lga chiqdik!» deya yuborganlar bir chopar.

Gul hididan rizq emguvchi jonivorlar uyg'onib,

Erta-indin bog'chalarga, chamanlarga oralar.



Ko'klamoyning ipak ko'ylak etaklari sudralib,

Qora yerning boshlarini silab-siypab keladir.

Dillarga ham havolardek ko'klam ruhi kiradir!..

Uyushiq bo'lakli gaplar. Uyushgan bo'laklarning shakllari va ularda teng bog'lovchilarning, umumlahstiruvchi so'zlarning qo'llanishi

Bog'lovchi vositalar




ham, bilan, -u(-yu), -da ;


ham, bilan, -u(-yu), -da

yo, yoki, yo-yo;

dam-dam, goh-goh



8-MAVZU: UYUSHIQ BO'LAKLAR: JINS VA XUSUSIYLIK
UMUMLASHTIRUVCHI BO'LAK: TUR VA UMUMIYLIK



Bunda to'rtburchak umumlashtiruvchi so'zni, yumaloq shakllar uyushgan bo'laklarni, uch burchak shakl hokim bo'lakni ifodalaydi.

Uyushgan bo'laklar yozuvda bir-biridan vergul bilan ajratiladi. Agar uyushgan bo'laklar guruh-guruh bo'lib kelsa, guruhlar bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi. Masalan, *Bog'imizda qovun, handalaklar, olma, o'rik, shaftolilar pishib yotibdi.*

4-ilova

Juda muhim. Uyushgan bo'laklarning xarakterli xususiyati shundaki, *ular bir xil grammatik shaklda bo'ladi.*

Bu grammatik shakllarning qo'llanilishi ikki xil bo'ladi:

a) uyushgan bo'laklarning har birida takrorlanadi:

Yam-yashil vohalarga,

Badiiy lavhalarga,

She'riy sarlavhalarga,

Boy ekansan, Farg'ona.

Bunday vaqtda uyushgan bo'laklarning har biri ta'kidlangan bo'ladi;

b) uyushgan bo'laklarning eng oxirida qo'llanilib, hammasi uchun tegishli bo'ladi:

Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo'lishdi.

Bunday vaqtda sanalayotgan bo'laklarning har qaysisi ta'kidlanmaydi, balki sanab ko'rsatiladi.

Juda muhim. *Uyushgan bo'laklar o'zaro teng bog'lovchilar. bog'lovchi vazifasidagi yordamchi so'zlar (ham,-u(-yu), na...na...*

yuklamalari, bilan ko'makchisi) va sanash ohangi yordamida bog'lanadi.

Uyushgan bo'laklar biriktiruv bog'lovchisi bo'lgan va, hamda bog'lovchi vazifasidagi bilan yordamida bog'langanda ular ko'pincha takrorlanib keladi.

Adol bilan o'yinchi Sora;

Asal bilan quvnoq Ruxsora...

(H. Olimjon)

Bunday vaqtda uyushgan bo'laklar orqali ifodalangan shaxs, predmetlarning guruh-guruh ekanligi ifodalanadi. Ana shunday ma'no ifodalanganda va, hamda, bilan bog'lovchilari bir-biri bilan erkin almashinib keladi. Va, hamda, bilan bog'lovchilari ikkidan ortiq uyushgan bo'laklar tarkibida bir marta qo'llanilsa, uyushiq bo'laklarning oxirgi juftligi orasida keladi va sanashning tugallanganligini bildiradi: *Bog'imizda o'rik, shaftoli, gilos va olmalar bor.*

Uyushgan bo'laklar ikki a'zodan iborat bo'lib, biriktiruv munosabatini bildirsa, bu a'zolar o'rtasida va, bilan, -u(-yu) bog'lovchilari ishlatiladi. Solishtiring:

Bir sevgikim, jon berur tanga.

Faqat Zaynab-u Omonlarga xos.

Zaynab-u Omon ni *Zaynab va Omon*, *Zaynab bilan Omon* deb ishlatish mumkin.

Uyushiq bo'laklar otlar bilan ifodalanganda va, hamda, bilan o'zaro almashinadi. Fe'llar bilan ifodalanganda esa va, hamda, -u (-yu) o'zaro almashina oladi, lekin «va» ning o'rniga «bilan»ni qo'yib bo'lmaydi. Solishtiring.

Keldi va ketdi.

Keldi-yu ketdi.

Uyushiq bo'laklar o'zaro sanash ohangi yordamida bog'lanib, ularning har birining ma'nosi ta'kidlanganda, har bir bo'lak oxirida ham yuklamasi qo'llaniladi: Sen ham, u ham farishta emas. Uyushgan bo'laklar o'zaro ayiruv munosabatida bo'lganda, ular o'rtasida *yo, yoki, yo-yo, ba'zan-ba'zan, dam-dam* singari bog'lovchilar qo'llaniladi. Masalan, *yo kitob, yo ruchka olaman.*

Juda muhim. *Yo, yo-yo, yokibog'lovchilari uyushgan bo'laklardan birini tasdiqlab, ikkinchisini esa inkor etib bog'laydi.*

Masalan, yuqoridagi misolda *kitob olsa, ruchka olmaydi, ruchka olsa, kitob olmaydi.*

Ba'zan-ba'zan, dam-dam, goh-goh kabi bog'lovchilar yordamida bog'langanda esa uyushgan bo'laklarning navbatma-navbatligi ifodalanadi. Solishtiring: *Goh o'ynaydi, goh yig'laydi*. Ana shunday ma'no ifodalaganda *dam-dam, goh-goh, ba'zan-ba'zan* kabi bog'lovchilar o'zaro almashinib keladi.

Uyushgan bo'laklar o'zaro zidlik munosabatida bo'lganda, ular o'rtasiga zidlov bog'lovchilari (ammo, lekin, biroq) qo'llaniladi. Masalan, *Hammasini tinglardim, ammo (lekin, biroq) o'xshashini topmasdim aslo.* (H. Olimjon)

Uyushiq bo'laklar ifodalagan ma'no inkor qilinib, ularning har biri ta'kidlab ko'rsatilsa, *na... na...* bog'lovchi vazifasidagi yuklama qo'llaniladi. Masalan, *Na sen, na men buning kafolatini olganmiz.* (Shuhrat)

Na... na... uyushgan bo'lakli gapning kesimi tasdiq shaklida bo'lganda ham, inkor shaklda bo'lganda ham qo'llana beradi. Agar uyushiq bo'lakli gap kesimi tasdiq shaklda bo'lsa, *na... na...* uyushgan bo'laklarni o'zaro bog'lash va gapni inkor gapga aylantirish vazifasini bajaradi. Aksincha, gapning kesimi inkor shaklda bo'lsa, *na... na...* uyushgan bo'laklarni o'zaro bog'lash va ularning ma'nosini ta'kidlash vazifasini bajaradi. Solishtiring:

Na Salim, na Karim keldi,

Na Salim, na Karim kelmadi.

Juda muhim. *Uyushgan bo'lakli gaplarda ko'pincha uyushgan bo'laklarning mazmunini jamlovchi umumlashtiruvchi so'zlar ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda uyushgan bo'laklar narsa va hodisalarni, belgi-xususiyatlarni alohida-alohida ifodalasa, umumlashtiruvchi so'z esa ularning hammasini jamlagan holda ifodalaydi.*

Demak, uyushgan bo'laklar bilan umumlashtiruvchi so'z o'rtasida xususiylik-umumiylik, jins-tur munosabati mavjud bo'ladi. Uyushgan bo'laklar xususiyliklarni, jinsni; umumlashtiruvchi so'z esa umumiylikni, turni bildiradi.

Uyushgan bo'laklar qaysi grammatik shaklda bo'lsa va qanday so'roqqa javob bo'lsa, umumlashtiruvchi so'z ham ko'pincha ana shunday shaklda bo'ladi va shunday so'roqqa javob bo'ladi. Uyushgan bo'laklar qaysi bo'lak bilan tobe munosabatda bo'lsa, umumlashtiruvchi so'z ham shu bo'lak bilan tobe aloqada bo'ladi.

Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin.

Esda saqlang. Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan oldin kelsa, yozuvda umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqta qo'yiladi. Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan keyin kelsa, uyushgan bo'laklar bilan umumlashtiruvchi so'z o'rtasiga tire qo'yiladi.

Umumlashtiruvchi so'z bilan uyushgan bo'laklarning o'rni va tinish belgilarini quyidagi sxemada ko'rsatish mumkin

Uyushiq bo'laklar

Ega, ega, ega, ega kesim.

Aniqlovchi va aniqlovchi ega to'ldiruvchi, to'ldiruvchi kesim.

Ega kesim, kesim, kesim.

Aniqlovchi ega to'ldiruvchi hol hol kesim.
mumkin.

Besh guruhga bo'lining. Bittadan savollarga javob bering.

1. Qanday bo'laklar uyushiq bo'laklar hisoblanadi?
2. Qaysi gap bo'laklari uyushadi?
3. Umumlashtiruvchi bo'lak qanday bo'lak hisoblanadi?
4. Uyushiq va umumlashtiruvchi bo'laklar qanday munosabatda bo'ladi?
5. Uyushiq va umumlashtiruvchi bo'lakli gaplarda qanday tinish belgilari qo'llanadi?

Mashqlar

I. O'qing. Gapning uyushib kelgan bo'laklarini topib, uyushiq bo'laklarni o'zaro biriktiruvchi vositalarini ayting.

1. Bizning matbuot ham, radio ham, hamma-hammasi mana shunga qaratilgan bo'lishi kerak. 2. U goh Toshkentga, goh Andijonga ketib, uzoq-uzoq turib qolar edi. 3. Shu onda chiroq sharaqlaganicha borib shipga urildi-yu, yerga tushib chilparchin bo'ldi va birdaniga ikkita o'q chiqdi. 4. Yerga tushgan chiroq bir-ikki lopilladi-yu, avval ko'k, keyin qizg'ish alanga ko'tarildi. 5. Mirhomidxo'ja shoshib Qambarali akaning qo'lidan pulni oldi-da, uning qo'yniga tiqdi. 6. Bo'taboy tin olmay, goh bosh chayqab, goh qoshini kerib, goh «Ana! O'h,-o'h-o'h!» deb quloq soldi. 7. Odamlarda g'ayrat va tashabbus yashnab ketdi. 8. Xotining bu gapini Bo'taboyning jon-jonidan o'tib ketdi, lekin bundagi kuchli mantiq tilini bog'ladi-yu hech narsa deya olmadi. 9. Usta Turdialining gapini o'rinli edi: modomiki hamma «qilko'prik»dan o'tar ekan, yo jannatga o'tib ketadi, yo do'zaxga yiqiladi. (A. Qahhor)

II. Prezidentimiz asarlaridan olingan gaplarni ko'chirib yozing. Uyushiq bo'laklar orasiga zarur o'rinlarda vergul qo'yib, gaplarni ko'chiring. Teng bog'lovchilarning tagiga chizing, qanday bo'laklar uyushib kelganligini ayting.

1. Bu mintaqa jo'shqin va sobitqadam rivojlanadi. 2. Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy, iqtisodiy, harbiy transportga va ekologiyaga oid muammolar to'planib qolgan. 3. Afg'onistondagi qarama-qarshilikning dunyo miqyosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarini cheklashga va tarqatmaslikka bugungi kunda hammamizning ham aql-idrokimiz, tajribamiz va qat'iyatimiz yetadimi? 4. Fundamentalistlarning adolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da'vatlariga ko'r-ko'rona ergashuvchilar o'zgalar irodasining quli bo'lib qolishini anglashimiz lozim. 5. Hozirgi vaqtda milliy va boshqa ijtimoiy harakatlar, shu jumladan, yoshlar harakati madaniy, diniy harakatlar qayta jonlanmoqda. 6. Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir davlatning mudofaa qobiliyati uning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy va ma'naviy imkoniyatlaridan tarkib topadi.

(I.A. Karimov.«O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobidan)

Mavzuga oid test topshiriqlari

1. *Qaysi qatorda uyushiq kesimli gap berilgan?*

A. *Do'kondorlar molini maqtab va xaridorlarni chorlab turishardi*

B. *Abdulla Qahhorning ijodi xalq hayoti bilan birga ko'tarilib, birga ulg'aydi.*

C. *Biz voqea sodir bo'lgan joyga borishimiz va ishonch hosil qilishimiz kerak*

D. *A, B va C*

2. *Qaysi qatorda uyushiq bo'lakli gap va qo'shma gap juftligi berilgan?*

A. *Tig' yarasi tuzaladi, lekin dil yarasi tuzalmaydi. Hamma chuqur xo'rsindi, Anorxon piq-piq yig'ladi.*

B. *Pulimyot miltiqlarning ovozigaga xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig'isi, dod-voyi qo'shilib ketdi. Turg'unoy birinchi tovushni eshitganda seskandi, so'nggilari esa uni vahimaga soldi.*

C. *Bu yerning ob-havosi, iqlimi va sharoiti yaxshi edi. Biz harbiy uchuvchi va vatan posbonlari bo'lamiz.*

D. Bog'chada yosh-yosh qizchalar va o'g'il bolalar davra qurib o'ynashmoqda. Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar edi.

3. Qaysi qatordagi gapda uyushiq hol ot va fe'l so'z turkumlari bilan ifodalangan?

A. U hayajon bilan, tez-tez va bo'g'ilib so'zlar edi.

B. Podsho goh kulib, goh jiddiy o'y bilan quloq soldi

C. Saida goh afsuslanib, goh kuyib, goh kulib gapirib berdi

D. Ufqqa tutashib ketgan polizlar va tokzorlar qizg'ish, qahrabo tusda tovlanadi.

4. Uyushiq bo'lakli sodda gap berilgan qatorni toping.

A. Soy guvillab oqar va uning muzdek shamoli qirg'oqda tartibsiz o'sgan o'tlarni silkitar edi

B. Gap tashuvchilarni, tirnoqdan kir izlovchilarni, chaqimchilarni men yomon ko'raman

C. Bahor keldi, gul ochildi, chaman bo'ldi yurtimiz

D. Ilmli ming yashar, ilmsiz bir yashar

E. Vali qaerga borishini bilmay, birpas ikkilanib turgach, qarshidagi tepalikka qarab yurdi.

5. Umumlashtiruvchi bo'lak qaysi gapda qo'llangan?

A. Negaki ular meni katta ehtiros, qiziqish bilan kutib oladilar

B. Bu habarni eshitish bilan Otabekda ko'riladigan o'zgarishlarni, hollarni harakatlarni – barchasini birma-bir ko'nglidan kechirar edi.

C. Hullas, vatanimizning osti ham usti ham oltindir

D. Albatta, vaqt kutib o'tirmaydi o'tib ketaveradi

E. Ulug' yozuvchilarimizning, shoirlarimizning satrlaridan san'at namunasi sifatida bahra olamiz.

6. Uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi qaysi gapda qo'llangan?

A. Quyosh bulutlarning yumshoq, momiq ko'rparasida erkalanib yumalar edi

B. Shu pallada darvozadan katta qora sigir yugurib chiqdi

C. Nafis gullarning, xushbo'y giyohlarning hidlari anqiydi

D. Biz oq, qizg'ish va kul rang toshlarni terdik

E. Serchang, sershovqin ko'chalarda odamlar daryoday oqib borar edi.

7. Uyushiq bo'lakli gapni toping.

A. Sabr-toqatga qodir odam xohlagan narsasiga erishishiga ham qodir

B. G'azab bilan boshlangan narsa uyat bilan tugaydi

- C. Vazmin va hushmuomala qariya hammaga yoqadi
D. Xotirani kuchaytirishning eng muhim sharti asablarning sog'lom bo'lishidir
E. Burchga sodiqlik shaxsiy manfaatlardan Voz kechishni talab etadi.

8. Yonimizda qizlar, o'g'illar, qo'shiq aytsin, yayrasin, kulsin. Ushbu gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan?

- A. faqat ega
B. bosh bo'laklar
C. faqat kesim
D. to'ldiruvchi
E. hol

9. Yuklama yordamida birikkan uyushiq bo'lakli gapni toping.

- A. Vatan va xalq – egizak
B. Bulbul goh sayraydi, goh tinadi
C. U davra o'tasiga o'tirdi-da, sekin so'zlay boshladi
D. U she'rlarni, maqollarni chanqoqlik bilan o'qigan hamda yod

olgan.

E. Ertaga yo teatrqa, yoki muzeyga bormoqchimiz.

10. Quyidagi vositalardan qaysi biri uyushiq bo'laklarni o'zaro bog'lashda ishtirok etadi? 1) kelishik qo'shimchalari 2) egalik qo'shimchalari 3) shaxs-son qo'shimchalari 4) yordamchi so'zlar 5) ohang

- A. 4,5
B. 1,2,3,5
C. 2,4,5
D. 2,3,4,5
E. 3,5

11. Ozoda bolalarning ruhlari toza, aqlari komil, badanlari sihat, dimog'lari chog', o'zlari qadirli va qimmatli bo'lur ("Ilm ahloq"dan) jumlasidagi uyushgan bo'laklar gapning qaysi bo'laklari hisoblanadi?

- A. aniqlovchi
B. to'ldiruvchi
C. hol
D. kesim
E. ega

12. Qaysi gapdagi uyushiq bo'laklar ayiruv bog'lovchisi vazifasidagi yuklamalar yordamida bog'langan?

A. Bu ishda eng muvofiq ham ishonchli kishi Safar bo'zchi edi

B. Siz bilan biz ulug' ishga bel bog'ladi

C. O'rnidan turdi-yu, gapirmadi

D. Hayrat mening bu ishimdan ranjimadi, balki quvonganini izhor qildi

E. Ichkaridan chiqqan qiz yo'lakkami, mehmonxonagami o'tib ketdi.

13. O'rin hollari uyushib kelgan gapni toping.

A. Til do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirishning qulay vositasidir.

B. Insonga xos barcha fazilatlarning eng muhimi va eng oliyjanobi - aql

C. Barcha odamlarning izlanishi, kashfi va bilimi uchun o'rin topiladi

D. Bolalar yaslilari va bog'chalarida farzandlarimiz tarbiyalanmoqda va kamol topmoqda

E. Ular soy bo'yidagi toshlardan, har xil giyohlardan namunalar olishdi.

14. Teng bog'lovchi qaysi gapda uyushiq bo'laklarni bog'lash uchun qo'llangan?

A. O'quvchilar kelishdi va to'garak mashg'uloti boshlandi

B. Goh yuraklar simobday qalqiydi, goh tilga gap kelmaydi

C. Shahar va qishloqlarni yashil libos bilan bezatish vazifamizdir.

D. Bu yil ko'rgazmada qatnashayotganlarning hammasi kelgusi yilda ham qatnashadi

E...ha, bilim boshqa, ta'lim boshqa.

15. Qaysi qatorida kesimi uyushgan gap berilgan?

A. Biz harbiy uchuvchi va Vatan posbonlari bo'lamiz.

B. Latofat atirgul, Zebiniso qizil gul tanladi.

C. Sandal to'riga cholim bilan Oqsoqol, beriroqqa ovsinim, men, Robiya o'tirdik.

D. Yigitning yuz va ko'zida andisha, alam va hayajon alomatlari ko'rinardi.

16. Shu yerda, jiydazor yonidagi xilvat joyda, u menga o'z o'tmishini, to'g'rirog'i, shu yozda boshidan kechirgan va qalbida

chuqur iz qoldirgan bir voqeani hikoya qilib berdi. Ushbu gapda qaysi gap bo'laklari uyushgan?

- A. hol va aniqlovchi*
- B. hol va to'ldiruvchi*
- C. faqat to'ldiruvchi*
- D. faqat aniqlovchi*

17. Qaysi gapda ayiruv bog'lovchisi uyushgan o'rin holini bog'lagan?

- A. Ba'zan oyim, ba'zan buvim bilan Yunusobodga borardik.*
- B. Bo'ron goh nortuyadek, goh och bo'riday uvillardi.*
- C. Xirmonga katta yo'ldan yoki uvatdagi yolg'izoyoq yo'ldan boriladi.*
- D. Xolposh xola goh u kelinga, goh bu kelinga talmovsirab qaraydi.*

18. Qaysi qatorda ayiruv bog'lovchisi uyushiq aniqlovchilarni bog'lashga xizmat qilgan?

- A. Ba'zan chumchuqning, ba'zan kaklikning yoqimli ovozi kishiga orom bag'ishlaydi.*
- B. Ba'zan tongda, ba'zan yarim tunda kirib keladi.*
- C. Bu topshiriqni Gulnora yoki Azizga yuklash mumkin.*
- D. Bahor havosi betayin: goh yomg'ir yog'adi, goh charaqlab quyosh chiqadi.*

**9-MAVZU. AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR VA GAP
BO'LAKLARINI AJRATISH YO'LLARI: TARTIBNI
O'ZGARTIRISH VA IZOHLASH ORQALI GAP
BO'LAKLARINI AJRATISH**

Esda saqlang. *Gap tarkibidagi ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo'laklarga ajratilgan bo'laklar, shunday bo'lakli gaplarga esa ajratilgan bo'lakli gaplar deyiladi.*

Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar mazmunan murakablashadi. Gapning asosiy qismi ifodalagan axborotga ajratilgan bo'lakdan anglashilgan qo'shimcha axborot qo'shiladi. Masalan, *Tursunali akaga, shunday katta olimga, kuyov bo'lish hazil gap emas.* (O'. Usmonov) Bu gapda birinchi axborot *Tursunali akaga kuyov bo'lish hazil gap emasligi* gapning asosiy qismi orqali, ikkinchi axborot esa *Tursunali akaning katta olimligi* ajratilgan bo'lak orqali ifodalanadi. Yuqorida bayon qilinganidek, ajratilgan bo'laklar ikki xil vazifani bajaradi:

- a) ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish;
- b) ma'lum bir bo'lakning umumiy ma'nosini izohlash, konkretlash tirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirish.

Ajratilgan bo'lakning bu ikki xil vazifasi uning ajratish usuli orqali ham bilinib turadi.

Esda saqlang. *Ajratilgan bo'laklar yuqoridagi vazifaga muvofiq ikki xil yo'l bilan ajratiladi:*

- a) *tartibni o'zgartirish;*
- b) *bir nomni boshqacha nomlash.*

Sifatlovchi aniqlovchi, odatda, aniqlanmishdan oldin keladi. Ba'zan tinglovchining diqqati sifatlovchiga tortilganda, so'zlovchi uning odatdagi tartibini o'zgartirib, sifatlanmishdan keyin keltiradi. Natijada sifatlovchi gapning boshqa bo'laklaridan boshqacha ohang bilan ajralib qoladi. Sifatlovchining ma'nosi odatdagi tartib bo'yicha qo'llangan sifatlovchiga nisbatan bo'rttiriladi, alohida ta'kidlanadi. Gapdagi eng ahamiyatli, yangi axborot tashuvchi qismga aylanadi.

Esda saqlang. *Tartibi o'zgartirilgan, lekin sifatlovchilik xususiyatini saqlab qolgan sifatlovchi aniqlovchilar ajratilgan bo'lakka aylanadi.*

Masalan, *Bu o'zbek yigiti — tanti, mehribon.*

Solishtiring: Rangi o'chgan, Umri kechgan kuz guli, Bir yo'li pastroq egil. (Abdulhamid Cho'lpon) — Kuz guli — Rangi o'chgan, Umri kechgan.

Juda muhim. *Ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilar yozuvda boshqa bo'laklardan doimo vergul bilan, agar sifatlovchi aniqlovchilarni o'zi uyushgan bo'lib, ichida vergul bilan ajratilgan bo'lsa, ajratilgan bo'lak boshqa bo'laklardan tire bilan ajratiladi.*

Nutq jarayonida ko'pchilikka noma'lum bo'lgan so'zni qo'llasangiz, tinglovchiga tushunarli bo'lish uchun uning yoniga ma'lum bo'lgan so'zni qo'yib bayon qilasiz. Masalan, *Lingvistika — tilshunoslik, mening sevgan fanim bo'ladi.*

Ba'zan ma'nosi umumiyroq bo'lgan so'zning ma'nosini aniq-lashtirish uchun uning yoniga konkretroq, aniqroq ma'no bildiruvchi so'zni keltirasiz. Masalan, *Bog'chadagi do'stimni — Qodirni ko'rib qoldim.* Ayrim hollarda esa ma'lum bir narsani boshqa narsaga o'xshatib, ularning nomini yonma-yon ishlatamiz. Masalan, *Shu farzandimni — ko'zim qorasini — elning ardog'ida bo'lishini xohlayman.*

Natijada, bir tushunchaning ikkita nomi vujudga keladi. Ikkita nom bo'lishi, har ikki nomning bir xil so'roqqa javob bo'lishi, har ikkisining ham bir xil grammatik shaklda bo'lishi bilan bunday ajratilgan bo'laklar uyushgan bo'laklarga o'xshaydi.


Solishtiring: *Unda, Halimning ukasida, qiziqarli kitoblar ko'p.* Bu gapdagi *unda, Halimning ukasida* bo'laklari ikki kishini bildirsa va sanash ohangi bilan talaffuz qilinsa, uyushgan bo'lak, bir kishini bildirib, ikkinchisi birinchisidan biroz to'xtamdan so'ng pastroq ohang bilan talaffuz qilinsa, ajratilgan bo'lak bo'ladi.

Juda muhim: *Bunday ajratilgan bo'laklar gapning boshqa bo'laklaridan vergul, ba'zan tire bilan ajratiladi. Gapning hamma bo'laklari ajratilishi mumkin. Qaysi gap bo'lagining so'rog'iga javob bo'lsa, ajratilgan bo'lak o'sha gap bo'lagining nomi bilan yuritiladi.*

Ajratilgan gap bo'laklari vazifalari



bo'lak ma'nosini ta'kidlash umumiy ma'nosini tushuntirish



Gap bo'laklarini ajratish usullari

Guruhlarga bo'lining. Har bir guruh to'rttadan savollarga javob yozing.

1. Ajratilgan aniqlovchili gaplarga misollar yozing.
2. Ajratilgan izohlovchili gaplarga adabiyot darsligidan 5 ta gap topib yozing.
3. Ajratilgan bo'laklar qaysi xususiyati bilan uyushiq bo'laklarga o'xshaydi?
4. Ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish vazifasini bajaruvchi bo'laklarga misollar keltiring.
5. Ma'lum bir bo'lakning umumiy ma'nosini konkretlashtirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirish vazifasini bajaruvchi bo'laklarga misollar yozing.
6. Bir nomni boshqacha nomlash bilan hosil bo'lgan bo'laklarga misollar ayting.
7. Ajratilgan bo'laklarning nutqimizda nima ahamiyati bor?
8. *Men, Dilafro'z Sobirova, 1992-yilda tug'ildim.* Yuqoridagi gapda *Men* bilan *Dilafruz Sobirova* boshqa-boshqa kishilarmi yoki bir kishining ikki xil nomimi? Agar bir kishining ikki xil nomi bo'lsa, nomlar o'rtasidagi farqni ayting.
9. Sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etgan gap topib, sifatlovchi aniqlovchini aniqlanmishdan keyin keltiring. Sifatlovchi tartibi o'zgaranda ham sifatlovchi aniqlovchi vazifasida qolsin. Kesimga aylanib ketmasin. Tartibi o'zgaragan sifatlovchi aniqlovchining xususiyatlarini ayting.
10. Sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etgan gap topib yozing. Sifatlovchi aniqlovchini aniqlanmishdan keyin keltiring. Qanday o'zgarish bo'lganini, qanday tinish belgisi qo'yilganini tushuntiring.

11. Ma'lum lotincha atama bilan uning o'zbekcha muqobilini yonma-yon qo'yib, gap ichida keltiring. Bir tushunchaning bu ikki xil nomi o'rtasidagi ma'no munosabati va ohang haqida ma'lumot bering.

12. Gap ichida *daraxt* so'zini keltirib, uning yonida daraxt sinfiga mansub so'zlarni (*olma, o'rik, shaftoli*) keltiring. Ular o'rtasidagi ma'no munosabati va ohang tomoni haqida ma'lumot bering.

I. Bir nomni boshqacha nomlash bilan ajratilgan bo'laklarni aniqlang.

1. Komil buvaning uyi shu yong'oqzorning ichida — Bo'rijarning qoq ustida emish. 2. Dadam harsillab nafas olib, narigi tomonga — pastga tushdi. 3. Ovqatdan keyin ayvonda, xontaxta atrofida o'tirib choy ichdik. Dadam sharqirab oqib yotgan ariq bo'yida, bir tup sadaqayrag'och tagida to'xtadi. 4. Chindan ham bomba ancha orqaga — o'rmonzorga borib tushadi. 5. Yangi yil kechasi — nemislar mast-alast bo'lib Rojdestvo bayrami qilayotganida hujumga o'tdik! 6. Endi u rosmana raisga — Umar zakunchiga aylangan edi. 7. Ochil akaning daftari ancha nariga — o'tlar ustiga otilib ketgan, varaqlari ochilib, xira oydinda oqarib ko'rinardi. 8. Biz — er-xotin yog' zavodida ishlaymiz. 9. Qo'zivoy hammani har yoqqa surib, uch-to'rt qadam orqaga, Sherzod cho'nqayib o'tirgan doska tomonga tisarildi.

II. Matnni o'qing. Gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklarini topib, tagiga chizing va ustiga turini yozib qo'ying. Ular tobe bo'lgan bo'lakni ayting. So'ngra ajratilgan bo'laklardagi ohang va tartibni izohlang.

Insonning tavallud kunidan boshlab, uning voyaga yetgan kuni — balog'at yoshiga qadar bo'lgan uzoq davrni majoziy ma'noda bir maktab deb atasak, ana shu maktabning ramziy ma'nodagi ustoz ham boshlang'ich sinf muallimi, ham yuqori sinf o'qituvchisidir. Chunki, farzand uchun hayotdagi ideal ustoz — ona ekanligi bugungi kun tadqiqotlarida to'la-to'kis e'tirof etilmoqda. Zero, mustaqil hayot ostonasiga qadam qo'yguvchilar uchun, yosh avlod uchun, eng birinchi galda, onalarning ma'naviy dunyosi, muloqot madaniyati, axloqiy olami namuna maktabidir. Bu foniq dunyoda inson doimo orzular, umidlar olamida yashaydi. Tabiat insoniyatning dunyoga kelgan kunidan to hayotining so'nggi kuniga qadar odamzod qalbiga mana shu buyuk ikki hisni — orzular va umidlar dunyosini oshufta qilgan. Farzandini dunyoga keltirgan onaning o'y-xayolida birgina orzu mujassam

yashaydi — u ham bo'lsa, farzandlarning barkamol inson bo'lib yetishishidir.

III. O'qing. Ajratilgan hollarni aniqlab, tagiga chizing.

1. Temir eshikli podyezd, ikkinchi qavat, chap tomondagi kvartira — bu sizning xonadoningiz. 2. Men ko'rsatilgan stulga — to'rga o'tib o'tirdim. 3. Haligina, siz kelmasdan sal avval, biroz o'zimga kelgach, joy-joylariga ketishdi. (A. Ibrohimov) 4. Shoirning kulbayi vayronasi shaharning eng chekkasida, Bog'i Firuz va Bog'i Mahmud kabi ko'rkam bog'lar atrofida joylashgan edi. (O. Yoqubov) 5. Biz Xorazmda, Ma'mun ibn Ma'mun saroyida besh yil birga xizmat qilganmiz, begim. 6. Yaxshiyam, Sulton Mahmud yoshlik chog'larida, yuragida insof va adolat tuyg'usi tamoman so'nib bitmagan mahallarda, Nargizabonu sabab, sobiq g'ulomi qutlug'qadamning daxlsizligi to'g'risida birdan bir adolatli farmon bergan ekan. 7. Endi bu hibsdan, o'laksa hidi anqigan bu jahannamdan tiriklayin chiqa oladimi, yo'qmi — buyog'i yolg'iz Ollohga ayon. (O. Yoqubov) 8. Aysi — Movarounnahrda, Sayxun bo'yida joylashgan bo'lib, mashhur shaharlardan edi. (M. Ali)

Mavzuga oid test topshiriqlari

1. Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga — Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga — Sattor bir lahzada yetdi. Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

- A. uyushiq bo'lakli gap
- B. uyushiq va ajratilgan bo'lakli gap
- C. ajratilgan bo'lakli gap
- D. Barcha hukmlar noto'g'ri

2. Qaysi gapda egaga taalluqli ajratilgan izohlovchi berilgan?

- A. O'g'lim, qo'zichog'im, orom olib uxlayapti, dedi ona
- B. Qobil bobo, yalangboshi, yalang oyoq, eshik yonida dag'-dag'

titraydi

C. Seryoja- oddiy, navqiron, mard yigit — o'rtoqlari uchun jonini fido qildi

- D. A va C

3. Ajratilgan aniqlovchi qaysi javobda berilgan?

A. O'rta Osiyo Navro'z, yangi yil bayrami, katta tantana bilan nishonlanadi.

- B. Shoir sevgan qiz shu — hamshira/

- C. Biz, yoshlar, xalqqa xizmat qilamiz
D. U yerda, taxta ko'prik ostida, bir buloq bor
E. Qobil bobo, yalang bosh yalang oyoq, yaktakchan, og'il eshigi yonida turib dag'-dag' tiraydi.
4. Gapning bosh bo'lagi ajratilgan gapni toping.
A. Paxtakor o'zbekman – zabardast, mag'rur
B. bu habar ko'plarni, shu jumladan Mahkamni ham, juda quvontirdi
C. Biz, hammamiz, bir oilaning bolasimiz
D. Uzoqdan otliqlarning-Alisher va uning hamrohlari qorasi ko'rindi
E. Men yong'oqzor topdim – go'zal, xushhavo
5. Ajratilgan izoh hol berilgan qatorni toping.
A. Ultarma bu yerga hiyla olis bo'lsa ham, bu ikki oshna bordi keldi qilib turishar edi
B. Kampir tovush chiqarmay, kuyunib yig'ladi
C. Hu ana o'sha joyda, taxta-ko'prikning ostida, atrofi qalin yalpiz bilan o'ralgan kichik bir buloq bor
D. Asrorqul bunga rozi bo'lmasa ham, kampirning rayini qaytargani botinolmadi
E. Shovqin solmang, Arslonbek aka, atrofda odam bor!
6. Ajratilgan izoh bo'lakli gapni toping.
A. Bektemir ko'zlarini ochganida, yomg'ir tez va shiddat bilan yog'moqda edi
B. Afsuski, yer yuzida urushsiz yashab bo'lmayapti
C. Sa'va, mayna, bulbullar, qanot qoqib kelinglar
D. Qobiljon Umaraliev, tasviriy san'at o'qituvchisi, to'garak ishini yo'lga qo'yib yubordi
E. Ibodat she'rni zavqlanib, hayajon bilan o'qidi.
7. Bu habar ko'plarni, shu jumladan, Rustamni ham, quvontirdi. Gapda qanday bo'lak ajratilgan?
A. ega
B. kesim
C. aniqlovchi
D. to'ldiruvchi
E. hol.
8. Ajratilgan izoh to'ldiruvchi qatnashgan qatorni aniqlang.
A. U yerda, qishloqning markazida, ajoyib choyxona bor edi

B. Tunov kuni, bayram arafasida ajoyib kechaning guvohi bo'ldim
C. Axir uning, singlimning ham tengdoshlari orasida o'ziga yarasha obro'si bor.

D. Biz Beshyog'och dahasining yuqorisida, o'ng tarafdagi kichik mahallada yashardik

E. kitob ichidagi dastxatga, menga tanish husnixatga uzoq tikildim.

9. Ba'zan, qiynalib qolganida, menga murojaat qilardi. Ushbugapda qanday bo'lak ajratilgan?

A. ajratilgan bo'lak mavjud emas

B. hol

C. to'ldiruvchi

D. aniqlovchi

E. kesim

10. Ajratilgan holni toping.

A. O'smoqdamiz biz – yosh avlod, qalbimizda zo'r istak

B. Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, mening bilishimcha, sening elingga

C. Kuylar chalar shoir -bastakor

D. Qo'llar ishlar tez – mo'jizakor

E. O'zbekistonda Navro'z, yangi yil bayrami, katta tantana bilan nishonlanadi.

11. Mana ko'rdinglarmi, qattiq-tishlaringni ushatadi. Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi ajratib izohlangan?

A. sifatlovchi-aniqlovchi

B. ot-kesim

C. izohlovchi

D. vaziyat holi

E. ajratilgan bo'lak qo'llanmagan.

12. Qaysi gap ajratilgan izoh bo'lakli gap sanaladi?

A. Sa'va, bulbul, maynalar qanot qoqib kelinglar

B. Ibodat she'rni zavqlanib, hayajon bilan o'qidi

C. Bektemir ko'zlarini ochganda, yomg'ir tez va shiddat bilan yog'moqda edi

D. Aziz Abdurazzoqovich, ichki xizmat mayori, tekshiruv o'tkazdi

E. Bulbul goh sayraydi, goh tinadi.

13. Gapda qanday bo'laklar ajratilgan izoh bo'lakli bo'lishi mumkin?

A. aniqlovchi va to'ldiruvchilar

B. hol

C. ikkinchi darajali bo'laklar

D. bosh va ikkinchi darajali bo'laklar

14. O'smoqdamiz biz - yosh avlod, qalbimizda zo'r istak.---
Ushbu gapda qanday ajratilgan izoh bo'lak mavjud?

A. ajratilgan izoh kesim

B. ajratilgan izoh to'ldiruvchi

C. ajratilgan izoh aniqlovchi

D. ajratilgan izoh hol

15. 1.-Meni, Akrom Madumarovni o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi ekan. 2.-Meni, Akrom Madumarovni, o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi ekan. 3.-Meni, ya'ni Akrom Madumarovni, o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi. Ushbu gaplardan qaysi birida ajratilgan izoh bo'lak mavjud?

A. 1, 2, 3

B. faqat 1

C. faqat 3

D. 2 va 3

16. Qaysi qatorda ajratilgan izoh bo'lak mavjud?

A. Men, Karim aka va haydovchimiz erta tongda yo'lga tushamiz.

B. Bolam, jon bolam, o'zingni ehtiyot qil!

C. Qalay, Hamidboy, ishlar o'ngidanmi?

D. Hovuz bo'yida, yosh tollarning ko'm-ko'k barglari ostida, hali ham allaqanday sokinlik mavjud edi.

17. Ikki o'rtoq - Durdona bilan Nilufar-- birga o'tirib, nimalarnidir muhokama qilishdi.--- Gapda qanday bo'laklar uyushib kelgan?

A. ega

B. aniqlovchi

C. undalma

D. ajratilgan bo'lakdagi izohlovchi

10-MAVZU: AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLARDA TINISH BELGILARINING QO'LLANILISHI.

Esda saqlang. Gap tarkibidagi ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo'laklarga ajratilgan bo'laklar, shunday bo'lakli gaplarga esa ajratilgan bo'lakli gaplar deyiladi.

Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar mazmunan murakkablashadi. Gapning asosiy qismi ifodalagan axborotga ajratilgan bo'lakdan anglashilgan qo'shimcha axborot qo'shiladi. Masalan, *Tursunali akaga, shunday katta olimga, kuyov bo'lish hazil gap emas.* (O'. Usmonov) Bu gapda birinchi axborot *Tursunali akaga kuyov bo'lish hazil gap emasligi* gapning asosiy qismi orqali, ikkinchi axborot esa *Tursunali akaning katta olimligi* ajratilgan bo'lak orqali ifodalanadi. Yuqorida bayon qilinganidek, ajratilgan bo'laklar ikki xil vazifani bajaradi:

- a) ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish;
- b) ma'lum bir bo'lakning umumiy ma'nosini izohlash, konkretlashtirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirish.

Ajratilgan bo'lakning bu ikki xil vazifasi uning ajratish usuli orqali ham bilinib turadi.

Esda saqlang. *Ajratilgan bo'laklar yuqoridagi vazifaga muvofiq ikki xil yo'l bilan ajratiladi:*

- a) *tartibni o'zgartirish;*
- b) *bir nomni boshqacha nomlash.*

Sifatlovchi aniqlovchi, odatda, aniqlanmishdan oldin keladi. Ba'zan tinglovchining diqqati sifatlovchiga tortilganda, so'zlovchi uning odatdagi tartibini o'zgartirib, sifatlanmishdan keyin keltiradi. Natijada sifatlovchi gapning boshqa bo'laklaridan boshqacha ohang bilan ajralib qoladi. Sifatlovchining ma'nosi odatdagi tartib bo'yicha qo'llangan sifatlovchiga nisbatan bo'rttiriladi, alohida ta'kidlanadi. Gapdagi eng ahamiyatli, yangi axborot tashuvchi qismga aylanadi.

Esda saqlang. *Tartibi o'zgartirilgan, lekin sifatlovchilik xususiyatini saqlab qolgan sifatlovchi aniqlovchilar ajratilgan bo'lakka aylanadi.*

Masalan, *Bu o'zbek yigiti — tanti, mehribon.*

Solishtiring: Rangi o'chgan, Umri kechgan kuz guli, Bir yo'li pastroq egil. (Abdulhamid Cho'lpon) — Kuz guli — Rangi o'chgan, Umri kechgan.

Juda muhim. *Ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilar yozuvda boshqa bo'laklardan doimo vergul bilan, agar sifatlovchi aniqlovchilarni o'zi uyushgan bo'lib, ichida vergul bilan ajratilgan bo'lsa, ajratilgan bo'lak boshqa bo'laklardan tire bilan ajratiladi.*

Nutq jarayonida ko'pchilikka noma'lum bo'lgan so'zni qo'llasangiz, tinglovchiga tushunarli bo'lish uchun uning yoniga ma'lum bo'lgan so'zni qo'yib bayon qilasiz. Masalan, *Lingvistika — tilshunoslik, mening sevgan fanim bo'ladi.*


Ba'zan ma'nosi umumiyroq bo'lgan so'zning ma'nosini aniq-lashtirish uchun uning yoniga konkretroq, aniqroq ma'no bildiruvchi so'zni keltirasiz. Masalan, *Bog'chadagi do'stimni — Qodirni ko'rib goldim.* Ayrim hollarda esa ma'lum bir narsani boshqa narsaga o'xshatib, ularning nomini yonma-yon ishlatamiz. Masalan, *Shu farzandimni — ko'zim qorasini — elning ardog'ida bo'lishini xohlayman.*

Natijada, bir tushunchaning ikkita nomi vujudga keladi. Ikkita nom bo'lishi, har ikki nomning bir xil so'roqqa javob bo'lishi, har ikkisinin ham bir xil grammatik shaklda bo'lishi bilan bunday ajratilgan bo'laklar uyushgan bo'laklarga o'xshaydi.

Solishtiring: *Unda, Halimning ukasida, qiziqarli kitoblar ko'p.* Bu gapdagi *unda, Halimning ukasida* bo'laklari ikki kishini bildirsa va sanash ohangi bilan talaffuz qilinsa, uyushgan bo'lak, bir kishini bildirib, ikkinchisi birinchisidan biroz to'xtamdan so'ng pastroq ohang bilan talaffuz qilinsa, ajratilgan bo'lak bo'ladi.

Juda muhim: *Bunday ajratilgan bo'laklar gapning boshqa bo'laklaridan vergul, ba'zan tire bilan ajratiladi. Gapning hamma bo'laklari ajratilishi mumkin. Qaysi gap bo'lagining so'rog'iga javob bo'lsa, ajratilgan bo'lak o'sha gap bo'lagining nomi bilan yuritiladi.*

Ajratilgan gap bo'laklari vazifalari



bo'lak ma'nosini ta'kidlash umumiy ma'nosini tushuntirish



Gap bo'laklarini ajratish usullari

Guruhlarga bo'lining. Har bir guruh to'rttadan savollarga javob yozing.

1. Ajratilgan aniqlovchili gaplarga misollar yozing.
2. Ajratilgan izohlovchili gaplarga adabiyot darsligidan 5 ta gap topib yozing.
3. Ajratilgan bo'laklar qaysi xususiyati bilan uyushiq bo'laklarga o'xshaydi?
4. Ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish vazifasini bajaruvchi bo'laklarga misollar keltiring.
5. Ma'lum bir bo'lakning umumiy ma'nosini konkretlashtirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirish vazifasini bajaruvchi bo'laklarga misollar yozing.
6. Bir nomni boshqacha nomlash bilan hosil bo'lgan bo'laklarga misollar ayting.
7. Ajratilgan bo'laklarning nutqimizda nima ahamiyati bor?
8. *Men, Dilafro'z Sobirova, 1992-yilda tug'ildim.* Yuqoridagi gapda *Men* bilan *Dilafruz Sobirova* boshqa-boshqa kishilarmi yoki bir kishining ikki xil nomimi? Agar bir kishining ikki xil nomi bo'lsa, nomlar o'rtasidagi farqni ayting.
9. Sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etgan gap topib, sifatlovchi aniqlovchini aniqlanmishdan keyin keltiring. Sifatlovchi tartibi o'zgar-ganda ham sifatlovchi aniqlovchi vazifasida qolsin. Kesimga aylanib ketmasin. Tartibi o'zgarigan sifatlovchi aniqlovchining xususiyatlarini ayting.
10. Sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etgan gap topib yozing. Sifatlovchi aniqlovchini aniqlanmishdan keyin keltiring. Qanday o'zgarish bo'lganini, qanday tinish belgisi qo'yilganini tushuntiring.

11. Ma'lum lotincha atama bilan uning o'zbekcha muqobilini yonma-yon qo'yib, gap ichida keltiring. Bir tushunchaning bu ikki xil nomi o'rtasidagi ma'no munosabati va ohang haqida ma'lumot bering.

12. Gap ichida *daraxt* so'zini keltirib, uning yonida daraxt sinfiga mansub so'zlarni (*olma, o'rik, shaftoli*) keltiring. Ular o'rtasidagi ma'no munosabati va ohang tomoni haqida ma'lumot bering.

I. Bir nomni boshqacha nomlash bilan ajratilgan bo'laklarni aniqlang.

1. Komil buvaning uyi shu yong'oqzorning ichida — Bo'rijarning qoq ustida emish. 2. Dadam harsillab nafas olib, narigi tomonga — pastga tushdi. 3. Ovqatdan keyin ayvonda, xontaxta atrofida o'tirib choy ichdik. Dadam sharqirab oqib yotgan ariq bo'yida, bir tup sadaqayrag'och tagida to'xtadi. 4. Chindan ham bomba ancha orqaga — o'rmonzorga borib tushadi. 5. Yangi yil kechasi — nemislar mast-alast bo'lib Rojdestvo bayrami qilayotganida hujumga o'tdik! 6. Endi u rosmana raisga — Umar zakunchiga aylangan edi. 7. Ochil akaning daftari ancha nariga — o'tlar ustiga otilib ketgan, varaqlari ochilib, xira oydinda oqarib ko'rinardi. 8. Biz — er-xotin yog' zavodida ishlaymiz. 9. Qo'zivoi hammani har yoqqa surib, uch-to'rt qadam orqaga, Sherzod cho'nqayib o'tirgan doska tomonga tisarildi.

II. Matnni o'qing. Gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklarini topib, tagiga chizing va ustiga turini yozib qo'ying. Ular tobe bo'lgan bo'lakni ayting. So'ngra ajratilgan bo'laklardagi ohang va tartibni izohlang.

Insonning tavallud kunidan boshlab, uning voyaga yetgan kuni — balog'at yoshiga qadar bo'lgan uzoq davrni majoziy ma'noda bir maktab deb atasak, ana shu maktabning ramziy ma'nodagi ustoz ham boshlang'ich sinf muallimi, ham yuqori sinf o'qituvchisidir. Chunki, farzand uchun hayotdagi ideal ustoz — ona ekanligi bugungi kun tadqiqotlarida to'la-to'kis e'tirof etilmoqda. Zero, mustaqil hayot ostonasiga qadam qo'yguvchilar uchun, yosh avlod uchun, eng birinchi galda, onalarning ma'naviy dunyosi, muloqot madaniyati, axloqiy olami namuna maktabidir. Bu foniy dunyoda inson doimo orzular, umidlar olamida yashaydi. Tabiat insoniyatning dunyoga kelgan kunidan to hayotining so'nggi kuniga qadar odamzod qalbiga mana shu buyuk ikki hisni — orzular va umidlar dunyosini oshufta qilgan. Farzandini dunyoga keltirgan onaning o'y-xayolida birgina orzu mujassam

yashaydi — u ham bo'lsa, farzandlarning barkamol inson bo'lib yetishishidir.

III. O'qing. Ajratilgan hollarni aniqlab, tagiga chizing.

1. Temir eshikli podyezd, ikkinchi qavat, chap tomondagi kvartira — bu sizning xonadoningiz. 2. Men ko'rsatilgan stulga — to'rga o'tib o'tirdim. 3. Haligina, siz kelmasdan sal avval, biroz o'zimga kelgach, joy-joylariga ketishdi. (A. Ibrohimov) 4. Shoirning kulbayi vayronasi shaharning eng chekkasida, Bog'i Firuz va Bog'i Mahmud kabi ko'rkam bog'lar atrofida joylashgan edi. (O. Yoqubov) 5. Biz Xorazmda, Ma'mun ibn Ma'mun saroyida besh yil birga xizmat qilganmiz, begim. 6. Yaxshiyam, Sulton Mahmud yoshlik chog'larida, yuragida insof va adolat tuyg'usi tamoman so'nib bitmagan mahallarda, Nargizabonu sabab, sobiq g'ulomi qutlug'qadamning daxlsizligi to'g'risida birdan bir adolatli farmon bergan ekan. 7. Endi bu hibsdan, o'laksa hidi anqigan bu jahannamdan tiriklayin chiqa oladimi, yo'qmi — buyog'i yolg'iz Ollohga ayon. (O. Yoqubov) 8. Aysi — Movarounnahrda, Sayxun bo'yida joylashgan bo'lib, mashhur shaharlardan edi. (M. Ali)

Mavzuga oid test topshiriqlari

1. Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga — Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga — Sattor bir lahzada yetdi.

Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

A. uyushiq bo'lakli gap

B. uyushiq va ajratilgan bo'lakli gap

C. ajratilgan bo'lakli gap

D. Barcha hukmlar noto'g'ri

2. Qaysi gapda egaga taalluqli ajratilgan izohlovchi berilgan?

A. O'g'lim, qo'zichog'im, orom olib uxlayapti, dedi ona

B. Qobil bobo, yalangboshi, yalang oyoq, eshik yonida dag'-dag'

titraydi

C. Seryoja- oddiy, navqiron, mard yigit — o'rtoqlari uchun jonini fido qildi

D. A va C

3. Ajratilgan aniqlovchi qaysi javobda berilgan?

A. O'rta Osiyo Navro'z, yangi yil bayrami, katta tantana bilan

nishonlanadi.

B. Shoir sevgan qiz shu — hamshira/

C. Biz, yoshlar, xalqqa xizmat qilamiz

D. U yerda, taxta ko'prik ostida, bir buloq bor

E. Qobil bobo, yalang bosh yalang oyoq, yaktakchan, og'il eshigi yonida turib dag'-dag' tiraydi.

4. Gapning bosh bo'lagi ajratilgan gapni toping.

A. Paxtakor o'zbekman – zabardast, mag'rur

B. bu habar ko'plarni, shu jumladan Mahkamni ham, juda quvontirdi

C. Biz, hammamiz, bir oilaning bolasimiz

D. Uzoqdan otliqlarning-Alisher va uning hamrohlari qorasi ko'rindi

E. Men yong'oqzor topdim – go'zal, xushhavo

5. Ajratilgan izoh hol berilgan qatorni toping.

A. Ultarma bu yerga hiyla olis bo'lsa ham, bu ikki oshna bordi keldi qilib turishar edi

B. Kampir tovush chiqarmay, kuyunib yig'ladi

C. Hu ana o'sha joyda, taxta-ko'prikning ostida, atrofi qalin yalpiz bilan o'ralgan kichik bir buloq bor

D. Asrorqul bunga rozi bo'lmasa ham, kampirning rayini qaytargani botinolmadi

E. Shovqin solmang, Arslonbek aka, atrofda odam bor!

6. Ajratilgan izoh bo'lakli gapni toping.

A. Bektemir ko'zlarini ochganida, yomg'ir tez va shiddat bilan yog'moqda edi

B. Afsuski, yer yuzida urushsiz yashab bo'lmayapti

C. Sa'va, mayna, bulbullar, qanot qoqib kelinglar

D. Qobiljon Umaraliev, tasviriy san'at o'qituvchisi, to'garak ishini yo'lga qo'yib yubordi

E. Ibodat she'rni zavqlanib, hayajon bilan o'qidi.

7. Bu habar ko'plarni, shu jumladan, Rustamni ham, quvontirdi.

Gapda qanday bo'lak ajratilgan?

A. ega

B. kesim

C. aniqlovchi

D. to'ldiruvchi

E. hol.

8. Ajratilgan izoh to'ldiruvchi qatnashgan qatorni aniqlang.

A. U yerda, qishloqning markazida, ajoyib choyxona bor edi

- B. Tunov kuni, bayram arafasida ajoyib kechaning guvohi bo'ldim
- C. Axir uning, singlimning ham tengdoshlari orasida o'ziga yarasha obro'si bor.
- D. Biz Beshyog'och dahasining yuqorisida, o'ng tarafdagi kichik mahallada yashardik
- E. kitob ichidagi dastxatga, menga tanish husnixatga uzoq tikildim.
9. Ba'zan, qiynalib qolganida, menga murojaat qilardi. Ushbugapda qanday bo'lak ajratilgan?
- A. ajratilgan bo'lak mavjud emas
- B. hol
- C. to'ldiruvchi
- D. aniqlovchi
- E. kesim
10. Ajratilgan holni toping.
- A. O'smoqdamiz biz – yosh avlod, qalbimizda zo'r istak
- B. Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, mening bilishimcha, sening elingga
- C. Kuylar chalar shoir -bastakor
- D. Qo'llar ishlar tez – mo'jizakor
- E. O'zbekistonda Navro'z, yangi yil bayrami, katta tantana bilan nishonlanadi.
11. Mana ko'rdinglarmi, qattiq-tishlaringni ushatadi. Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi ajratib izohlangan?
- A. sifatlovchi-aniqlovchi
- B. ot-kesim
- C. izohlovchi
- D. vaziyat holi
- E. ajratilgan bo'lak qo'llanmagan.
12. Qaysi gap ajratilgan izoh bo'lakli gap sanaladi?
- A. Sa'va, bulbul, maynalar qanot qoqib kelinglar
- B. Ibodat she'rni zavqlanib, hayajon bilan o'qidi
- C. Bektemir ko'zlarini ochganda, yomg'ir tez va shiddat bilan yog'moqda edi
- D. Aziz Abdurazzoqovich, ichki xizmat mayori, tekshiruv o'tkazdi
- E. Bulbul goh sayraydi, goh tinadi.
13. Gapda qanday bo'laklar ajratilgan izoh bo'lakli bo'lishi mumkin?
- A. aniqlovchi va to'ldiruvchilar

B. hol

C. ikkinchi darajali bo'laklar

D. bosh va ikkinchi darajali bo'laklar

14. O'smoqdamiz biz - yosh avlod, qalbimizda zo'r istak.---

Ushbu gapda qanday ajratilgan izoh bo'lak mavjud?

A. ajratilgan izoh kesim

B. ajratilgan izoh to'ldiruvchi

C. ajratilgan izoh aniqlovchi

D. ajratilgan izoh hol

15. 1.~Meni, Akrom Madumarovni o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi ekan. 2.~Meni, Akrom Madumarovni, o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi ekan. 3.~Meni, ya'ni Akrom Madumarovni, o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi. Ushbu gaplardan qaysi birida ajratilgan izoh bo'lak mavjud?

A. 1, 2, 3

B. faqat 1

C. faqat 3

D. 2 va 3

16. Qaysi qatorda ajratilgan izoh bo'lak mavjud?

A. Men, Karim aka va haydovchimiz erta tongda yo'lga tushamiz.

B. Bolam, jon bolam, o'zingni ehtiyot qil!

C. Qalay, Hamidboy, ishlar o'ngidanmi?

D. Hovuz bo'yida, yosh tollarning ko'm-ko'k barglari ostida, hali ham allaqanday sokinlik mavjud edi.

17. Ikki o'rtoq - Durдона bilan Nilufar-- birga o'tirib, nimalarnidir muhokama qilishdi.--- Gapda qanday bo'laklar uyushib kelgan?

A. ega

B. aniqlovchi

C. undalma

D. ajratilgan bo'lakdagi izohlovchi

11-MAVZU. UNDALMALI MURAKKABLASHGAN GAPLAR. KIRISHLAR VA KIRITMALAR USLUBIYATI

"Aqliy hujum" savollari

1. Gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo'laklarga nimalar kiradi?

2. Undalmalar qanday xususiyatga ega?

3. Undalmali gaplarda qanday tinish belgilari qo'llanadi?

4. Undalmalari gaplarda undov so'zlar yoki egalik qo'shimchalari qo'llanadimi?

5. O'rtog'ingizning ismini aytib chaqiring va uni gap ichida keltiring. O'rtog'ingiz ismini bildiruvchi so'zning qanday sintaktik vazifada kelishini ayting.

6. *Opa, urma qalbimga tikan (H. Olimjon)* gapi tarkibidagi *opa* so'zining o'rini almashtiring. Almashtirganda qanday o'zgarish ro'y berayotganini ayting. Erkin o'rin almashinish sababini tushuntiring.

7. Undalma ishtirok etgan gap tuzib, undalma oldidan undov so'zni qo'shing. Undov bilan qo'llangan undalmaning undovsiz undalmadan farqini ayting.

8. Onajonim, bunday qilma, Bunday qilma, Onajon! (*A. Oripov*) gapidagi undalmaga qo'shilgan *-jon* va egalik qo'shimchasi *-im* ning qanday vazifa bajarayotganini ayting.

9. Badiiy adabiyotdan o'nta gap tanlab yozing; unda undalma ikki o'rinda gap boshida, ikkitasida gap o'rtasida va ikkitasi gapning oxirida qo'llangan bo'lsin; ikki gapda birikmali, ikkitasida esa uyushgan undalmalar ishtirok etgan bo'lsin.

Undalmalar

1) so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs, predmet;

2) gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi.

Turlari

1. Yig'iq undalma: Dunyoni qizg'anma mendan, azizim.

2. Yoyiq undalma: Jahonga yuz tutgan O'zbekistonim, sening har bir yutug'ing mening yutug'imdir.

Gapdagi o'rni

1. Gap boshida: Do'stlar! Tabiatni asraylik.

2. Gap o'rtasida: So'yla, ko'zgujon, haqiqatni et bayon.

3. Gap oxirida: O'qishni bilmasang, uqib ol, qizim.

Undalmalarning ifodalanishi

Ot bilan: Unsin, bu oila qalay, ketasanmi?

Olmosh bilan: Sen, menga qara-chi?

Otlashgan sifat bilan: Shunday demaysizmi, azizim!

Otlashgan son bilan: To'rtinchi, birinchiga javob bering.

Undov so'z bilan: Hay! Beri keling!

So'z birikmalari bilan: Umimning bahori, senga yo'l bo'lsin.

Iboralar bilan: Hay yigit tushmagur, nima deding?

Undalmali gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi

Alisher, kitobingni menga ko'rsat.

Zafar! Oyimlar keldilar.

Buncha, **Oftob**, biroz andisha ham lozim.

Oy bo'rib, omon kel, **o'g'lim**.

Hay Murod, nega uni tanimading?

So'zlashish jarayonida tinglovchining diqqatini o'z nutqingizga qaratish uchun ko'pincha uning nomini aytib yoki *opa, aka, singil, tog'a, amma, xola* kabi so'zlar orqali murojaat qilasiz. Ba'zan tinglovchiga murojaat ifodalovchi so'zni qo'llash orqali unga shaxsiy munosabatingizni ifodalaysiz. Masalan, *Arpangizni xom o'ribmanmi, uka. Do'ndig'im, o'ynoqlab yuratur. Onajonim, balki bir kun Aytganingday bo'lar to'y* (A. Oripov).

Eslab qoling. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifodalab, gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan so'z yoki so'zlar birikmasiga undalma deyiladi.

Undalmalar so'zlovchi nutqi qaratilgan shaxsni bildirganligi uchun u ko'pincha shaxs bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanadi. Badiiy nutqda esa shaxs bildirmaydigan jonli va hatto jonsiz predmetlar ham undalma vazifasida kelishi mumkin. Masalan, *Qani, ayt, maqsading nimadir sening. Nega tilkalaysan, bag'rimni, ohang* (A. Oripov).

Undalmalar gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi sababli uning o'rni erkin bo'ladi, lekin undalma gapning qayerida kelishiga ko'ra, alohida-alohida vazifa bajaradi. So'zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb qilishni maqsad qilib olsa, u vaqtda undalma gap boshida keladi. So'zlovchi tinglovchilarga murojaat etish orqali unga subyektiv munosabatini ifodalashni maqsad qilib olsa, u vaqtda undalma gap o'rtasi va oxirida keladi. Masalan, *Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim. Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?! (A. Oripov)... Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo — Sen beshik emassan, dorsan, tabiat* (A. Oripov).

Juda muhim. Undalmalar nutq jarayoniga undalgan, diqqati jalb qilingan shaxs-predmetlar bo'lgani uchun bosh kelishikda turadi. Bu

jihatdan u egaga o'xshaydi, lekin undash ohangi bilan talaffuz qilinishi va kesim bilan moslashmasligi bilan egadan farq qiladi. Solishtiring: Ahmad keldi. — Ahmad ega. Kesim bilan grammatik bog'langan.

Ahmad, keldi. Ahmad — undalma. Kimningdir kelganligi Ahmadga aytilyapti, kesim bilan grammatik bog'lanmaydi. Undash ohangi bilan talaffuz qilinadi.

Juda muhim. Undalmalar gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi uchun yozuvda doimo boshqa gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi. Gap boshida kelib, kuchli undash ohangi bilan aytilsa, undalmadan so'ng undov belgisi qo'yilishi ham mumkin. Masalan: Odamlar! Eshitmadim demanglar.

Mashqlar

I. Gaplardagi undalmalarni aniqlang, o'rnini va tinish belgilarini izohlang, qanday uslubiy vazifa bajarilayotganini tushuntirib bering.

1. Ey inson, odam degani qo'yini qassobga bersa ham, so'ygunicha poylab turadi. 2. UZR, o'rtoq prokuror, tanimaganni siylamas, degan maqol bor-ku. 3. Hamdam aka, anchadan beri birovni chaqa olmay zada bo'lib turgan ekansiz-a? — dedi Zohid jilmayishga harakat qilib. 4. Kel, o'zbek qardoshim, kel, mening aziz qo'nog'im bo'l, qalbing huzurli o'lsun, — dedi u o'rnidan turib. 5. Bo'tam, yana bir Hadisi sharif borki, unda qabristonni ziyorat qilishga da'vat etiladi. 6. Jalil, og'ayni, otamga o'z qo'ling bilan bir palov damlab bergin. 7. Asad, shu paytgacha emaklasak ham birga emakladik, yugursak ham birga yugurdik, tursak — birga turdik. 8. Salom qardoshim, Xongireydan senga ulug' salomlar, — dedi Mamatbey u bilan ko'risha turib. 9. Sen bola, menga aql o'rgatma — bor, jo'na, turqingni ko'rmay. Mahmudga borib ayt. 10. Yoshulli, sizlar adolat qilaszlar, deb eshitgan edik.

II. Quyidagi so'z va so'z birikmalari undalma vazifasida kelgan gaplar tuzib yozing.

Sarvari olam, Hurmatli Prezident, ey Inson, obod o'lkam, O'zbekistonim, ey sen zakiy, boy ota, gulim, ona tilim, Vatan, azizim onam, ko'zim qorasi.

III. Quyidagi gaplarni o'qing. Ularni undalmali gaplarga aylantirib ko'chiring.

Namuna: Otashga sig'indi bir zamon xalqim. (A. Oripov)

1. Xalqim, bir vaqtlar sen otashga sig'ingan eding. 2. Millatimizning har bir hikmati zamirida olam-olam mazmun yashiringandir. 3. Qush qanchalik baland yoki uzoqqa parvoz qilmasin, baribir o'z

oshiyoniga qaytib keladi. 4. Kishi qozonga nima solsa shuni, tosh solsangiz, tosh olasiz, osh solsangiz, osh olasiz. 5. Go'dak oilaviy muhitda ulg'ayadi, muhit uni qanday oziqlantirsa, shunday ruhda kamolga yetadi. 6. Talabalik yillarim dugonalarim biznikiga kelishini buvijonim juda yaxshi ko'rardi. 7. Men bir narsaga qattiq ishonamanki, hayotimdagi og'ir va baxtiyor kunlarda doim buvimning ruhi menga madad bo'lib kelyapti. 8. Shu payt eshik ochilib, bolalarning xushchaqchaq ovozlari, onajonimning bag'riga otilib, mehr to'la bildirilgan salom-aliklari barala yangradi. 9. Ayol qanchalik didli-farosatli, tabiatan ozoda, saranjom-sarishta, buning ustiga shirinsuxan bo'lsa, hatto xonadon devorlari ham jilva qilib turadi. 10. Muhabbatxon xonadonimga quyosh bo'lib, o'zgacha harorat olib kirdi. («Sanam» jurnalidan)

1. Undalmalar qaysi kelishik shakllarida bo'lishi mumkin?

A) bosh B) bosh, jo'nalish, tushum C) jo'nalish, o'rin-payt D) barcha javob to'g'ri

2. Gap bo'laklari tahlilida undalmalar uchun qanday shartli belgi qabul qilingan?

A) _____ B) _____ C) D) _____

Undalmalar uchun shartli belgilar qabul qilinmagan, ular so'z bilan izohlanadi.

3. Undalmali gaplarning kesimi ko'pincha qaysi shaxs shaklida bo'ladi?

A) II shaxs B) III shaxs C) I va II shaxs D) II va III shaxs

4. Yoyiq undalmalarga to'g'ri ta'rif berilgan qatomi toping.

A) o'ziga qarashli to'ldiruvchisi bor undalmalar B) so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildiruvchi undalmalar C) o'ziga qarashli aniqlovchisi yoki to'ldiruvchisi bor undalmalar D) o'ziga qarashli aniqlovchisi yoki izohlovchisi bor undalmalar

5. Undalma ishtirok etgan gapni toping.

A) Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, mening bilishimcha, sening elingga. B) Xayriyat, vaqtida yetib keldik. C) Muhtaram Umidaxon, sizni tug'ilgan kuningiz bilan chin yurakdan tabriklayman. D) Ehtimol, bu ishni o'zing bajararsan.

6. Uyushiq undalma qatnashgan gapni toping.

A) Kitob, sen bo'lmasang balki kun yorishmasdi. B) O'-o', boylik, boylik, mening uyimga sen kiradigan bo'lsang-u, iymon ketadigan bo'lsa, men senga o't qo'yaman, o't! C) Muhtaram otalar, onalar,

kelinlar, o'g'illar, opa-singillar, sizga shu haqda murojaat qilamiz. D) Inim, siz kitoblarni sandiqlarga joylashtiravering.

7. Undalmali gapni aniqlang.

A) Inson ezgulikni va ulug'likni orzu qilishi kerak. B) Oh, umr o'tdi-ketdi oqar suvday! C) Sharofat, aftidan, bunaqa gaplar bilan Siddiqjonning g'ashiga tegmoqchi edi. D) Hoy quyoncha, yakka o'zing qayoqqa ketyapsan?

8. Qanday undalmalar yoyiq undalmalar salanadi?

1. o'ziga qarashli aniqlovchisi bor undalmalar; 2. o'ziga qarashli izohlovchisi bor undalmalar; 3. o'ziga qarashli to'ldiruvchisi bor undalmalar; 4. undalmadan oldin undov so'z ishlatilsa

A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 3, 4 C) 2 D) 1, 2

9. Qaysi hukm noto'g'ri?

A) Undalmalarning gapdagi o'rni erkindir. B) Undalmalar ham ega singari bosh kelishikda qo'llanadi. C) Undalmalar o'ziga qarashli aniqlovchi, izohlovchi yoki hol bilan yoyiq holda qo'llanadi. D) Undalmali gaplarning kesimi, ko'pincha, birinchi va ikkinchi shaxs shakllarida bo'ladi.

10. 1. Jahonga yuz tutgan O'zbekistonim, sening har bir yutug'ing mening yutug'imdir. 2. O'g'lim Mirjalol! Aftidan, sen bu gaplarni eshitmagansan. 3. O'-o', boylik, boylik! Mening uyimga sen kiradigan bo'lsang-u, iymon ketadigan bo'lsa, men senga o't qo'yaman, o't! 4. Sobir! Eski oshnalaringni topib keldim. Ushbu gaplarning qaysi biri tarkibida yoyiq undalma mavjud?

A) 1, 2, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 2, 3

11. Ey, farzand, bilki, ota-ona mo'tabardir. (Kaykovus) Ushbu gapda qo'llangan undalmani qniqlang.

A) farzand B) Ey C) Ey, farzand D) bilki

12. Dadasi: – Qani o'g'lim qarashib yubor, gul ekamiz, - dedi. Ushbu gapda qaysi o'rinda tinish belgisi tushib qolgan?

A) qani so'zidan so'ng vergul qo'yilmagan B) tinish belgilari barcha o'rinlarda to'g'ri qo'yilgan C) o'g'lim so'zining har ikki tomonidan vergul qo'yilmagan D) o'g'lim so'zidan so'ng vergul qo'yilmagan

13. Qaysi gap tarkibidagi undalma gap oxirida kelgan?

A) O'-o', boylik, boylik! Mening uyimga sen kiradigan bo'lsang-u, iymon ketadigan bo'lsa, men senga o't qo'yaman, o't! B) Odamlar kasal bo'laveribdi, ulardan qanchasi o'laveribdi-yu, sen bu dorilarni bosib yotaberibsanda, noinsof! C) Jahonga yuz tutgan O'zbekistonim, sening

har bir yutug'ing mening yutug'imdir. D) Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o'g'illar, opa-singillar, sizga shu haqda murojaat qilamiz.

14. Undalma alohida ohang bilan ajratib aytilsa, undan keyin qanday tinish belgisi ishlatiladi?

A) vergul B) undov C) ikki nuqta D) tire

15. Undalmalarda tinish belgilarining qo'llanishi haqidagi qaysi fikr noto'g'ri?

A) undalma gap boshida kelsa, undan so'ng vergul qo'yiladi B) undalma gap oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi C) undalma gap o'rtasida kelsa, undan oldin yoki keyin vergul qo'yiladi D) yuqoridagilarning barchasi to'g'ri.

12-MAVZU: KIRISH SO'ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Gap orqali ma'lum axborot ifodalanishi bilan birga, so'zlovchining shu axborotga munosabati ham ifodalanadi. So'zlovchining munosabati gapning kesim shakli (mayl shakli bog'lamalar va nol shakli) orqali hamda maxsus modal so'zlar yordamida ifodalanadi. Masalan, *albatta, shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, to'g'ri, ehtimol, balki, chamasi, taxminan* va boshqalar.

T/r	So'zlovchining o'z fikriga munosabati	Shu munosabatni ifodalashga xoslangan so'zlar	Misollar
1.	Ishonch munosabati	albatta, shaksiz, shubhasiz	Bu iltimosingizni, albatta, bajaraman.
2.	Gumon munosabati	balki, ehtimol, chamasi	Balki, kelib qolar.
3.	Tasdiq munosabati	to'g'ri, darhaqiqat, haqiqatan	To'g'ri, bu litsey binosi.
4.	Achinish munosabati	afsuski, attang	Afsuski, men yordam berolmadim.
5.	Fikrga yakun yasash munosabati	xullas, demak	Xullas, o'qishlar yaxshi.
6.	Fikrning kimga qarashli ekanligi	menimcha, aytishlaricha	Menimcha, eng yaxshisi shu.
7.	Fikrning tartibi	birinchidan, ikkinchidan, avvalo, avvalambor	Avvalo, men unday demoqchi emasman.

So'zlovchi gap orqali bayon qilayotgan axborotga qanday munosabatda ekanligiga qarab, yuqoridagi modal so'zlardan muvofiq'ini qo'llaydi: tasdiq munosabatini ifodalamoqchi bo'lsa, *darhaqiqat, haqiqatan ham, to'g'ri* so'zlaridan; ishonch munosabatini bildirmoqchi bo'lsa, *albatta, shubhasiz, shaksiz* kabi so'zlardan; gumon ma'nosini ifodalamoqchi bo'lsa, *ehtimol, balki* so'zlaridan; chama-taxmin ma'nosini ifodalamoqchi bo'lsa, *chamasi, chamamda, taxminan* so'zlaridan foydalanadi.

Eslab qoling. So'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga *ishonch, gumon, achinish* kabi munosabatlarini ifodalovchi sintaksis birliklarga kirishlar deyiladi. Kirishlar so'z va birikma holatida bo'ladi.

Kirishlar gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Shuning uchun u boshqa gap bo'laklaridan farq qiluvchi alohida ohang bilan talaffuz qilinadi va yozuvda vergul bilan ajratiladi.

Kirishlar ham uslubiy xoslanish xususiyatiga ega. Shuning uchun so'zlovchi o'zi qo'llayotgan nutq uslubiga muvofiq keladiganini tanlab qo'llaydi. Masalan, *shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, demak, fikri ojizimcha, avvalambor* kabi kirish so'zlar uslubiy xoslangan so'zlardir. Ulardan, *shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, demak, avvalambor, fikri ojizimcha* so'zlari kitobiy uslubga xos. Kitobiy uslubga xos bu so'zlar o'z ichida ichki xoslanishga ega: *shaksiz, fikri ojizimcha* — badiiy uslubga xos; *bayon qilinishicha* — publitsistik uslubga xosdir. Shuning uchun har qaysi kirish so'zini o'z o'rnida ishlatish madaniy nutq belgisi sanaladi.

Mashqlar

I. O'qing. Kirish so'zlarni ajrating. Kerakli o'ringa vergul qo'yib ko'chiring.

1. To'g'ri-da, harna ko'ngli yozilgani! Qolaversa kasal onasiga madad bo'ladi. 2. Rais ham Ra'noxonning ahvolini sezdi shekilli haytovur yo'q demadi. 3. To'g'ri qora kunga asrab qo'ygan bug'doyimiz ham, jo'xori ham ko'p edi. 4. Kun botmasidan oxirgi egatdagi kartoshkani ham terib oldik xayriyat. 5. Oyim chamamda bu gapni dadamga aytmadi. 6. Qiziq zakunchi kelib ketishi bilan oraga g'ashlik tushdi. (*O'.Hoshimov*) 7. Binobarin yoshlarimizni hayot so'qmoqlaridan eson-omon olib o'tish har bir insonning muqaddas burchidir. 8. Afsuski bugungi kunda mafkura, targ'ibot va tashviqot kerak emas, degan noto'g'ri xulosa bilan yashayotgan odamlar ham uchrab turibdi. 9. Ma'lumki oqko'ngil odam har qachon boshqalar baxtiga, ularning xizmatdagi yo shaxsiy hayotdagi yutuqlariga xuddi o'z baxti, o'z yutug'i kabi qarab quvonadi. 10. Albatta, baxillik qon yo jon bilan o'tadigan fiziologik hodisa emas. 11. Darhaqiqat, mundog' o'ylab qaralganda, bola hadeb o'ksinaversa kuygunchakka, kuygunchaklik hasadga, hasad esa baxillikka, nihoyat baxillik ziqnalikka aylanganini ko'rish mumkin.

(*M. Ismoilij*)

II. Ko'chiring. Kirish so'zlarni toping. Ular qaysi uslubda ko'proq qo'llanilishini ayting.

1. Modomiki, siz halokatdan gap ochibsiz, yuqoridagi mulohazalarimiz uchun e'tirozga o'rin qolmaydi. 2. Demak, yashash ma'nosining zamirida xalq xizmatini qilish, Vatanni sharaflash burchi ham bor. 3. Ajabo, armonga yo'l qo'ymaslik mumkin bo'lgan holda bu

azobni, bu gumrohlikni nechun o'zingizga ravo ko'rdingiz. 4. Tavba, shunchalik bag'ritosh, bemehr, bemuruvvat bola bo'ladimi! 5. Ha, darvoqe, uni gazetaga yozmoqchi ham bo'ldik avval, lekin satqayi gazeta ketsin senga, deb yozmadik. 6. Hayotning eng og'ir, eng shafqatsiz kunlarida ham yiqilmadi, aksincha, qaddini tik tutib, o'zini mehnatga urdi. 7. Qisqasi, yaxshi onaning peshanasida ne xil baxt bo'lsa, hammasi Saodat buvida mo'l-ko'l. 8. Bu so'zdan hamma qarilar aqlli-yu, hamma yoshlar nodon ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak! Aslo! Yoshlar orasida ham aql-hushi joyida, ziyrak, tadbirkorlari ko'p. 9. Xo'p, bugungi gapim tamom qizim. 10. Aksincha, dami ichiga tushib ketgan odamday churq etmay, hatto, nafas ham olmayotganday o'tirib qolar edi.

(M. Ismoilijiy)

III. Ko'chiring. Kirish so'zlarni toping. Matnda qo'llanish o'rnini izohlang.

Shayton bor narsa va u yoningda emas, qoningda aylanadi. Odamlar ko'rsa uyat bo'ladiganki narsani, bilginki, shayton buyurdi! Hazrati Navoiyda shunday gap bor: birovning oldida aytish mumkin bo'lmagan gaplarni, qilish mumkin bo'lmagan ishlarni kimsa yo'g'ida ham aytmasa, qilmasa, o'sha odam donodir. Ayni yolg'iz qolganingda o'zingni qattiq poyla, jilovingni mahkam tut. O'zingga podshoh o'zingsan, buyur vujudingga, aytganingni qilsin! Agar ayb ishdan tiyilsang — demak, o'zingni boshqaryapsan. Agar xato qilsang, bilginki, shaytonga xizmat qilyapsan! Shaytonga xizmat qildingmi, yutqizishlaring boshlanadi! Yutqizishlarga uchradi degan gap baxtli bo'lolmadi, deganidir.

Ota-onang esa seni faqat baxt uchun, baxtga atab dunyoga keltirganlar. Seni suvda emas, duolarda cho'miltirganlar, ismingni ham Baxtiyor, Komron, Zafar, Dilshod, Xushnud, Omad, Maqsud, Umid deb qo'ydilar! Shu ismlarga munosib umr ko'rishingni xudoyimdan tun-u tong yig'lab tilaydilar. Ilinj ila ehsonlar qilib, eldan duo yig'adilar. O'qitadilar, hunarmand qiladilar. Seni baxtli ko'ray deb, sochlari oqarib, tishlari to'kilguncha kuymalanib o'tadilar... O'zingni yig'ishtir, ularni noumid qilma, shu ikki buyuk xaridoring uchun baxtli yashab bergin, o'g'lonim! Agar astoydil xohlasang, bu sening qo'lingdan keladi, chunki buyruq o'zingdan, ijro o'zingda!

Mavzuga oid test savollar

1. Gapdagi biror bo'lak bilan hokim-tobelik aloqasiga kirishmaydigan bo'laklar berilgan qatorni toping.

A) undalma B) kiritma gap C) kiritma D) A, B, C

2. Kiritmalar gapning o'rtasida kelganda gapdan qanday tinish belgilar bilan ajratiladi?

A) vergul, qavs B) vergul, tire C) tire, qavs D) A va B

3. Murakkab kiritmalar qaysi birikmalar bilan ifodalanadi?

A) so'z gaplar, so'z birikmalari B) uyushiq bo'laklar va kengaygan birikmalar C) so'z birikmalari, birikmalar va gaplar D) gaplar

4. Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmagan so'z qaysi gapda qo'llangan?

A) To'g'ri, o'zbek adabiyotining tarixi ming yillar bilan belgilanadi. B) Qirlar bag'rini hali ko'm-ko'k, saf-saf pistalar, do'lanalar bezab turibdi. C) Asal ta'sirida yuzda qizillik, bilakda kuch, ko'zda nur yetarlicha bo'ladi. D) Ba'zi vaqtda, sug'orish paytlarida, kechalari ham tinim bo'lmas edi.

5. Kirish so'z ishtirok etgan gap qaysi qatorda berilgan?

A) Xullas, ana shu ajriqzordan sal o'tgandan keyin qishloqcha boshlanadi.

B) Lekin Me'morning, avvalo, raiyat, qolaversa, saltanat oldidagi mavqeyi, Xuroson-u Movarounnahrda shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l qo'ymas edi.

C) Aftidan, G'ulomjon bu g'alvalarni ataylab boshlagan.

D) A, B, C

6. Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i kerak. Ushbu gapdagi kirish so'z qanday ma'no anglatgan?

A) ishonch

B) tasdiq

C) fikrning tartibi

D) fikrning dalillanishi

7. Sof modal so'z ishtirok etmagan gapni aniqlang.

A) Abduqodirning ham tomog'iga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirolmadi.

B) Xullas, Umidjon deyarli har kuni bitta yangi ibratli ertak o'ylab topib, buvisiga so'zlab beradigan bo'libdi.

C) Chamasi, hammasining og'zi tekkan ekan o'sha go'shtga.

D) Avsuski, rejadagi ishlar ko'ngildagidek bajarilmadi.

8. Fikrning tartibi, fikrning dalillanishi, fikrni xulosalash, gumon ishonch kabi ma'no turlari qaysi so'zlarga mansub?

A) undov so'zlarga

B) taqlid so'zlarga

C) modal so'zlarga

- D) yuklamalarga
9. Vazifadosh modal so'zlar to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
- A) aftidan, chamasi, balki, ehtimol
 - B) shubhasiz, attang, albatta, xullas
 - C) balki, avvalambor, masalan, taxminan
 - D) ehtimol, demak, haqiqatdan, umuman
10. Uning "ko'cha bolasi" ekanligini aftidan bilib olish qiyin emas edi. Ushbu gapdagi kirish so'z qanday ma'noga ega?
- A) gumon
 - B) tasdiq
 - C) modal so'z ishtirok etmagan
 - D) fikrni dalillash
11. Qaysi qatordagi gapda fikrni xulosalashni ifodalagan kirish so'z ishtirok etgan?
- A) Xayriyat, daraning oxiriga yaqinlashgan sayin asov soy sayozlashib, nihoyat, qoyatoshlar chekinib, yaylov ko'rindi.
 - B) Xullas, ana shu ajriqzordan sal o'tgandan keyin qishloqcha boshlanadi.
 - C) Xayr, o'g'rigina bolam, kelib tur.
 - D) Yomg'ir yog'yapti shekilli, deb o'ylab, boshini ichiga tiqib, yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog'idan tutib xaltaga solaman.
12. Fikrning dalillanishini ifodalovchi kirish so'z qaysi qatorda berilgan?
- A) haqiqatdan
 - B) umuman
 - C) jumladan
 - D) avvalo
13. Qaysi gap tarkibida kirish so'z mavjud emas?
- A) Shubhasiz, biz g'olib chiqamiz.
 - B) Aftidan, u yolg'on gapiryapti.
 - C) Balki, siz haqdirsiz.
 - D) Bizning g'olib chiqishimiz shubhasiz.
14. Ishonch ma'nosini ifodalagan kirish so'z ishtirok etgan qatorni toping.
- A) Xayriyat, daraning oxiriga yaqinlashgan sayin asov soy sayozlashib, nihoyat, qoyatoshlar chekinib, yaylov ko'rindi.
 - B) Xullas, Umidjon deyarli har kuni bitta yangi ertak o'ylab topib, buvisiga so'zlab beradigan bo'ldi.
 - C) Ularga qarshi kurashish hammamizning burchimiz, albatta.
 - D) Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i lozim.

13-MAVZU. GAP VA UNING BELGILARI. GAPNING IFODA MAQSADIGA KO'RA TURLARI. DARAK, BUYRUQ, ISTAK, SO'ROQ GAPLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI.

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM
<p>Bugun havo sovidi. Ertaga muzeyga boramiz. Bugun kech qoldim. Bu ishni oxirigacha yetkazmay qo'ymayman.</p>	<p>Darak, buyruq, istak, so'roq gaplar to'g'risida barcha ma'lumotlarni</p>	<p>Voqea-hodisa haqida ma'lumot beradi. Kesimi xabar maylidagi fe'ldan uborat bo'ladi. Tasdiq yoki inkor bildiradi. Gap bo'laklari to'g'ri tartibda joylashadi.</p>
<p>Ertaga kelasanmi? Bu Vatanda nimalar yo'q? Besh olding? Buni kim bilmaydi? Yurmaysanmi? Bu daraxtni kesishga kim jur'at qiladi? («Bu daraxtni kesishga hech kim jur'at qilolmaydi» ma'nosini bildiradi).</p>		<p>So'f so'roq gaplar va ritork so'roq gaplarga bo'linadi. So'roq ohangi, so'roq olmoshlari, so'roq yuklamari orqali hosil bo'ladi. Javobi shunga mos bo'ladi. Ritorik so'roq gap I o'zida tasdiq yoki inkor mazmuni bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan so'roq gap.</p>
<p>Chiroyli yoz. Hamma paxta terimiga! Ishga qabul qilinsin. Chekilmasin.</p>		<p>Kesimi aniq nisbat, II shaxs yoki majhul nisbat, III shaxs buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Kesim gap boshida yoki oxirida keladi.</p>
<p>Bahor kelsa edi. Niyatimiz amalga oshsin.</p>		<p>Kesimi shart-istak maylidagi fe'l bilan, ba'zan III shaxs buyruq-istak maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi.</p>

"Aqliy hujum" topshiriqlari

1-topshiriq. Kesimi aniqlik maylidagi fe'ldan ifodalangan gap topib yozing. Gapning qanday axborot ifodalayotganini ayting.

2-topshiriq. Ot kesimli gap topib yozing. Gapning qanday axborot ifodalayotganini ayting.

3-topshiriq. Kesimi shart-istak maylidagi fe'l bilan ifodalangan gap yozing. Gapning qanday axborot ifodalayotganini ayting.

4-topshiriq. Ma'lum istak-xohishingizni tinglovchiga bayon qilmoqchisiz. Maqsadingizga muvofiq keladigan gap shaklini tanlang va istagingizni yozing. Gap kesimining qanday shaklda ekanligini ayting.

5-topshiriq. Gap turlarini belgilang.

1. Ba'zan ayollarning o'ziga befarqligini ko'rib hayron qolasan kishi. 2. Ayollarning tibbiy madaniyatini oshirish to'g'risida ham o'ylamog'imiz zarur. 3. Gullarga kim suv quydi?

4. Havo isiydi? 5. Shuni ham bilmaysanmi? 6. Oldin o'yla, keyin so'yla. 7. Bajaring topshiriqni. 8. Yer yuzini munavvar etaylik. 9. Qani hamma ham sizday bo'lsa... 10. Qaniydi

tili bo'lsa-yu, u bilan suhbatlasha qolsa!

So'zlovchi nutq jarayonida turli maqsadlarni amalga oshiradi: o'ziga ma'lum bo'lgan axborotni boshqasiga yetkazish maqsadi, o'ziga ma'lum bo'lmagan axborotni boshqasidan so'rash maqsadi, ma'lum voqea-hodisani amalga oshirishga tinglovchini da'vat etish maqsadi va boshqalar. Ana shu maqsadlarning amalga oshishiga muvofiqlashgan gap shakllari (qoliplari) mavjud.

Eslab qoling. *So'zlovchining maqsadiga xoslangan gap turlariga gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari deyiladi.*

Ifoda maqsadiga ko'ra gaplar to'rt turga bo'linadi: 1) darak gaplar; 2) buyruq gaplar; 3) so'roq gaplar; 4) istak gaplar.

Darak, buyruq gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari

Sizga ma'lum bo'lgan biror axborotni boshqalarga yetkazmoqchi bo'lsangiz, darhol shu maqsadingizga muvofiq keladigan gap shaklini (qolipini) tanlaysiz. Bunday gaplarning xarakterli xususiyati shundaki, kesimi tasdiq yoki inkor shaklida turgan aniqlik maylidagi fe'llar bilan, ba'zan tasdiq yoki inkor shaklidagi otlar bilan ifodalanadi; yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisani tasdiq yoki inkor qilish yo'li bilan ifodalaydi; darak ohangi bilan talaffuz qilinadi; darak ohangi gap oxiriga qarab pasayib boradi; gap bo'laklari to'g'ri tartibda joylashgan bo'ladi.

Eslab qoling. *Kesimi aniqlik maylidagi fe'llardan, tasdiq yoki inkor ma'nosini bildiruvchi otlardan ifodalanib, biror voqea-hodisa haqida xabar bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi.*

Masalan, *Ana bu — bizning bog'imiz.*

Yozuvda darak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi. Ba'zan darak gaplardagi gap bo'laklarining me'yordagi tartibi o'zgarishi mumkin. Masalan:

- a) *Urug'chilik instituti shahar markazidan xiyla chetda joylashgan.*
- b) *Shahar markazidan urug'chilik instituti xiyla chetda joylashgan.*
- d) *Xiyla chetda joylashgan urug'chilik instituti shahar markazidan uzoqda edi.*

Juda muhim. *Darak gaplardagi bunday uch xil gap bo'laklarining tartibi gapning umumiy mazmunini bir xil ifodalasa ham, lekin uslubiy xoslanishlik va gap bo'laklaridan birining ahamiyatlilik darajasini ifodalashga ko'ra o'zaro farqlanadi: a) va b) harflari bilan berilgan gaplar kitobiy uslubga, d) harfi bilan berilgan gap esa so'zlashuv uslubiga xoslangan; e) harfi ostida berilgan gapda institutning qayerda joylashganligiga alohida ahamiyat beriladi.*

Darak gaplar ma'lum axborotni tasdiq va inkor yo'li bilan ifodalaydi. Kesimi bo'lishsiz fe'llardan, yo'q, emas so'zlarini olgan sifatosh va otlardan ifodalangan gaplar darak-inkor gaplar sanaladi.

Juda muhim. *Ba'zan gapning inkor shakli orqali tasdiq ma'nosi ifodalanadi. Bunday vaqtda ikkita inkor shakl qo'llanilib, gapga tasdiq ma'nosini beradi. Masalan, o'qimay qo'ymayman. Inkor shakl orqali ifodalangan tasdiq ma'nosi tasdiq shakl orqali ifodalangan tasdiq ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.*

Ma'lum bir harakat-holatni, voqea-hodisani bajarish yoki bajar-maslikka tinglovchini da'vat etmoqchisiz. Ana shu joyda kesimi buyruq maylidagi fe'llardan ifodalangan gaplardan foydalanasiz. Masalan, *Oldin o'yla, keyin so'yla.*

Eslab qoling. *Kesimi buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanib buyruq-xitob ma'nolarini ifodalagan gaplarga buyruq gaplar deyiladi.*

Juda muhim. Buyruq gaplarning buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalangan kesimi ba'zan tushib qolishi mumkin, lekin uning izi nutq vaziyatidan bilinib turadi. Masalan: *Hamma paxta terimiga!*

Buyruq gaplarning oxiriga yozuvda vergul, ba'zan undov belgisi qo'yiladi. Buyruq

gaplarning kesimi aniqlik nisbati, ikkinchi shaxs, buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Masalan: *Chekmang!*

Ba'zan majhul nisbat, uchinchi shaxs, buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanishi ham mumkin. Masalan: *Ishga qabul qilinsin.*

Juda muhim. Ayrim hollarda uchinchi shaxs buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalangan gapning kesimi II shaxs ma'nosida qo'llaniladi. Masalan, *Chekmang o'rnida Chekilmasin. Uyga kiring o'miga Uyga*

kirilsin. Bunday vaqtda iltifot, mulozamat bildirish, kesatiq kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Buyruq gapning kesimi odatda gap oxirida keladi. Ba'zan buyruqni kuchaytirish, do'q-po'pisa ma'nosi ifodalanganda kesim gap boshida keladi. Masalan, *Qo'lingizni oling o'rninga Oling qo'lingizni.*

Istak, so'roq gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari

Nutq jarayonida boshqalarga o'zingizning istak-xohishingizni bayon qilgingiz kelsa, ana shu maqsadingizga muvofiq kesimi shart-istak maylidagi fe'l bilan ifodalangan gap shaklini tanlaysiz. Masalan, *Toshkentga borsam, Mustaqillik maydonini ko'rsam.*

Eslab qoling. *Kesimi shart-istak maylidagi fe'llar bilan ifodalangan gaplar istak gaplar deyiladi. Yozuvda istak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi.*

O'zingizga noma'lum bo'lgan voqea-hodisa haqida axborot olish uchun tarkibida so'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari yoki so'roq ohangi bo'lgan gap shaklini (qolipini) tanlaysiz. Masalan, uyingizga kimdir keldi, lekin bu shaxsning kimligini bilmaysiz. Ana shu shaxs haqida aniq ma'lumot olish uchun *kim keldi?* deb so'raysiz va so'rog'ingizga kelgan shaxs haqida aniq ma'lumot olasiz.

So'rash maqsadida foydalanadigan gapingiz tarkibida, albatta, so'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari yoki so'roq ohangi mavjud bo'ladi.

Eslab qoling. *So'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari yoki so'roq ohangi yordamida ifodalanib, so'zlovchiga noma'lum bo'lgan voqea-hodisa haqida axborot olish maqsadida qo'llaniluvchi gaplarga so'roq gaplar deyiladi.*

So'roq olmoshlari yordamida ifodalangan so'roq gaplar bilan so'roq yuklamalari va so'roq ohangi yordamida ifodalangan so'roq gaplar qanday javob talab qilish bilan farq qiladi. So'roq olmoshlari ma'nosiga muvofiq aniq javobni talab etadi. Masalan:

— *Guruhingizda kim yaxshi o'qiydi?*

— *Fotima.*

So'roq yuklamasi va so'roq olmoshlari ishtirok etgan so'roq gaplar esa *ha* yoki *yo'q* javobini talab etadi. *Ha* va *yo'q* so'zlarini javob tarzda qo'llab, so'ngra unga izoh beriladi. Masalan:

— *Sen akademik litseyda o'qiysanmi?*

— *Ha, men akademik litseyning bitiruvchi o'quvchisiman.*

Yoki: — Bu litseymi?

— *Ha, bu litsey.*

So'roq gaplar oxiriga doimo so'roq belgisi qo'yiladi.

Ba'zan darak ma'nosini ifodalash uchun so'zlovchi darak shaklidan (qolipidan) emas, balki so'roq gap shaklidan (qolipidan) foydalanadi. Masalan, *Buni kim bilmaydi?*

Juda muhim. *Bunday so'roq gaplar javob talab qilmaydi. Javobi shu gapning o'zida bo'ladi. So'roq gap kesimi bo'lishsiz fe'llar bilan ifodalangan bo'lsa, tasdiq darak gap ma'nosini; aksincha, bo'lishli fe'llar bilan ifodalangan bo'lsa, inkor gap ma'nosini bildiradi.*

Masalan, *Bu daraxtni kesishga kim jur'at qiladi?* («Bu daraxtni kesishga hech kim jur'at qilolmaydi» ma'nosini bildiradi).

So'roq gap orqali ifodalangan darak ma'nosi darak gap orqali ifodalangan darak ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.

Shuningdek, so'roq gap shakli orqali buyruq ma'nosi ham ifodalanishi mumkin. Masalan,

— *Yurmaysizmi?* («yuring» ma'nosida)

So'roq gap orqali ifodalangan buyruq ma'nosi buyruq gap orqali ifodalangan buyruq ma'nosidan kuchliroq bo'ladi. Darak ma'nosini ifodalagan so'roq gaplarga so'roq-darak gaplar, buyruq ma'nosini bildirgan so'roq gaplarga esa so'roq-buyruq gaplar deyiladi.

Mashqlar

I. Gaplarni maqsadga ko'ra turlarini aniqlang. Mashqnnig bajarilishida undov gaplaming darak, so'roq, buyruq gaplarga o'xshab ketishini, gapning maqsadga ko'ra turlari oxiriga undov (!) belgisi qo'yilishini ham unutmang.

1. Unday bo'lsa, rahmat! 2. Ey, o'zingni, holatingni bilmagan, Asrorqul (A.Qahhor). 3. Hammasi mehnatkashning kuchidan. Bo'lmasa, xudo osmondan tashlarmidi? 4.. Gap shu, birodarlar, dushmanga, jabrga qarshi kurashga tayyorlanish kerak! (Oybek). 5. Onangni qo'lingda tutsang, singlingni boshingda tut! (A.Qahhor). 6. Keling, o'g'lim. Bemahalga qolibsiz? (A.Qahhor). 7. G'azaldan bu lcabi zavq olmagan kim? (Uyg'un). 8, Sabr qil, qo'zichogim, sanoqli kunlar qoldi! (Oybek). 9. Qani oldimga tushmay ko'r-chi! (N.Safarov). 10. Musobaqada ko'z bo'yash bilanyutgan ekansiz-da, Zumradxon. (A.Qahhor). 11. Bugun qayerga borasan? 12. Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, yaxshitik qil, bolam, yomonlikni ot (F.Y.). 13. Naqadar balanddir bu yerda

cho'qqi! (H.G.). 14. Seni unutilmas yuragim aslo, ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo! 15. Mayin shamol sekin qo'zg'aldi. 16. Bu daryonii yaratgan kim? Uni buncha ajoyib etgan qaysi dono, qandayin hokirii?(H.O.). Chumchuq-parranda.

1. Darak gaptar... 2. So'roq gaplar...

3. Buyruq gaplar...

II. Avval gaplar ma'nosini aniqlang, so'ngra bir ma'nolilarini birinchi guruhga, ikki ma'nolilarini ikkinchi guruhga ajratib yozing.

Namuna: 1. Dars boshlanguncha yetib borarmikanmiz? (so'roq, gumon). 2. Laylak keldi, yoz bo'ldi. 3. Men farzandimni baxtli bo'lishini xohlayman. 4. Soat yetti bo'lib qoldi. 5. Haqiqat hech qachon egilmaydi. 6. Sizni boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lishingizni istayman. 7. O'qituvchi emasmisiz, qizim! 8. Shu gaplar rostmi? 9. Nega yig'laysan? 10. Agar makatillo Farg'onannig yonida bo'lsa, odffmlar bonhasmidi? 11. O't o'chiruvchilar qildan qiyiq axtaraishmasmikini? 12. Men bo'ri bo'ldimmi? 13. Pichoqni shu Holmat uradimi? 14. Ortiqcha gapirma. Bilim cho'qqilarini egalla. 15. Alisher, eski ginalarni unuting, yana o'z joyingizni egallang. 16. U ertaga kelar emish. 17. Shunday issiq kundayam yomg'ir yog'adimi? 18. Tezroq bormaysanmi? 19. Yaqinlashma, yanchib tashlayman. 20. Onajon, nima bo'ldi? - dedi ikkalasi baravar.

1. Bir ma'noli gaplar:

2. Ikki ma'noli gaplar:

III. Ko'chiring. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini aniqlang, farqini ayting.

1. Birov yon bag'irdan gul terгани, birov buloq suvidan ichgani tarqab ketdi. (S.Ahm.) 2. Olamni quyosh, insonni ilm yoritadi. Bilmaslik ayb emas, o'qimaslik – ayb. (Sh.) 3. Kombinatga borganmisan o'zing? Qirq ming odam ishlaydi. (S.Ahm.) 4. Dunyoda el va yorga xiyonat qilishdan, zolimga do'st bo'lishdan ham ko'ra og'irroq, razilroq, mudhishroq jinoyat bormi? (S.Ahm.) 5. Bu – bizning chinakam balog'at yoshimizning birinchi kuni! Qanday tantanali jimlik! O'sib yotgan o't-o'lanlar go'yo qizil alanga berib yonayotganday, oyoq ostida tutab yotganday tuyuladi. Biz faqat dashtdagina bayram nashidasini sezdik. (K.Abukov.)

IV. Matndagi gaplarni aniqlab, tegishli tinish belgilarini qo'yib ko'chiring. Gapning so'z va so'z birikmasidan farqini tushuntiring.

Hamid Olimjonga aqalli Pushkin yoshiga yetish ham nasib bo'lmadi u bor-yo'g'i salkam 35 yil yashadi va shundan yigirma yili davomida muttasil ishladi va yozdi adabiyot haqida uning nomisiz, ilhomisiz yozilgan birorta maqolani topib bering-chi uning nomi tilga olinmagan birorta she'riy anjuman yoki mushoirani eslaysizmi shu yillar ichida, ya'ni adabiyotimizga ikki-uch yangi avlod kirib kelgan davr davomida va hozir, shu kunlarda ham, Hamid Olimjonni, Hamza va Abdulla Qodiriy, Oybek va G'afur G'ulom qatorida, o'ziga ustoz deb bilmagan birorta ijodchi bormi. (H.G'ulom.)

Topshiriqli diktant. Yozgan diktant matningizdan gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini aniqlang.

GO'ZALLIK TALQINLARI

Insonning aziz-u mukarram qilib yaratilgani ayon haqiqat va uning murakkab, tushunarsiz mavjudod ekanligi ham sir emas. Shu sababli bani bashar o'z hayotida ko'p qoqinadi, aksar yaxshilig-u yomonliklar ichida surinadi. Mirzakalon Ismoilij bu nozik masalalar tegrasida nazokat va tabiiylik bilan qalam tebratadi. Binobarin, inson Olloh tomonidan yaratilgan jamiki suvrat-u siyratlarning mukammali ekan, u shunga monand ravishda fe'l - atvorga, go'zallikka ega bo'lmog'i lozim, lekin go'zallik deganda nimani tushunamiz? Shahlo ko'zlar, tiniq chehra-yu la'li lablar mutanosibligimi? Yoki chiroyli kiyim - bosh, qimmatbaho taqinchog'-u bezaklamimi? Menimcha, go'zallikning o'z qonunlari, qoliplari bor. Yuqorida sanalgan narsalar bilan "chiroyli odam" bo'lish mumkin, lekin "go'zal inson" bo'lish uchun esa uni odamiylik fazilatlarini to'ldirishi kerak. "Go'zallik ham bamisoli daraxt. Yaprog'i — axloq, ildizi — ichki dunyo, mevasi — yaxshi fazilat. Xulosa qilib aytganda, odam bolasidagi go'zallik tabiat ato qilgan husn - jamoldan tashqari, yana eng yaxshi fazilatlarni o'z ichiga olgan odamiylikdan iboratdir. Mana shunda go'zallik insonga husn beradi. Bu xil go'zallik yaproqlarsiz, ildizlarsiz qurishi muqarrar bo'lgan daraxtga sira - sira o'xshamaydi, qurimaydigan, o'lmaydigan, boqiy go'zallikdir", - deydi M. Ismoilij.

Mavzularga oid test savollari

1. Keltirilgan gapda qanday tinish belgilari ishlatilishi lozim?
Umrimda bormagan joyimga qanaqa qilib boraman // Mening borishimdan nima foyda //

A) so'roq, nuqta B) so'roq, so'roq va undov C) so'roq, undov D) ikki nuqta, undov

2. Keltirilgan qaysi gapda tinish belgisi noto'g'ri qo'llangan?

A) Dadam ishdan kech keldi, oyim betob yotibdi, degin! B) Sergey otdan sakrab tushib, cholga qo'l uzatdi. C) Kap-katta bo'lib shunga ham vaj topolmaysizmi? D) Darig' tutmay nigorim, bo'lsa imkon bir kelib ketsin.

3. Gapga mos keluvchi ta'rifni ko'rsating.

A) Gap bir voqea-hodisa haqidagi xabarni, so'roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. B) Gap kesim va ega yoki faqat kesim bo'laklariga aloqador grammatik asosga ega. C) Gap tushuncha ifodalaydi. D) A va B

4. Yozma nutqda ohangga qarab har bir gap oxirida...

A) nuqta qo'yiladi B) so'roq belgisi qo'yiladi C) undov belgisi qo'yiladi D) nuqta, so'roq yoki undov belgisi qo'yiladi

5. Oq paxtalar ochildi. Ushbu gap tarkibidagi oq va paxtalar so'zlari o'zaro qaysi vosita orqali bog'langan?

A) ohang B) ko'plik qo'shimchasi C) so'z tartibi D) kelishik qo'shimchasi

6. Ifoda maqsadiga ko'ra gaplar qanday turlarga bo'linadi?

A) darak, so'roq, buyruq gaplar B) so'roq, buyruq, istak gaplar C) darak, so'roq, buyruq, istak gaplar D) darak, so'roq, buyruq-istak gaplar

7. Darak, so'roq, buyruq va istak gaplar odatda qanday shaklda bo'ladi?

A) egali va egasiz gap shaklida B) egali va egasiz, yig'iq va yoyiq, sodda va qo'shma gap shaklida C) sodda va qo'shma gap shaklida D) egali va egasiz, yig'iq va yoyiq gap shaklida

8. Istak gap berilgan qatorni toping.

A) Xo'sh, sen o'tkazadigan tajriba nimani isbot qilishi kerak? B) Akalari ham, Oyqizning o'zi ham shu uyda o'sgan. C) Qani, hamma xotin ham sizday bo'lsa... D) Mana senga qog'oz bilan qalam, shunga sen bitta e'lon yozasan.

9. Istak ma'nosi ifodalangan gapni belgilang.

A) Bu gapni eshitib Bahromning ko'zi charaqlab ochilib ketdi.

B) Qani endi, hamma ham shunday g'alabalarga erishsa.

C) Qo'lingni ochiq tut, boshingni g'oz tut.

D) Sinamagan otning sirtidan o'tma.

10. Buyruq-istak ma'nosi kuchaytirilgan gap qaysi qatorda berilgan?

- A) Dasta-dasta gullar keltirsin, sho'x va quvnoq do'stlarga buyur.
- B) Uyiga javob beraylik, o'n besh-yigirma kunga borib kelsin.
- C) Sen ham sezgandirsan, tezroq gapirgin.
- D) Kun bo'yi g'aflat bosib uxlama, sergak bo'l.

11. Qaysi qatordagi gapda shart mayli shakli boshqa bir harakat va holatning bajarilish yoki bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat va holatni ifodalagan?

- A) Odam qahrlansa, bilimsiz boladi, jahl kelsa, aql ketadi.
- B) Qani endi, hamma ham shunday g'alabalarga erishsa.
- C) Yozning issiq kunlari g'animat ekanligini esdan chiqarmanglar.
- D) Koshki edi, o'sha toqqa men ham borsam.

12. Shart mayli orzu-istak ma'nosini ifodalagan gapni belgilang.

- A) Tilak bilan yurilsa, yiroq ham yaqin bo'ladi.
- B) Ko'z yoshi to'kib ariq qazsang, kulib-kulib suv ichasan.
- C) Yomg'ir tezroq tinsa edi, suvoqni yakunlar edik.
- D) Oz yesang, ko'p yashaysan.

1. Keltirilgan gapda qanday tinish belgilari ishlatilishi lozim?
Umrimda bormagan joyimga qanaqa qilib boraman // Mening borishimdan nima foyda //

A) so'roq, nuqta B) so'roq, so'roq va undov C) so'roq, undov D) ikki nuqta, undov

2. Keltirilgan qaysi gapda tinish belgisi noto'g'ri qo'llangan?

A) Dadam ishdan kech keldi, oyim betob yotibdi, degin! B) Sergey otdan sakrab tushib, cholga qo'l uzatdi. C) Kap-katta bo'lib shunga ham vaj topolmaysizmi? D) Darig' tutmay nigorim, bo'lsa imkon bir kelib ketsin.

3. Gapga mos keluvchi ta'rifni ko'rsating.

A) Gap bir voqea-hodisa haqidagi xabarni, so'roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. B) Gap kesim va ega yoki faqat kesim bo'laklariga aloqador grammatik asosga ega. C) Gap tushuncha ifodalaydi. D) A va B

4. Yozma nutqda ohangga qarab har bir gap oxirida...

A) nuqta qo'yiladi B) so'roq belgisi qo'yiladi C) undov belgisi qo'yiladi D) nuqta, so'roq yoki undov belgisi qo'yiladi

5. Oq paxtalar ochildi. Ushbu gap tarkibidagi oq va paxtalar so'zlari o'zaro qaysi vosita orqali bog'langan?

A) ohang B) ko'plik qo'shimchasi C) so'z tartibi D) kelishik qo'shimchasi

6. Ifoda maqsadiga ko'ra gaplar qanday turlarga bo'linadi?

A) darak, so'roq, buyruq gaplar B) so'roq, buyruq, istak gaplar C) darak, so'roq, buyruq, istak gaplar D) darak, so'roq, buyruq-istak gaplar

7. Darak, so'roq, buyruq va istak gaplar odatda qanday shaklda bo'ladi?

A) egali va egasiz gap shaklida B) egali va egasiz, yig'iq va yoyiq, sodda va qo'shma gap shaklida C) sodda va qo'shma gap shaklida D) egali va egasiz, yig'iq va yoyiq gap shaklida

8. Istak gap berilgan qatorni toping.

A) Xo'sh, sen o'tkazadigan tajriba nimani isbot qilishi kerak? B) Akalari ham, Oyqizning o'zi ham shu uyda o'sgan. C) Qani, hamma xotin ham sizday bo'lsa... D) Mana senga qog'oz bilan qalam, shunga sen bitta e'lon yozasan.

9. Istak ma'nosi ifodalangan gapni belgilang.

A) Bu gapni eshitib Bahromning ko'zi charaqlab ochilib ketdi.

B) Qani endi, hamma ham shunday g'alabalarga erishsa.

C) Qo'lingni ochiq tut, boshingni g'oz tut.

D) Sinamagan otning sirtidan o'tma.

10. Buyruq-istak ma'nosi kuchaytirilgan gap qaysi qatorda berilgan?

A) Dasta-dasta gullar keltirsin, sho'x va quvnoq do'stlarga buyur.

B) Uyiga javob beraylik, o'n besh-yigirma kunga borib kelsin.

C) Sen ham sezgandirsan, tezroq gapirgin.

D) Kun bo'yi g'aflat bosib uxlama, sergak bo'l.

11. Qaysi qatordagi gapda shart mayli shakli boshqa bir harakat va holatning bajarilish yoki bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat va holatni ifodalagan?

A) Odam qahrlansa, bilimsiz boladi, jahl kelsa, aql ketadi.

B) Qani endi, hamma ham shunday g'alabalarga erishsa.

C) Yozning issiq kunlari g'animat ekanligini esdan chiqarmanglar.

D) Koshki edi, o'sha toqqa men ham borsam.

12. Shart mayli orzu-istak ma'nosini ifodalagan gapni belgilang.

A) Tilak bilan yurilsa, yiroq ham yaqin bo'ladi.

B) Ko'z yoshi to'kib ariq qazsang, kulib-kulib suv ichasan.

C) Yomg'ir tezroq tinsa edi, suvoqni yakunlar edik.

D) Oz yesang, ko'p yashaysan.

14-MAVZU. RITORIK SO'ROQ GAPLAR USLUBIYATI. GAPLARNING HIS-HAYAJON ISHTIROKIGA KO'RA TURLARI

Matn tahlili

"Shukronalik" (Hamrobonu) hikoyasi bo'yicha Blum
taksonomiyasini qo'llash namunasi

Taksonomiya bosqichlari	Savol va topshiriq namunalari
BILIM	Matn nomini izohlang. Muallifi kim? Mazmunini bayon eting.
TUSHUNISH	Matnning tili nega aynan shunday? His-hayajon va his-hayajonsiz gaplarni farqlang.
QO'LLASH	Asar voqealarini o'zingizga nisbat berib ko'ring. Matndagi voqealar o'tgan zamonda qanday kechgan bo'lar edi? O'zingiz bilan suhbatlashib ko'ring.
TAHLIL (analiz)	Matnda nima uchun his-hayajon gaplar ishtirok etgan.
UMUMLASHTIRISH (sintez)	Matn syujetiga o'zgartirish kiriting. O'zingiz gapning ifoda maqsadiga, his-hayajon ishtirokiga ko'ra qaysi turlarini qo'llagan bo'lar edingiz.
BAHOLASH	Matnni baholang. Matn ijodkorini oqlang yoki qoralang. Matnning hayotiy yoki hayotiy emasligini isbotlang. Uning tiliga baho bering.

SHUKRONALIK

Tong... Oppoq, nafis va beg'ubor tong yorishib kelayotir! Quyosh o'zining zarrin nurlari ila hayot davomiyligini aks etayotgandek ko'rinadi. Ko'zlarimni quyosh jilvalariga qadayman. Quloqlarim esa beixtiyor tabiatni, tong musiqasini tinglashga shay. Ko'hna bu ochunning jamoliga boqib to'ymayman! Atrofga yoqimli bo'y taratayotgan turfa gullarda go'zallik mujassam.

Darvoqe, bulbulni tonggacha bedor kuylashga majbur etgan mana shu go'zallik emasmi?! Gullar — yurakning surati. U qalblarni yashnatadi.

Onaginam tabiat! Bunchalar go'zalsan! Sening osudaligingni, musaffo osmoningni, tongingni, uning ezgu nurlarini sevaman. Kichkintoy ukajonim biyron tili bilan bildiraydi.

— Opajon, meni bog'ga olib boying, gullay yonida yasimga tushamiz-a?

Ha, shu murg'akkina go'dakka ham ezgulikni sevishni sen hadya etgansan, borlig'im!

Men qo'linga shukronalik ila qalam ushladim. Zero, osudaliging boqiy bo'lsin! Bog'larda, chamanlarda bolajonlar kulgusi yangramoqda. Munisa, pari buvijonlar ularning bo'ylaridan o'rgilmoqdalar. Shularning umri uchun sen doim keraksan, Ona zaminim!

(Hamrobonu)

"Aqliy hujum" savol va topshiriqlari

1. His-hayajon gaplar his-hayajonsiz gaplardan qanday belgilari bilan farq qiladi?

2. Berilgan maqolning ma'nosini izohlang, uni undov gaplarga aylantiring.

Har gapga kulma,

Ota so'zin bo'lma.

3. O'zingiz xohlagan she'rga misol keltiring. Matndagi gaplarni his-hayajon gapga aylantirib ko'ring.

4. Qanday gaplarni his-hayajon gapga aylantirish mumkin.

5. Gaplar his-hayajon gapga aylantirilganda gap tarkibida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Mustaqilligimiz abadiy yashasin! (Ko'tarinki ohang bilan).
Mustaqilligimiz abadiy yashasin. (Tinch ohang bilan).

Ma'lum voqea-hodisani hech qanday ehtirossiz oddiy bayon qilish bilan birga, ba'zan ehtiros, hayajon qo'shilgan holda ifoda qilinadi. Yuqorida keltirilgan birinchi gap oddiy sodda gap bo'lsa, ikkinchi sodda gap his-hayajon qo'shilgan gapdir.

His-hayajonning qatnashish yoki qatnashmasligiga ko'ra gaplar ikki guruhga bo'linadi: 1) his-hayajonsiz gaplar. Bularga odatdagi darak, buyruq, so'roq, istak gaplar kiradi; 2) his-hayajon gaplar (undov gaplar).

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra yuqoridagi to'rt xil turiga nutq jarayonida so'zlovchining his-hayajoni qo'shilish bilan bu gaplarni his-hayajon gapga aylantiradi. His-hayajon gaplar undov gaplar atamasi bilan yuritiladi.

His-hayajonsiz gaplar

1. *Poyezd keldi.*

2. *Uyingiz nurga to'lsin.*

3. *Dalaga chiqmaysizmi?*

4. *Vatanim bog'larga burkansa.*

His-hayajonli (undov) gaplar

Keldi poyezd!

Nurga to'lsin uyingiz!

Chiqmaysizmi dalaga?!

Eh, bog'larga burkansa

Vatanim!

1-topshiriq. Chap qatordagi gaplarni o'ng qatordagi gaplarga solishtiring. Ularning o'zaro farqini ayting.

Eslab qoling. *His-hayajon bilan aytilgan gaplar undov gap deyiladi.*

Juda muhim. His-hayajon (undov) gaplarda kesim ko'pincha gapning oldida keladi, tarkibida ko'pincha *eh, oh, singari undov so'zlari ishtirok etadi va kuchli hayajon bilan talaffuz qilinadi. Shuning uchun yozuvda undov gapdan so'ng undov belgisi qo'yiladi.*

Agar his-hayajon so'roq gapga qo'shib, uni undov gapga aylantirsa, avval so'roq belgisi, undan so'ng undov belgisi qo'yiladi. Masalan, *Qo'shiqdan kim bahra olmaydi?!*

Mashqlar

I. Quyida berilgan she'riy parcha asosida his-hayajon gaplarni qatnashtirib matn tuzing.

Uch balodin saqlasin:

Charxi balokash bo'lmasin,

Do'st mehrsiz, dardsiz ulfat,

Yor jafogar bo'lmasin. (E. Vohidov)

II. Matnni his-hayajon gaplarga aylantirib ko'chiring. Donishmand nima uchun pok qalb dunyodagi eng yaxshi narsa deganini tushuntirib bering.

Bir donishmand shogirdlaridan:

— Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima? — deb so'radi.

Shogirdlaridan biri — komil ayol, dedi. Ikkinchisi, yaxshi o'rtoq, dedi. Yana bir shogirdi, chora-tadbir, deb javob ayladi. Donishmand ularning fikrlarini qabul qilmadi. Nihoyat, bir shogird:

— Inson uchun yaxshi narsa — pok qalb, — dedi.

Donishmand bu so'zni ma'qullab, xulosa qildi:

— Barakalla, to'g'ri aytding, bu bo'lsa, avvalgilarning hammasi ham bo'ladi, pok qalb inson uchun eng yaxshi narsa!

Mavzuga oid test savollari

1. Gaplar his-hayajonning ishtirokiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

A) his – hayajonsiz, his-hayajon (undov) gaplar

B) his-hayajonsiz, so'z gaplar

C) his-hayajon, atov gaplar

D) his-hayajonsiz, istak gaplar

2. His-hayajon gaplar yana qanday nom bilan ataladi?

- A) undov gaplar
- B) istak gaplar
- C) buyruq gaplar
- D) his-hayajonsiz gaplar

3. Undov gap...

- A) tarkibida undalma mavjud bo'lgan gap
- B) fikrni his-hayajon bilan ifodalaydigan, kuchli ohang bilan aytiladigan gap
- C) turli hissiyotlarni ifodalovchi gap
- D) B, C

4. Undov gap qanday hissiyotni ifodalaydi?

- A) shodlik, quvonch, suyunish
- B) qo'rquv, tantana, taajjub
- C) qayg'u, afsuslanish
- D) barcha javoblar to'g'ri

5. Undov gap so'roq gapdan hosil bo'lgan bo'lsa, gap oxirida qanday tinish belgisi ishlatiladi?

- A) oldin so'roq, keyin undov belgisi qo'yiladi
- B) oldin undov, keyin so'roq belgisi qo'yiladi
- C) faqat bittasi qo'yiladi.
- D) faqat so'roq belgisi qo'yiladi

6. Qaysi qatorda buyruq ma'nosi ifoda etilgan undov gap berilgan.

- B) Ko'p andisha qilmang, yuring!
- C) Ko'zlarini yumib, o'ylanib turishi biram chiroyli, biram chiroyli!
- D) Qayda bo'lsang, omon bo'!

A) Qani endi, shu kunlar qaytib kelsa.

7. O'n yil // O'n yildan beri kasal ekanmi //


Ushbu gapdagi // belgilari o'rnida qanday tinish belgisi ishlatiladi?

- A) vergul, so'roq B) undov, so'roq va undov C) so'roq, so'roq D) vergul, so'roq va undov

15-MAVZU. SODDA GAPLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI. SODDA YIG'IQ VA YOYIQ GAPLAR

Gap - fikr, axborot uzatish uchun ishlatiladigan asosiy birlik bo'lib, fikr ifodalashning eng oddiy va tipik ko'rinishidir. Gap so'zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi sanaladi.

Kishi ongida fikr tushunchalar asosida tiklanadi. Bu fikr nutqda gap sifatida yuzaga chiqadi. Fikr tushunchalardan tashkil topganligi kabi, gap ham tushunchalarning formasi sanalgan so'z va so'z birikmalardan tuziladi. Gap sintaktik yaxlitlik bo'lib, bu uning grammatik shakllanganligi, tarkibiy uzvlari bir butunlik holiga kelganligi bilan izohlanadi.



"Gapni lisoniy sathda o'rganish" mavzusini o'tish jarayonida foydalaniladi. Lisoniy sathda nutqiy gaplarning eng umumiy va boshqa lisoniy birliklardan farqli jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan lisoniy sintaktik qoliplar o'rin oladi. Bu lisoniy sintaktik qolip umumiy zotiy mohiyat hisoblanib, lisoniy UMIS tabiatiga ega va barcha nutqiy gaplarda xususiylashgan holda namoyon bo'ladi. Sistem yondashuvda muayyan gaplar nutq hodisasi sanalib, ularning umumiyligi LSQdir. Gap LSQsini tiklash (aniqlash) ikki bosqichda amalga oshiriladi:


1) nosintaktik hodisalarni chetlashtirish; 2) farqlarni soqit qilish - aynanliklarni ajratish.

2-jadvaldan "Sodda gaplar va ularning LSQlari" mavzusini o'tish jarayonida foydalaniladi.

So'z kengaytiruvchilari va gap kengaytiruvchilari

E	H	[W]	[Pm]
Men		ol ↑	a -man
	ertaga	kitobni ↑	
		o'qilgan	
		tez	
		Jahogirdan	

"So'z kengaytiruvchilari va gap kengaytiruvchilari" mavzusini o'tish jarayonida foydalaniladi. So'z kengaytiruvchilari gapning qurilishiga bevosita aloqador hodisa bo'lmay, ma'lum bir so'zning ma'nosini muayyanlashtirish, uni ochib berishga aloqador bo'lgan hodisadir. So'z kengaytiruvchisi mustaqil, alohida bir gap bo'lagi - gap qurilishining zaruriy tarkibiy qismi emas. U gapning ma'lum bir bo'lagiga ergashib, tobelanib keladi, gap markazi - kesim tarkibidagi kesimlik qo'shimchalari bilan bog'lanmaydi. Gap kengaytiruvchisi sifatida ega gapning kesimlik qo'shimchalari tarkibidagi shaxs-son, hol esa zamon, modallik, tasdiq-inkor shakllari bilan bog'lanadi. Gap kengaytiruvchilari faqat kesimga tobelanadi va uning boshqa bir so'zga tobelanishi kuzatilmaydi.



4-jadvaldan " Kesimlik kategoriyasining nutqiy gaplarda voqelanishi" mavzusini o'tish jarayonida foydalaniladi. Grammatik shakllangan gaplarda kesimlik kategoriyasi ma'nosi kesimlik qo'shimchalarining faqat o'zi bilan yoki bog'lama va kesimlik qo'shimchalari vositasida ifodalanishi mumkin. Semantik-funksional shakllangan gaplarda kesimlik ma'nosi so'z-gaplarning lug'aviy ma'nosi bilan bir butunlikni tashkil etganligi sababli, kesimlik kategoriyasi uchun xos bo'lgan tasdiq-inkor, modallik, mayl, zamon, shaxs-son (TMZSH) ma'nolarining rang-barangligi yo'q.

Izoh

E — ega.

H — hol.

W — kesim.

Pm — kesimlik belgilari.

LSQ — lisoniy sintaktik qolip.

UMLS — umumiy mazmuniy lisoniy sath

TMZSh — tasdiq-inkor, modallik, mayl, zamon, shaxs-son.

Yo — yoyiq gap.

Yig' — yig'iq gap.

Mashqlar

I. Gaplarning tuzilishi jihatidan turini ayting, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. O'rtoqlar, biz farzandlarimizning tarbiyasiga qancha e'tibor bersak, ular shuncha odobli, aqlli va mohir bo'lib chiqadi. (A.Mirahmedov.)
2. Bizda har kim o'z taqdirini o'zi hal qilishi kerak, birovga qaram bo'lish, kimgadir bo'ysunish degan eskilik sarqitlari allaqachon barham yegan. (J.Abd.)
3. Uning betinim harakat qilayotgan epchil qo'llariga qaray-qaray Sattorovning ko'zlari tinib ketdi. (S.Nazar.)
4. Sen institutga tayyorgarlik ko'rasan, men esa dugonalarim bilan ishga chiqaman. (K.Abukov.)
5. U biram chiroyli kularkanki, beg'ubor qalbi, samimiyligi xudi shu kulgisida aks etib turgandek edi. (S.Ahm.)
6. Dengiz dovuli bilan mashhur, sahro — bo'roni bilan! (J.Abd.)
7. Haqiqiy turmush halol mehnatda ekan. (M.Salom.)

II. O'qing. Sodda gaplarni topib, tarkibiga ko'ra turini ayting. Ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplardan ikkitadan ko'chirib, farqini tushuntiring.

1. Vatan o'g'limizni o'z xizmatiga loyiq topibdi. Borsin. Hunar o'rganadi, mehnatda pishadi, tengdoshlari oldida yuzi yorug' bo'ladi. (H.G'.) 2. Kelmaydi. Mottsiklini patillatib Suluvingizning oldiga ketdi. (S.Ahm.) 3. Men o'g'limning Vatan oldidagi burchi yozilgan bir enlik qog'ozni qayta-qayta o'qib, eshik oldida bir necha daqiqa turib qoldim. (H.G'.) 4. Astrobodga kelingan dastlabki kunlarda to'da-to'da mehmonlarni qabul qilishga, ularning tahsinlarini tinglashga va o'z navbatida ularga maslahatlar berib, nashatlar qilishga to'g'ri keldi. (L.Bat.) 5. Birinchi bo'lib motorga o't berish bilan boshqalarni ham jadal ishga chorlaydi. (J.Abd.) 6. Daraxtzor hovlidagi skameykalardan birida Malika uch-to'rt xotin bilan suhbatlashib o'tirardi. (H.G'.) 7. Malikaning so'zlarini zaldagilar qarsaklar bilan kutib olishdi. (H.G'.)

Mavzuga oid test savollari

1. Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi. Ushbu gap qaysi qatorda so'zlarning bog'lanishiga ko'ra to'g'ri tahlil qilingan?

1) inson baxtli bo'ladi — tobe bog'lanish, moslashuv, kesim va eganing shaxs-sonda mosligi (III shaxs, birlik); 2) Uyushiq bo'lagi bor: ilm bilan, mehnat bilan; 3) Ifoda maqsadiga ko'ra — darak gap; 4) ilm bilan va mehnat bilan — teng bog'lanish, va teng bog'lovchisi orqali bog'langan; 5) Tuzilishiga ko'ra — sodda gap, yoyiq sodda gap, to'liq gap, egali gap

A) 2, 4, 5 B) 3, 5 C) 1, 4 D) 1, 2, 3, 4, 5

2. Sodda gap tahlilining qaysi turida gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmagan "bo'laklar" (kiritma, kiritma gap, undalmalarning mavjud yoki mavjud emasligi) e'tirof etiladi?

A) gapda so'zlarning bog'lanishi bo'yicha tahlilda B) gap bo'laklarini aniqlash bo'yicha tahlilda C) gap qurilishi bo'yicha tahlilda D) A, B, C

3. Ega qatnashmagan, shu bilan birga, uchinchi shaxs shakldagi fe'l kesim bajaruvchi shaxsni aniq ifodalamaydigan gap qanday gap?

A) shaxsi noma'lum gap B) shaxssiz gap C) shaxsi umumlash gap D) shaxsi topilmas gap

4. Aniqlanmish haqida aytilgan qaysi fikr to'g'ri?

A) narsa-buyumni ifodalaydigan so'zga tobelanib, uning belgisini anglatadigan bo'lak B) gapda o'zidan oldingi aniqlovchining ma'nosini izohlab, alohida ohang va to'xtam bilan bilan aytiladigan bo'lak C)

aniqlovchi tobe bo'lgan hokim bo'lak D) so'z birikmasining hokim qismi

5. Faqat kesim tarkibidan iborat bo'lib, bajaruvchi shaxs ma'nosi umuman ifodalanmaydigan gap qanday nomlanadi?

A) shaxsi umumlashgan gap B) shaxssiz gap C) shaxsi ma'lum gap D) shaxsi noma'lum gap

6. Sintaktik birlikka qaysi qatorda to'g'ri izoh berilgan?

A) sintaksisning o'rganish manbai bo'lgan birlik, ya'ni so'z birikmasi va gap B) bir-biridan vazifasi, ifoda material, tuzilishi va tizimdagi o'rni bilan farqlanadigan til hodisasi C) so'z birikmasi va gap qismlarining o'zaro bog'lanish D) sintaksisning o'rganish manbai bo'lgan birlik, ya'ni so'z, so'z birikmasi va gap

7. Bir so'z yoki ibora bilan ifodalangan gap...

A) sodda gap B) so'z-gap C) to'liqsiz gap D) atov gap

8. Sodda gaplar ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etganligi yoki etmaganligiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

A) sodda yig'iq, sodda yoyiq gaplar

B) egasi mavjud va egasiz gaplarga

C) sodda va qo'shma gaplarga

D) A, B

9. Keltirilgan gaplar ichidan sodda yoyiq gapni toping.

A) Anvar qaytib keldi.

B) Kamola darvozadan shoshilib kirib keldi.

C) Biz uyga qaytdik va birga dars tayyorladik.

D) Shamol turdi va hamma yoqni to'zon qopladi.

10. Qaysi qatorda egali gap berilgan?

A) Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. B) Jo'jani kuzda sanaydilar.

C) Topshiriqni o'z vaqtida bajarishi kerak. D) Yo'lda biroz to'xtashga to'g'ri kelib qoldi.

12. Keltirilgan gaplardan egasiz gapni aniqlang.

A) Shaftolizor bog'larni ko'rdim. B) Bugungi ishni ertaga qo'yma.

C) Derazadan ko'chaga tikilaman. D) Topshiriqni o'z vaqtida bajarish kerak.

13. Qaysi gap tarkibida ega qo'llangan?

A) Birovni, ayniqsa, ayolni so'kish gunohdir. B) Manzilga mana shu yo'ldan boriladi. C) Yaqin kunlarda yakuniy test topshiramiz. D) Topshiriqni o'z vaqtida va puxta bajarishdi.

14. Egasi yashiringan gap berilmagan qatorni toping.

A) Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan. B) Yaqin kunlarda yakuniy test sinovlaridan o'tamiz. C) Bu yerda o'rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak. D) Ko'p o'tmay tandir kabobni ochish marosimini boshlashdi.

15. Egasi umumlashgan gapning kesimi qaysi shaxsda bo'ladi?

A) II shaxsda B) II, III shaxsda C) I, II shaxs birlikda D) III shaxsda

16. Shaxsi ma'lum gapni toping.

A) Eshik ochiq bo'lsa ham, so'rab kir. B) Kitoblarni kutubxonaga topshirgani ketdi. C) Hayotni go'zalliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. D) Keksalikni ko'prikkatashbeh qiladilar.

17. Qaysi qatorda egasi yashiringan gap berilgan?

A) Topshiriqni o'z vaqtida bajaring. B) Ko'nglida armon qolmasin deb, chilyosin ham qildirishga to'g'ri keldi. C) Hovliga orqa eshikdan chiqiladi. D) To'garakka borish kerak.

18. Shaxsi noma'lum gap berilgan qatorni aniqlang.

A) Bahor. Kunlar iliqlashgan. B) Sog'ligingiz yaxshimi? C) Yo'lda biroz to'xtashga to'g'ri kelib qoldi. D) Uy ichida odam ko'p edi.

19. Egasiz gaplarda...

A) ega yashiringan bo'ladi B) ega umuman bo'lmaydi C) ega kesimning shaxs-son shakllaridan ma'lum bo'lib turadi D) ega umumlashgan bo'ladi

20. Qaysi qatorda egasiz gap berilgan?

A) Sayrga chiqishdi. B) Bu yerda o'rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak. C) Uning tez-tez darsga kelmay qolishi hammani taajjublantirdi. D) Bu kitobni Anvardan olgan bo'lsang kerak.

21. Shaxsi noma'lum gap qo'llangan qatorni aniqlang.

A) Qo'rqoq hamma narsadan mahrum bo'ldi. B) O'tgan narsa hamisha totli. C) Yetmish go'zallikning biri – mehnat. D) Toshdan gavharni farq qilish kerak.

22. Egasiz gaplar qanday turlarga bo'linadi?

A) shaxsi umumlashgan, shaxsi noma'lum gap B) shaxsi noma'lum gap, atov gap, so'z gap C) shaxsi topilmas, shaxsi noma'lum gap D) bir bosh bo'lakli gap, ikki bosh bo'lakli gap

23. Qaysi qatorda atov gap berilgan?

A) Rahmat. Tuzukman. B) Bo'pti, ma'qul. C) Hamon yodimdadir, gul chog'i erdi. D) Albatta, Shuhrat keladi.

24. Atov gap haqidagi qaysi fikr noto'g'ri?

A) Atov gaplar faqat birgina soʻzdan iborat boʻladi. B) Atov gaplar aniqlovchilar bilan kengayib kelishi mumkin. C) Atov gap egasiz gapning bir koʻrinishi hisoblanadi. D) Atov gaplar, asosan, aniqlik maylining hozirgi kelasi zamon shaklida boʻladi.

25. Soʻz gaplar...

A) koʻpincha bir soʻzdan iborat boʻladi B) soʻroq, inkor, tasdiq, taajjub kabi maʼnolarni ifodalaydi C) koʻproq diologik va baʼzan monologik nutqqa xos boʻladi. D) barcha javoblar toʻgʻri

26. Soʻz gap qoʻllangan qatorni toping.

A) – Mayli, – dedi Fazliddin. B) – Assalomu alaykum, hormang, ota. C) – Rahmat. Tuzukman. D) A, B, C

27. Undov soʻz bilan ifodalangan soʻz gap berilgan qatorni toping.

A) – Boʻpti. Maʼqul. B) Oh-o! Savollaringiz tugamaydi-ku. C) – Mayli, – dedi Fazliddin. D) Teshavoy, soy boʻyida kutib turmoqchimisiz? – Ha.

28. Qaysi qatorda soʻz-gap qoʻllangan?

A) - Ulardan xat keladimi? Keladi, keladi. B) – Sening bundan xabaring bormi, Ali? – Yoʻq, ustod. C) Siz qayerdan, mehmon? – Toshkentdan. D) Shu voqeadan soʻng kuyovingiz aniq kelganmi edi? – Kelgan edi, qizim.

29. Tasdiq soʻz-gaplar guruhiga mansub soʻzni toping.

A) aslo B) xoʻsh C) toʻgʻrisi D) albatta

30. qani soʻzi soʻz-gaplarining qaysi turiga mansub?

A) tasdiq soʻz-gaplar B) taklif soʻz-gaplar C) undov soʻz -gaplar D) inkor soʻz-gaplar

31. Qaysi qatorda yoyiq atov gap berilgan?

A) Yangi shahar koʻchalari. Ilk bahor shabadasi yoqimli esadi. B) Subhidam. Quyosh yotogʻidan bosh koʻtardi. C) Hovlimizda bir tup bodom boʻlardi. Erta bahorda qiygʻos gullardi-yu, hech meva tugmasdi. D) Urush ... Oynisa ayvon ustuniga suyanganicha qotib qoldi.

32. Qaysi qatordagi hukm notoʻgʻri?

A) Atov gaplar turli xildagi sodda va murakkab aniqlovchilar bilan bemalol kengayadi. B) Soʻz gaplar takrorlanib qoʻllanishi mumkin. C) Atov gap kengaygan harakat nomi birikmalari bilan ham ifodalanishi mumkin. D) Soʻz gaplar murakkab aniqlovchilar bilan kengayib kelishi mumkin.

33. Qaysi qatordagi gap sodda yigʻiq gapga misol boʻla oladi?

A) Biz cho'mildik. B) Men kitobni kecha o'qidim. C) Kelajakda kim bo'lmoqchisiz? D) Tinchlik tufayli yurt obod.

34. Gapning kesimi yoki egasiga tobelanib, ularga ergashib keladigan bo'laklar...

A) bosh bo'laklar B) aniqlovchi va izohlovchi C) ikkinchi darajali bo'laklar D) ajratilgan bo'laklar

35. Ega va kesimdan boshqa bo'laklar bilan kengaygan gap...


A) ikki bosh bo'lakli gap B) soda yoyiq gap C) murakkab gap D) bir bosh bo'lakli gap.

**16-MAVZU: QO'SHMA GAPLAR HAQIDA MA'LUMOT.
QO'SHMA GAP QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR VA
QO'SHMA GAP TURLARI**


BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM
Navoiy, Bobur asarlarini sevib o'qiyman. J. Manguberdi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda jasorati tufayli buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida Sharq-u G'arbda dong taratdi.	SODDA GAPLAR	Bitta kesimlik asosiga, mazmun va ohang tugalligiga ega bo'ladi.
Quvonarlisi shundaki, Fitratning kitobi yangi milliy musiqashunosligimizga asos soldi. Ro'paradagi g'or bag'ridan qora tutun ko'tarildi va u yerdan yo'tal tovushi eshitildi. Sabr bilan bog'liq ish ochilur, ishda oshiqqan ko'p toyilur.	QO'SHMA GAPLAR	Ikki va undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topadi va ohang tugalligiga ega bo'ladi.
Bog'lovchilar: a) teng bog'lovchilar; b) ergashtiruvchi bog'lovchilar	BOG'LOVCHI VOSITALAR	Bog'langan qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplar.
a) bo'lsa, esa, deb so'zlari; b) -u(-yu), -da, -ki yuklamalari; c) nisbiy so'zlar; d) shuning uchun, shu sababli, shu tufayli ko'makchili qurilmalari; e) -sa shart mayli qo'shimchasi	BOG'LOVCHI VAZIFASIDAGI VOSITALAR	Bog'langan qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplar.
Ohang		Bog'lovchisiz qo'shma gaplar

Qo'shma gaplarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Gap tarkibidagi bog'lovchi vositalariga ko'ra:



2. Gap tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatlarning ifodalanishga ko'ra



Qo'shma gap sintaktik birlikning eng yuqori shaklidir. Qo'shma gaplar uchun sodda gaplar qurilish materialini sanaladi. Qo'shma gaplar mustaqil sodda gaplardan emas, balki mazmun va grammatik jihatdan bir-biriga bog'liq birliklardan tashkil topadi.

Mazmuni, grammatik tuzilishi hamda intonatsiyaga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan, turli xil grammatik, leksik-grammatik va leksik vositalar yordamida birikkan tuzilmalar **qo'shma gap** deyiladi. Demak, qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar mazmun va intonatsiyasi jihatidan yaxlitlikni, bir butunlikni tashkil etadi.

Qo'shma gap muammosi o'zbek tilida XX asrning 30-yillaridan keyin ma'lum darajada o'rganila boshlandi. Qo'shma gaplar dastlab ikki asosiy turga bo'linib kelingan. V.A. Bogorodskiy¹ ham qo'shma gaplarni ergashgan va bog'langan deb ikkiga ajratish birmuncha sun'iy ekanligi, u tildagi jonli turli-tumanlik, xilma-xillikni o'zida aks ettira olmasligini aytgan. I.A. Batmanov² o'zbek tilidagi qo'shma gaplarni

¹ Богородский В. А. Общий курс русской грамматики. - М., 1935. - С. 229.

² Батманов И. А. Вильнер А. И. Узбек тили ларелиги. Нахв.-Т., 1933, 65-бет.

uchga bo'lib tekshiradi: shart ergash gap, o'zgalar gapi, bog'langan qo'shma gaplar.

A.K.Borovkov³ qo'shma gapning ikki asosiy turi mavjud ekanligini ko'rsatadi. Xuddi shu xildagi fikr A.N.Kononov⁴ ishida ham ta'kidlangan. M.Asqarova⁵ qo'shma gaplarni ikki guruhga bo'lib qrganadi. G'.A.Abdurahmonov⁶ esa qo'shma gaplarni uch turga (bog'lovchisiz qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gaplarga) bo'lib tekshiradi. N.A.Baskakov⁷ qo'shma gaplarni uch guruhga bo'lib tekshiradi: bog'langan qo'shma gaplar, (bog'lovchili, bog'lovchisiz) ergashgan qo'shma gaplar (bog'lovchili, bog'lovchisiz) va ko'chirma gaplar ergashgan qo'shma gap.

Keyingi yillarda qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning qurilish qolipiga ko'ra tasniflash tavsiya etiladi.

Qo'shma gaplarni tasniflaganda ularning tarkibidagi sintaktik aloqa va munosabatlarni ham hisorbga olish lozim bo'ladi.

Sintaktik aloqaning tenglashish aloqasi, tobelanish aloqa kabi oppozitsiyalarini hosil qiluvchi qutblari mavjud. Tenglashish aloqasining xarakteri uning birinchi bosqich paradigmasini belgilashda oppozitsiya asosi vazifasini bajaradi. Tenglashish aloqa tarkibida ikki ko'rinishni farqlash mumkin: a) yopiq qatorli tenglashish; b) ochiq qatorli tenglashish.

Yopiq qatorli tenglashishda ma'nosiga ko'ra biriktiruv, zidlov aloqasi o'z aksini topadi, vazifaga ko'ra qo'shma gap hosil qiladi.

Ochiq qatorli tenglashishda ma'nosiga ko'ra ayiruv-chegaralov, inkor aloqa o'z aksini topadi, vazifasiga ko'ra qo'shma gap hosil bo'ladi. Qo'shma gapni hosil qiluvchi ayiruv, inkor bog'lovchilari ishtirok etadi.

Tobelanish aloqasi tobelikning yo'nalish xususiyatiga ikki xil aloqa hosil qiladi: a) koordinativ aloqa; b) subordinativ aloqa.

Koordinativ aloqa vazifasiga ko'ra nominativ va kommunikativ birlik hosil qiladi. Tuzilishiga ko'ra qo'shma gaplar hosil qiladi.

³ Боровков А.К. Краткий очерк грамматики узбекского языка // Узбекско-русский словарь. -М., 1959. -С.714.

⁴ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. -М.,Л. 1960. -С. 406.

⁵ Асқарова М. Хозирги замон ўзбек тилида қўшма гаплар. -Т., 1960, 6-7-бетлар.

⁶ Абдурахмонов Г.А. Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского литературного языка. АДУ. -Т., 1960. -С.6

⁷ Баскаков Н.А. Сложные предложения в каракалпакском языке // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Ч.3. -М., 1961. -222.

Subordinativ aloqa qo'shma gaplarni hosil qiladi, bu qo'shma gaplar tarkibidagi aloqa sodda gaplar tarkibidagi boshqaruv aloqasini eslatadi.

Qo'shma gap tasnifida sintaktik aloqa mezonlarinigina emas, balki sintaktik munosabat mezonlarini ham hisobga olish kerak. Sodda gaplar tarkibida monopredikativ sintaktik munosabat mavjud bo'lsa, qo'shma gaplarda polipredikativ sintaktik munosabatlar mavjud.

Polipredikativ sathda sintaktik munosabatlarning to'rt xili vujudga keladi: predikativ munosabat, atributiv munosabat, possessiv munosabat, situativ munosabat.

Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplar ma'lum mazmun munosabatlarini ifodalashi, grammatik belgilari, tuzilishi, qurilish qolipi va intonatsiyasiga ko'ra bir necha ko'rinishga ega. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bog'langan qo'shma gaplar.
2. Ergashtiruvchi bog'lovchili bog'lanagan qo'shma gaplar.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar yoki qismlari ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar.
4. Ko'chirma qurilmali qo'shma gaplar.

Qo'shma gap qismlarining birikish usullari mavjud bo'lib, ular parataksis va gipotaksis sanaladi. Parataksis so'zi grekcha so'z bo'lib, bog'lanish, qator tuzish degan mazmunni ifodalaydi. Parataktik qurilmalar qismlari orasida turli mazmun munosabatlarining ifodalanishida shu qislar tarkibidagi gap bo'laklarining ma'nosi va o'rinlashishi, ularning semantik va grammatik o'zaro munosabati, ayrim leksik elementlarning qo'llanishi, gaplarning intonatsiyasi kabi omillar asosiy rol o'ynaydi: **Urushdan faqat boylar manfaat topdi, ammo kambag'allar xonavayron bo'ldi.** (Jurn.)

Gipotaksis so'zi ham grekcha so'z bo'lib, gaplarning o'zaro ergashtiruvchi vositalar yordamida tobelashishini anglatadi. Ergash gap bosh gapni izohlaydigan va mazmunan unga tobe bo'lgan qismdir. Ergash gap turli tobelashtiruvchi vositalar yordami bilan bosh gapga bog'lanadi: **Shundan bilamizki, mushtumzo'rlar tipirchilab qoldi.** (A.Q.)

Qo'shma gapning tarkibidagi qismlar o'zaro bir-biriga intonatsiya va yordamchi vositalar bilan bog'lanadi.

Intonatsiya qo'shma gapning hamma turida ishtirok qiladigan universal vosita sanaladi. Qo'shma gapning shakllanishidagi ishtirokiga

ko'ra, intonatsiya bosh va yordamchi rolni o'ynaydi. Intonatsiya bosh rolni o'ynaganda sintaktik aloqa faqat intonatsiya orqali ifodalangan bo'ladi. Yordamchi rol o'ynaganda boshqa vositalar ishtirok etadi.

Yordamchi vositalar o'z xarakteriga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. *Grammatik vositalar.* Qo'shma gapni hosil qiluvchi grammatik vositalarga bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar. Kelishik shakllari kiradi.

2. *Leksik-grammatik vositalar.* Qo'shma gapni tuzishda xizmat qiluvchi leksik-grammatik vositalarga sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, shart fe'li, buyruq fe'li shakllari kiradi.

3. *Leksik vositalar.* Maxsus leksik vositalarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Qo'shma gaplarni hosil qilishda kirish va kiritma konstruksiyalar ishtirok etadi. Ular izohlash, qiyoslash munosabatini ifodalaydi: Lekin bu narsa Qalandarovning taftini bosolmadi, aksincha, yuragiga o't yoqildi. (A.Q.)

2. Payt munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda *shundan buyon, shundan keyin, shu paytda, shunda, unda* so'zlari qo'llanadi.

3. Qo'shma gapni tuzishda olmoshlarning, asosan, ko'rsatish va nisbiy olmoshlarning roli bor. **Shunday ayollar bo'ladi: ular ishqni e'tiqod kabi muqaddas tutadi.**(O.)

4. Qo'shma gapning har ikki qismida bir xil vazifa yoki har xil vazifadagi so'z takrorlanadi: **Mening domlam yo'q, domlam ikki ko'zim.**(A.Q.)

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ayrim olingan sodda gaplar bilan o'xshashlik va farqli tomonlarga ega. Ular o'rtasidagi o'xshashlik quyidagilardan iborat: gap bo'laklarining ishtirok etishi, so'z birikmalarining mavjudligi, ega-kesim munosabatlarining bo'lishi. Farqli tomonlari shundaki, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ayrim olingan sodda gaplarga nisbatan mustaqilligini yo'qotgan bo'ladi, fikriy, intonatsion tugallikni to'liq ifodalamaydi.

Demak, gapni tashkil etgan sodda gaplar mazmuni, grammatik qurilishi va intonatsiyasi bilan alohida qo'llanuvchi mustaqil sodda gaplardan farq qiladi.

II. Berilgan matndan avval sodda gaplarni, so'ngra qo'shma gaplarni yozing. Qo'shma gap komponentlari sonini, qanday bog'langanini izohlang.

Darada havo issiq, hamma yerdan yerdan qarag'ay va archa hidi anqirdi. Tevarak-atrof igna bargli ko'm-ko'k daraxtlar bilan qoplangan. Yirik shag'al yo'ldan tepalikka ko'tarilish ancha mushkul edi. Havo issiq, suv ichkilari kelardi. Hamon suv uchramasligidan hayron bo'lishardi. Shu daradan qor bosgan Krasnaya Polyana degan joyga o'tishlari kerak edi. Shu yerda daryocha bo'lishi kerak, lekin undan hamon darak yo'q edi. Qarag'aylar uchini shitirlatib shamol esardi, ammo shamol ovozi sukunatni buzmay uni yanada chuqurlashtirardi. Borgan sari oyoq ostidagi kul rang, ba'zi joylarda esa oppoq tus olgan shag'al birdaniga qoraya boshladi va o'n minut o'tmasdan shag'al orasida shildirab oqayotgan ariqchani ko'rdilar, olisdan esa shovillagan ovoz eshitildi. Sal keyinroq ular ayqirib oqayotgan oqim bo'ylab ketaverdilar, suvdan esgan muzdek shamol oyoqlarini junjiktirdi. Keyin ular qor bosgan maydonchaga ko'tarildilar, hamma yoqni yana sukunat bosdi – chunki qor erib, uning ostidan chiqayotgagn oqim pastda qolgan edi. Ular qor ustidan yana balandroq ko'tarildilar va hech zot yo'q shu balandlikda ularda qandaydir notanish yuksak tantana, ko'tarinkilik ruhi paydo bo'ldi. (YU.Semyonov.)

III.Ko'chiring. Sodda gaplarni topib, sostaviga ko'ra turini ayting.

1. Vatan o'g'limizni o'z xizmatiga loyiq topibdi. Borsin. Hunar o'rganadi, mehnatda pishadi, tengdoshlari oldida yuzi yorug' bo'ladi. (H.G'.) 2. Kelmaydi. Motosiklini patillatib Suluvingizning oldiga ketdi. (S.Ahmad.) 3. Men o'g'limning Vatan oldidagi burchi yozilgan bir enlik qog'ozni qayta-qayta o'qib, eshik oldida bir necha daqiqa turib qoldim. (H.G'.) 4. Astrobodga kelingan dastlabki kunlarda to'da-to'da mehmonlarni qabul qilishga, ularning tahsinlarini tinglashga va o'z navbatida ularga maslahatlar berib, nasihatlar qilishga to'g'ri keldi. (L.Bat.) 5. Birinchi bo'lib motorga o't berish bilan boshqalarni ham jadal ishga chorlaydi. (J.Abd.) 6. Daraxtzor hovlidagi skameykalardan birida Malika uch-to'rt xotin bilan suhbatlashib o'tirardi. (H.G'.) 7. Malikaning so'zlarini zaldagilar qarsaklar bilan kutib olishdi. (H.G'.)

IV.Qo'shma gaplarni ajratib ko'chiring, bosh bo'laklarini aniqlang.

1. Mashhuraning quvonchi oshib ketgani chehrasidan ham ma'lum edi. 2. Bahor kelganda, qari tollar ham bargak yozadi. (O.) 3. Havoda na bulut va na gardu g'ubor ko'rinadi. (F.Muhammadiyev.) 4. Rais uning ko'ziga ilgarigidan savlatsizroq ko'rindi. (A.Q.) 5. U shunday yalinib gapirardiki, ra'yini qaytarishning sira iloji bo'lmagan edi. (S.Ahmad.) 6. Yo'l adirning yopiq yeridan tushgan bo'lsa ham, Turg'unoy tizzasini ushlab, zo'rg'a qadam bosardi. (A.Q.) 7. Koridorga chiqishganda, navbatdagi dars boshlanib, atrof yana jim bo'lib qolgandi. (A.Mirahmedov.) 8. Rustamovning blindajiga bor, do'stlaring kutib olishadi. (H.G'.) 9. Ma'ruzaga xotin-xalaj Saida mo'ljallaganidan ko'proq yig'ildi. (A.Q.) 10. Men xushomadgo'ylikni yomon ko'raman. (J.Abd.)

V.Qo'shma gapning turlarini aniqlab, nimalar vositasida bog'langanini ayting.

1. Salim qoraga ayting, fermada hisob-kitobni to'g'rilab qo'ysin. (H.G'.) 2. Chor atrofda esardi yellar, Va bog'larda qushlar chiyillar. (H.O.) 3. Uning ham ko'zi qattiq, ham tili tez edi. (O.) 4. Hali oftob chiqmagan, ammo osmon bo'zarib qolgan edli. (O'.H.) 5. Undan ham intizomsiz bolalar ko'p, lekin men jo'rtağa sizning jiyaningizni misolga oldim. (A.Q.)

1. Bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap ...

A) sodda gap B) bir bosh bo'lakli gap C) yig'iq gap D) sodda yoyiq gap

2. Qaysi qatorda sodda gap berilgan?

A) Odam borki, fikr yuritish qobiliyatiga ega. B) Yuksak, teran va atroflicha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el-yurtiga naf yetadigan siymolarnigina mutafakkir deyish mumkin. C) Tilingni o'z ixtiyoringda asra, so'zingni ehtiyot bilan so'zla. D) Odamlar siz bilan dardini yoki quvonchini o'rtoqlashsa, diqqat bilan tinglang.

3. Gap uchun muhim belgi nima?

A) kesimlik B) eganing mavjudligi C) tugallanganlik D) ega va kesimlik

4. Ikki yoki undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan va ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik...

A) uyushiq bo'lakli gap deyiladi B) bog'langan qo'shma gap deyiladi C) qo'shma gap deyiladi D) ergashgan qo'shma gap deyiladi

5. Gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratishda nima asos bo'lib xizmat qiladi?

A) kesimlik belgisining miqdori B) grammatik asoslarning miqdori
C) ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etish yoki etmasligi D) bog'lovchilarning ishtirok etish yoki etmasligi

6. Qo'shma gap berilgan qatorni ko'rsating.

A) Yuksak, teran va atroflicha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el-yurtiga naf yetadigan siymolarnigina mutafakkir deyish mumkin. B) Tilingni o'z ixtiyoringda asra, so'zingni ehtiyot bilan so'zla. C) G'ayratlining yuragi qaynar, g'ayratsizning yuragi o'ynar. D) B va C

7. Qo'shma gap qismlarini bir-biriga bog'lashda ishtirok etuvchi yuklamalarni ko'rsating.

A) -u, -yu, -mi, -chi B) -da, -a, -ya, -ki C) -ku, -u, -mi, -da D) -u, -yu, -da, -ki

8. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar to'g'ri berilgan qatorni toping.

A) teng bog'lovchilar, bo'g'lovchi vazifasidagi vositalar, ohang B) ergashtiruvchi bog'lovchilar, nisbiy so'zlar, ko'makchili qurilmalar C) teng bog'lovchilar, yuklamalar, shart mayli qo'shimchasi (-sa) D) berilganlarning barchasi to'g'ri

9. Bog'lovchi vazifasidagi vositalar keltirilgan qatorni toping.

A) chunki, bo'lsa, -ki, shu sababli B) deb, -da, shuning uchun, -sa C) zeroki, yo, bo'lsa, shuning uchun D) dam..., dam..., esa, -u, shu tufayli

10. Qaysi vosita orqali bog'langanda qo'shma gap qismlari ergash gap + bosh gap shaklida bo'ladi?

A) shuning uchun B) negaki C) -ki yuklamasi D) bo'lsa, esa so'zlari

11. Faqat ergash gapli qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar berilgan qatorni toping.

A) negaki, bo'lsa, -sa B) shuning uchun, hamda, deb C) chunki, deb, -ki D) zeroki, esa, shu sababli

12. Qaysi qatorda faqat ko'makchili qurilmalar berilgan?

A) tufayli, kabi B) shuning uchun, shu tufayli C) bo'lsa, qancha – shuncha D) shu kabi, shunga ko'ra

13. Ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida bog'langan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) Do'stlikdan o'tadigan hech narsa yo'q, shuning uchun do'st orttirish imkoniyatini sira qo'ldan boy berma. B) O'zingga do'st tanla, chunki bir o'zing baxtli bo'lolmaysan. C) Shuni bilki, odamlar do'stlik tufayli baxtiyordir. D) Yaxshi fikr tiniq uslubni talab qiladi, uslub esa fikr libosidir.

14. Qo'shma gaplar qaysi xususiyatiga ko'ra uch guruhga bo'linadi?

A) grammatik asoslarining miqdoriga ko'ra B) tobe yoki teng munosabatda bo'lishiga ko'ra C) qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra D) bog'lovchi vositalar orqali yoki bog'lovchilarsiz bog'lanishiga ko'ra

15. Bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A) Sen borsan, ko'nglim to'q. B) Qatorda noring bo'lsa, yuking yerda qolmaydi, deydilar. C) Quyosh va tog'da qushlarning xush navosi boshlandi. D) Goh kechalari shamol bo'riday uvillab chiqar, goh sharros yomg'ir quyib qolardi.

16. Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar qanday turlarga bo'linadi?

A) ergashgan qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap B) bog'lovchilar orqali bog'langan qo'shma gap, bog'lovchi vazifasidagi vositalar orqali bog'langan qo'shma gap va ohang orqali bog'langan qo'shma gap C) ergashgan qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap va bog'lovchisiz qo'shma gap D) teng bog'lovchilar orqali bog'langan qo'shma gap, ergashtiruvchi bog'lovchilar orqali bog'langan qo'shma gap

17-MAVZU. BOG'LANGAN QO'SHMA GAP USLUBIYATI

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM
<p>1.Odamga andisha kerak, lekin undan ham ilgariroq insof kerak. 3.Chor atrofda esardi yellar, Va bog'larda qushlar chiyillar. (H.O.) 3.Mashinaning nuqsoni bo'lsa, tuzatiladi yo yana yaxshirog'i yasaladi. 4.Dam qor yog'adi,dam yomg'ir tomchilaydi. 5.Na ishtirokchilar keldilar, na mehmonlar yig'ildilar.</p>	<p>Teng bog'lovchilar yordamda bog'lanishi.</p>	<p>1.Zidlik munosabati ifodalanadi. 2.Payt yoki sabab-natija munosabati ifodalanadi. 3.Voqea-hodisalardan birining yuzaga chiqishini ta'kidladi. 4.Voqea-hodisalardan birining yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. 5.Gaplardagi inkor munosabatini ifodalaydi.</p>
<p>Qiz yalt etib Jamolga qaradi-yu, yuragi hovliqib ketdi. (O.) Ashula nihoyasiga yetdi, lekin bir zumdan keyin yana yangi tovush parvoz qildi.(O.)</p>	<p>Teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida bog'lanishi.</p>	<p>1. Payt yoki sabab-natija munosabati ifodalanadi. 2. Zidlik munosabati ifodalanadi.</p>
<p>Otabek dahshatlanib yonidigagi Aliga qaradi, Ali esa labini tishlab turar edi. (A.Q.)</p>	<p>Bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'lanishi.</p>	<p>Gap qismlarini bog'lash bilan birga, ular o'rtasidagi qiyoslash va zidlash munosabatini ifodalaydi.</p>

Teng bog'lovchilar orqali birikkan biri ikkinchisiga grammatik jihatdan tobe bo'lmagan, teng huquqli predikativ qismlardan tashkil topgan shaklan mustaqil mazmunan o'zaro bog'langan gaplardan shakllangan qo'shma gap bog'langan qo'shma gap sanaladi. Bunday qo'shma gap qismlarining bir-biriga bog'liqligi ularning tuzilishida, kesimlarining semantik va grammatik munosabatda, umumiy gap bo'laklarining mavjudligida ham ko'rinadi. Shuning uchun ham bog'langan qo'shma gap, qancha gaplardan tashkil topmasin, yaxlit yagona bir qurilmani tashkil qiladi.

Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar bir-biriga biriktiruv, chog'ishtiruv, ayiruv, zidlov munosabatlarini ifodalovchi teng bog'lovchilar va bog'lovchi vazifasida keluvchi *-da, -u (-yu)* yuklamalari orqali birikadi.

Bog'langan qo'shma gaplarda birinchi gap, odatda, erkin holda tuzilgan bo'ladi, keyingi gap esa bog'langan qo'shma gap komponentlari orasidagi munosabatga bog'liq holda shakllanadi. Shuning uchun ham bog'langan qo'shma gap bilan ergash gapli qo'shma gaplar orasida grammatik, intonatsion farqlar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bog'langan qo'shma gaplarda sodda gaplarni biriktirish uchun teng bog'lovchilar qo'llanadi. Ergash gapli qo'shma gaplarda esa tobe bog'lovchi va nisbiy so'zlar (kim, nima, qanday, shunday) qo'llanadi.

2. Bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning kesimlari har vaqt ma'lum shaxs, zamon ko'rsatuvchi mustaqil shaklda bo'ladi. Ergash gapli qo'shma gap kesimlari esa ravishdosh, sifat-dosh, shart fe'li orqali ifodalangan tobe shaklda bo'ladi.

3. Bog'langan qo'shma gapda sanash, qiyoslash intonatsiyasi bo'lsa, ergash gapli qo'shma gaplarda tobelantiruvchi yoki izoh intonatsiyasi bo'ladi. Bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro aloqasi quyidagi mazmun munosabatlari ifodalanadi:

1. Qiyoslash munosabati. 2. Biriktiruv munosabati. 3. Ayiruv munosabati. 4. Sabab va natija munosabati. 5. Izohlash munosabati.

Har qanday grammatik shakl, shu jumladan bog'langan qo'shma gaplarning grammatik shakli ikki xil ma'noga – umumiy va xususiy grammatik ma'noga ega.

Biriktiruvchi bog'lovchilar umumiylik vazifasini, ergashtiruvchi bog'lovchilar xususiylik vazifasini bajaradi.

Biriktiruvchi, ayiruvchi bog'lovchilari orqali shakllangan bog'langan qo'shma gaplarda ochiq strukturali qo'shma gaplardir.

Zidlov bog'lovchilar, *bo'lsa, esa* so'zlari, *faqat* bog'lovchisi, *-u(-yu)* yuklamalari yordamida shakllangan bog'langan qo'shma gaplar yopiq strukturali qo'shma gaplardir.

Ba'zan bog'langan qo'shma gaplarda *-b (-ib)* ravishdosh va *-sa* shart fe'li shakli grammatik shakl sifatida ishtirok etadi. Bunday qo'shma gaplarning ham strukturasi yopiq struktura hisoblanadi.

Qiyoslash munosabatini ifodalagan qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning intonatsiyasi bir xil bo'lmaydi. Bunda qo'shma

gapning birinchi qismi ko'tarilgan intonatsiya bilan, ikkinchi qismi esa pasaygan intonatsiya bilan talaffuz etiladi; har ikki qism o'rtasida ancha sezilarli pauza bo'ladi. Qo'shma gap tarkibidagi qiyoslanayotgan bo'laklarga kuchli mantiqiy urg'u tushadi. Bu urg'u bo'lsa, esa fe'llari yordamida tuzilgan qo'shma gaplarda kuchli bo'ladi: **Otabek dahshatlanib yonidigagi Aliga qaradi, Ali esa labini tishlab turar edi.** (A.Q.)

Qiyoslash mazmun munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gaplar zidlash, qiyoslash, izohlash kabi turli ma'no ottenkalarini ro'yobga chiqaradi.

Qo'shma gap qismlarining umumiy mazmun yoki gaplar tarkibidagi ayrim bo'laklar biror tomondan bir-biriga zid qo'yiladi. Zidlash munosabatini ifodalovchi qo'shma gap qimlari asosan *ammo, lekin, biroq* bog'lovchilari orqali birikadi.

Qiyoslash orqali voqea, hodisa, predmet va ularning xususiyatlari o'rtasidagi farqlar ochiladi. Qiyoslash mazmuni asosan *bo'lsa, esa* fe'llari, yuklamalar, zidlov bog'lovchilari vositasida ifodalanadi. Bu xil qo'shma gap qismlarining tuzilishida ma'lum parallelizm bo'ladi. Qiyoslanayotgan bo'laklarning xususiyatlaridagi farqlar ochiladi.

Bog'langan qo'shma gap izohlash munosabatini ifodalaydi. Bunda qismlarning tarkibidagi ayrim bo'laklarning ma'nosi birinchi qismning umumiy mazmuni izohlanishi mumkin. Izohlovchi gap ikkinchi o'rinda kelib, birinchi gapning har bir bo'lagi izohlanishi mumkin.

Bog'langan qo'shma gap qismlari ma'lum bir paytda yoki ketma-ket ro'y bergan voqea, hodisa, harakatlarni biriktirib keladi va bu bilan uyushiq bo'laklarni eslatadi. Bunday qo'shma gaplarning qismlari biriktiruv bog'lovchilari: *va, ham, hamda; bo'lsa, esa* yordamchilari; yuklamalar yordami bilan bog'lanadi.

Biriktiruv munosabatiga kirishgan qo'shma gaplarning qismlari ko'pincha mazmunan o'zaro jips bog'lanadi, birining mazmuni ikkinchisiga bog'liq bo'ladi, turli mazmun ottenkalari, emotsional ma'nolar ifodalanadi.

Biriktiruv munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda qanday qo'shimacha mazmun ottenkasi ifodalanmasin, qo'shma gap qismlaridan anglashilgan harakat, holat, xususiyat ma'lum bir paytda ro'y beradi.

Bog'langan qo'shma gapning ayrim turlarida qismlaridan anglashilgan mazmun, odatda, bir-biriga bog'liq bo'lmaydi., biri ikkinchisini izohlamaydi. Ammo qo'shma gap qismlari mazmunan bir-

biriga yaqin bo'lgan yoki bir turdagi tushunchalarni ifodalaydi. Qo'shma gap qismlari umumiy bir fikrni, tushunchani, niyatni ifodalash uchun xizmat qiladi, shu bir tushunaning, niyatning elementlari sanaladi. Bunday semantik aloqa ayiruv munosabati deyiladi. **Katta hovuzlardagi suvlarda ko'lankalar va shu'lalar jim-jim o'ynashadi, goh ko'lankalar yonib ketadi, goh shu'lalarni ko'lankalar yutadi.** (O.)

Ayiruv munosabatini ifodalagan bog'langan qo'shma gap qismlari o'zaro ayiruv bog'lovchisi va *ba'zan, hali, bir kabi* ayrim leksik elementlar yordami bilan bog'lanadi.

Bog'langan qo'shma gap qismlarining biri ma'lum voqea, hodisa, holatning ro'y berishiga sabab bo'lgan voqea, holatini ikkinchi qism esa shu sabab asosida ro'y bergan voqea, hodisa. Holatini ifodalaydi.

Sabab-natija munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gaplar o'zaro biriktiruv bog'lovchisi yoki *-u(-yu), -da* yuklamalari yordamida bog'lanadi. Bundan tashqari, intonatsiya, mantiqiy urg'u va modal so'zlar orqali ham sabab-natija munosabati ifodalanadi. **Qiz yalt etib Jamolga qaradi-yu, yuragi hovliqib ketdi.** (O.)

Bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan gaplarning so'nggisi oldingi aytilgan gaplarning mazmuniga qo'shimcha umumiy izoh bo'ladi, ular oldingi gaplarning mazmuniga aloqador bo'lgan yoki shu mazmundan kelib chiqadigan biror qo'shimcha xabarni ifodalaydilar.

Tarkibiy qismlarining o'zaro semantik munosabatiga ko'ra, bog'langan qo'shma qo'shma gapning bu tipii ikki turga bo'linadi:

1. Izohlash munosabatini ifodalaydi.
2. Qo'shimcha ma'lumot berish uchun xizmat qiladi.

Bog'langan qo'shma gapning izohlash munosabatini ifodalovchi guruhida qo'shma gapning ikkinchi qismi birinchi qismdan anglashilgan umumiy mazmunni izohlaydi yoki so'zlovchining birinchi qismning mazmuni haqidagi fikri, bahosi, munosabatini ko'rsatadi.

Izohlash munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gapning qismlari o'zaro biriktiruv bog'lovchilari (**va, ham, hamda**), zidlov bog'lovchilari (**lekin, ammo**) bog'lovchi vazifasidagi **bo'lsa, esa** so'zlari yordamida bog'lanadi, bunda har bir bog'lovchi o'z grammatik ottenkasini saqlaydi. Izoh munosabatini ifodalagan qo'shma gaplarning tarkibida *bu* olmoshi bo'ladi. *Bu* olmoshi turli vazifada qo'llanadi va har doim qo'shma gapning ikkinchi qismida bo'ladi. Bog'langan qo'shma gapning ikkinchi qismi qo'shimcha

ma'lumot ifodalaydi. Qo'shimcha ma'lumot qo'shma gapning birinchi qismi bilan bevosita bog'lanishi, undan kelib chiqishi yoki birinchi qismning mazmuni bilan uzviy bog'lanishi mumkin. Bu xil bog'langan qo'shma gap qismlarini biriktirish uchun *ham, hamda* bog'lovchilari ishlatiladi. Ikkinchi qismida qo'shimcha ma'lumot ifodalagan qurilmalar *yana, tag'in* elementlarining yordami bilan birikadi: **Men tayinlagan gaplar esingdan chiqib qolibdi, yana buning ustiga ichingdan boshqa gap to'qib, yolg'onchilik qilibsən.** (S.A.)

Mashqlar

I. O'qing, qismlari biriktiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplarni topib, ularni bir paytda yoki ketma-ket yuz bergan voqea, hodisa, harakatni ifodalovchi qo'shma gaplarga ajrating.

1. U har uch qadamda bir to'xtab, nafasini rostlay-rostlay tepaga zo'rg'a yetdi, qopni ag'dardi-yu, muvozanatini saqlay olmay o'tirib qoldi. 2. Mashrab vafosizlik to'g'risidagi kitoblarni o'qisa, yo erkaklar og'zidan xotin-qizlar haqida shaloq gaplar eshitsa, esiga hamisha Mastura tushadi-yu, butun vujudi isyon ko'taradi, bunday gaplarning birontasiga ishonmaydi. 3. Gulchehra «piq» etib kuldi-da, cho'zilib tugunni oldi. 4. Shu bilan maslahat tugadi-yu, byuro boshlanish bilan birinchi bo'lib Ertoyev so'zga chiqdi. 5. Mashhur qora qashqa ayg'irining chilvirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi. 6. To'satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ertoyev paydo bo'ldi. 7. Inobat qizishib ketib, pisandaga o'tganini endi payqadi va uyalib yerga qaradi. (O.Yoqubov)

II. Quyida berilgan fe'llardan bog'langan qo'shma gaplar hosil qilib yozing.

1. Oqardi, to'kildi. 2. Bukildi, salom berdi. 3. Nigoron bo'ldi, nasib qilmadi. 4. Hayron bo'ldi, nafasi tiqildi. 5. Yiqildi, shikastlandi. 6. Azoblandi, qiylandi. 7. Kezdi, uyg'ondi. 8. Aynidi, yog'a boshladi. 9. Qo'msadi, yig'ladi. 10. Yuraverdi, g'oyib bo'ldi. 11. O'yladi, bag'ishladi. 12. Sevindi, yoshlandi.

III. Qo'shma gaplarning turlarini aniqlang va sxematik tahlil qiling.

1. Hamma quvnoqlik bilan so'zlashmoqda, faqat Arslonqul negadir xayolchan o'tirardi.(O.) 2. Uning na Ko'lobda uy-joyi bor, na bu erda

oyoq bosadigan joyi. (S.A.) 3. Mening dam bezgagim xuruj qiladi, dam isitma suyagimgacha yondiradi. (O.) 4. Ichkarida ashula tugab, shovqinli kulgi ko'tarildi. (As.M) 5. Nuri goh sevinib shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini qo'rquv bosadi. (O.) 6. Onaxonning tovushi tovlanib, ko'ziga yosh keldi. (As.M.) 7. Birovlar panshaxa bilan paxta ag'darsa, birovlar quriganini qopga tiqar edi. 8. Shu paytko'cha eshigi ochildi-yu, Zunnunxo'ja halloslaganicha kirib keldi. (A.Q.) 9. Hali musiqa chalinadi, hali ashula aytiladi. 10. Qattiq shamoldan dam chimlar bamisoli qirg'ovulday uchib tushadi, dam bir oz namiqqan yerning tuprog'i palaxsa-palaxsa bo'lib ko'tariladi. (A.Q.)

18-MAVZU. ERGASHGAN QO'SHMA GAPLARNING QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR.

O'zbek tilidagi ergashg gaplarning tasnifi umuman boshqa tillardagi ergash gaplarning tasnifiga yaqin turadi. Ergash gaplarni sodda gap bo'laklariga o'xshatishga asoslangan tasnifga ergash gapli qo'shma gaplarni bosh va ergash qismlarning bog'lanish vositalariga ko'ra shakliy tasniflash qarama-qarshi qo'yiladi. Bunday tasniflash A.M.Peshkovskiy, M.N.Peterson, L.A.Bulaxovskiy, A.B.Shapirolar tomonidan ilgari surilgan va himoya qilingan... Ergash gapli qo'shma gaplar orasida ikki asosi tip farqlangan: bog'lovchi vazifasidagi so'zlar gaplar (nisbiy ergashish) va bog'lovchili gaplar (bog'lovchili ergashish)...

Tarkibiy-mazmuniy tasnifning yaratilishida N.S.Paspelovning ishlari muhim rol o'ynaydi, u ergash gapli qo'shma gaplarning ikki asosiy tipini ajratgan: ikki a'zoli tip va bir a'zoli tip. Ikki a'zoli va bir a'zoli gaplar o'rtasidagi farqni N.S.Paspelov bosh va ergash qismlar o'rtasidagi aloqadorlikning turli tabiati bilan bog'laydi: ikki a'zoli gaplarda ergashg qism bilan yaxlitligicha bog'lanadi, bir a'zoli gaplarda ergash qism bosh gapdagi bir so'zga tegishli bo'ladi.

Ergash gaplarning bosh gapni yaxlitligicha izohlashi yoki uning biror bo'lagi bilan aloqador bo'lishi haqidagi qarash turkiyshunoslikda ham keng tarqalgan. Masalan, M.Asqarova shunday ta'kidlaydi: "Ergash gap esa mazmun va strukturasi ko'ra bosh gapdan ko'ra boshqacharoq tuzilib, bosh gapning biror bo'lagini yoki bosh gapni yaxlitligicha izohlaydi"¹.

N.A.Baskakov hozirgi turk tilidagi ergash gaplarni quyidagicha guruhlarga ajratadi:

1. Bosh gapdagi substantiv bo'laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga ega va to'ldiruvchi ergash gaplar kiradi.
2. Bosh gapdagi atributiv bo'laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga kesim va aniqlovchilar kiradi.
3. Bosh gapdagi atributiv – hol bo'laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga sabab-natija, shart, to'siqsiz, maqsad, payt, o'xshatish va chog'ishtirish ergash gaplari kiradi.²

¹ Gulomov A., Askarova M. Hozirgi uzbek adabiy tili. Sintaksis. 3-nashri, Toshkent, Ukituvchi, 1987, 187-bet.

² Баскаков А.Н. Предложение в современном турецком языке. –М., Наука, 1984, -С.157.

O'zbek tilshunosligida ergash gaplar mazmuniy-shakliy jihatdan 14 turga ajratiladi: 1) ega, 2) kesim, 3) to'ldiruvchi, 4) aniqlovchi, 5) ravish, 6) o'lchov-daraja, 7) chog'ishtirish-o'xshatish, 8) sabab, 9) maqsad, 10) payt, 11) o'rin, 12) shart, 13) to'siqsiz, 14) natija ergash gaplar³.

Ega ergash gapli qo'shma gaplar. Ega ergash gap bosh gapdan ayrim olmoshlar bilan ifodalangan egani izohlab, konkretlashtirib keladi.

Ega ergash gap bosh gapga ko'pincha fe'lning shart mayli shakli bilan birikadi: **Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi yiqiladi.** (Maqol)

Kesim ergash gapli qo'shma gap. Kesim ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimning ma'nosini izohlab, aniqlashtirib keladi. Kesim ergash gap ko'pincha bosh gapda kesim vazifasida kelgan *shu, shunday, shundan iborat* kabi so'zlarning ma'nosini konkretlashtirib keladi. Kesim ergash gap bosh gap bilan *-ki* yordamchisi orqali birikadi: **O'zbek mushtumining mahkamligi shundaki, bu mushtda juda ko'p halqlarning kuchi birlashgan.** (O.)

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchining ma'nosini izohlab, konkretlashtirib keladi.

To'ldiruvchi ergash gap ko'pincha bosh gapdan keyin keladi va bosh gapga *-ki, -mi* yordamchilari orqali birikadi. Bu yordamchilar bosh gapning kesimiga qo'shib keladi: **Bilasizki, xo'jayinning Nuri degan qizlari bor.** (O.)

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar. Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi aniqlovchi vazifasida qo'llangan so'zlarning ma'nosini izohlab, konkretlashtirib keladi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapda aniqlovchi vazifasida kelgan ayrim, shunday, ba'zi, bir kabi so'zlarning ma'nosini to'laroq ochib beradi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapga *-ki* yordamchisi orqali birikadi va ergash gap bosh gapdan keyin keladi: **Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el oldida manzur va mo'tabar bo'lsin.** (O.)

Ravish ergash gapli qo'shma gap. Ravish ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan harakatning yoki bosh gapdagi butun voqeaning qay tarzda, qanday vaziyatda yuzaga kelishini ko'rsatadi.

³ Гуломов А., Асқарова М. Курсатилган асар. 187-бет..

Ravish ergash gaplarning kesimi *-b(-ib)*, *-may (-masdan)* qo'shimchali ravishdosh bilan ifodalanib bosh gapga bog'lanadi.

Ravish ergash gaplar bosh gapdan oldin, bosh gapning o'rtasida yoki bosh gapdan keyin keladi: **Yuragida hislar to'lib-toshib, O'ktam haykal tevaragida ancha vaqt asta-sekin yurdi.** (O.)

O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar. O'lchov-daraja ergash gaplar bosh gapdagi voqeani o'lchash hamda bosh gapning darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bu xil ergash gap bosh gapdagi voqeani chegaralab ko'rsatadi.

O'lchov-daraja ergash gaplarning kesimi shart mayli shaklida bo'ladi. Bunda ergash gapdagi *qancha*, *qanchalik*, *nechog'lik* olmoshlari bosh gap tarkibida kelgan *shuncha*, *shunchalik*, *shu chog'li*, *shu qadar* kabi so'zlarga mos keladi. Bosh gap tarkibida kelgan bunday so'z kesimga bog'langan bo'lsa, ergash gap bosh gapdagi ish-harakat, holatning qanday darajada, qancha miqdorda bajarilishini bildiradi: *Qiladigan ishingiz qanchalik ulug'vor bo'lsa, g'ayratingiz shuncha qaynay beradi.* (R.F.)

Ergash gapning kesimi sifatdoshdan so'ng *sari*, *sayin* ko'makchilarini keltirish orqali ifodalanadi. Bunda ergash gapda *qanchalik*, bosh gapda *shunchalik* nisbiy so'zlari ishtirok etadi: **Yoshing ulg'aygan sari, tajribang ham orta borar ekan.** (Jurn.)

Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar. Chog'ishtirish ergash gapi bir harakat bilan ikkinchi harakatni, bir voqea bilan ikkinchi voqeani, bir shaxs bilan ikkinchi shaxsni chog'ishtiradi.

Chog'ishtirish ergash gapi bosh gapga shart fe'l shakli, sifatdosh va ravishdosh shakllari hamda *-ki* bog'lovchisi orqali bog'lanadi.

Ergash gapning tarkibida *-guncha*, *-gandan ko'ra*, *-ishdan ko'ra*, *qanday*, *qanday qilib*, *shunday*, *o'shanday*, *shunday qilib*, *o'shanday qilib* kabi nisbiy so'zlar ishtirok qiladi: **Qul bo'lib yashaguncha, mard bo'lib o'lgan yaxshi.** (Maqol)

Ergash gapning kesimi sifatdoshdan so'ng *-day*, *-gani*, *-ganiday* qo'shimchalarini yoki *kabi*, *singari*, *sari*, *go'yo* yordamchilaridan birini keltirish bilan ifodalanib, ergash gap bosh gapdagi harakatning bajarilishini boshqa predmet harakatiga o'xshashtirish orqali bildiradi: **U qimir etmadi, go'yo asabi ham, sezgilari ham o'lgan edi.** (A.M.)

Sabab ergash gapli qo'shma gaplar. Sabab ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelish sababini bildiradi.

Sabab ergash gap bosh gapga *chunki, shu sababli, shu tufayli, sababki, negaki, shekilli, shuning uchun, -gani uchun, -gani tufayli, -ganidan, -i(b), -may* kabi yordamchilar orqali birikadi: **G'ulomjon uzoq o'y surib ketgani sababli, suhbat uzilib qoldi.** (M.Is.)

Maqsad ergash gapli qo'shma gaplar. Maqsad ergash gap bosh gapdagi harakat yoki voqeaning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradi. Bunday qo'shma gapning qismlari o'zaro *deb (deya), uchun* yordamchilari vositasida birikadi.

Maqsad mazmunini yanada bo'rttirib ko'rsatish uchun ergash gap oldida *zora, shoyad* kabi so'zlar ishlatiladi. Maqsad ergash gap bosh gapdan oldin yoki keyin keladi: **Zora, xo'jayinning ko'ngli bir oz yozilsa deb, mehmon gaplashadi, hasratlashadi.** (A.M.)

Payt ergash gapli qo'shma gaplar. Payt ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning yuzaga kelish vaqtini bildiradi.

Payt ergash gap bosh gapga *-ganidan keyin (so'ng, avval), -ganda, -gan vaqtda (paytda), -masdan, -masdan oldin (burun, keyin), -mas, -i(b), -gach, -guncha, -may, -(i) shi, bilan* yordamchilari birikadi. Payt ergash gap, asosan, bosh gapdan oldin keladi. **Oradan ko'p vaqt o'tmay, idoraga chollar kirishdi.** (A.Q.)

O'rin ergash gapli qo'shma gaplar. O'rin ergash gapli qo'shma gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelish, bajarilish o'rnini bildiradi. **Ko'z qaerda bo'lsa, mehr ham o'sha yerda bo'ladi.** (Maqol)

O'rin ergash gap bosh gapga ko'pincha fe'lning shart mayli shakli orqali birikadi. Bundan tashqari, o'rin ergash gapli qo'shma gaplarda bosh va ergash gap tarkibida *qaerda-shu yerda, qaerdan-shu yerdan, qaerga-shu yerga* kabi so'zlar qo'llanadi. **Katta kema qayoqqa yursa, kichik kema ham shu yoqqa yuradi.**(Maqol)

Shart ergash gapli qo'shma gaplar. Shart ergash gap bosh gapdagi voqeaning qanday shart bilan yuzaga chiqishini bildiradi.

Shart ergash gap bosh gapga fe'lning shart mayli shakli yoki *-ganda, -ganda edi* yordamchisi, shuningdek, *-(a)r+ekan* shakllari orqali bog'lanadi: **Ilg'orlarni har ishda yetakchi qila bilsangiz, mara sizniki.**(O.)

Ba'zan shart mazmunini yanada kuchliroq ifodalash uchun ergash gapning boshida *agar, bordi-yu, mabodo, basharti* kabi so'zlar keladi: **Agar mamlakatda jabr-zulm benihoyat avj olmasa edi, ishqingiz qora kiymas edi.** (O.)

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap va ergash gapdagi mazmun bir-biriga zid bo'lsa ham, shu zidlikka, to'siqqa qaramay, bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelishi ifodalanadi.

To'siqsiz ergash gap bosh gapga *-sa ham. -sa-da, -ganda ham, qaramay* kabi yordamchilar orqali bog'lanadi: **Quyosh yashiriningan bo'lsa ham, kunduzning yorug'ligi hali tamom so'nmagan edi.** (O.)

Natija ergash gapli qo'shma gaplar. Natija ergash gapli qo'shma gap bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelishidagi natijani bildiradi.

Natija ergash gap *-ki* yordamchisi orqali birikadi. Bunday ergash gaplar ko'pincha bosh gapdagi harakat belgisini ko'rsatadigan *shunday (shunaqangi), chunon(chunonam)* kabi so'zlarning ma'nosini konkretlashtirib keladi: **Asrorqul chilimni shunday qattiq tortdiki, sarxonasidan alanga ko'tarildi.** (A.Q.)

Mashqlar

I. Gaplarni o'qing. Ergash gapli qo'shma gaplar qanday qismlardan tashkil topganini izohlang.

1. Alam qiladigan joyi shundaki, mening «qavmlarim» – tarjimonlar ham tilni bulg'ashda tobora xuruj qilmoqdalar. 2. Mushukni tomdan tashlasangiz ham, yerga muallaq bo'lib, chirpirab qulamaydi, balki to'rt oyog'i bilan tushadi. 3. Oqilona narx-navo tayin qilinsa, birgina qishloq xo'jaligi mahsulotlari, paxta bilan pillaning o'ziyoq jumhuriyatni bemalol boqa oladi. 4. Shunisi borki, bu yerda ichkilik borasida «qatron qonuni» juda qattiq qo'yilgan. 5. Shuni unutmangki, quyosh hammaga baravar nur sochadi. 6. Illat quritilsa, o'sha illatning o'zi boshqa joydan tag'in nish urib chiqaveradi. 7. U yog'ini so'rasangiz, burchdorlik joyim ham bor.

II. Matnni o'qing. Ergash gapli qo'shma gaplarni toping. Har birini yozib bo'lganingizdan so'ng uning chizmasini chizing. Ergash va bosh gaplarni aniqlang.

Namuna: *Siz shuni unutmangki, yomon illatlar hamisha kulfat keltiradi.*

Bosh gap -ki, Ergash gap

QIMORBOZLIK ILLATI

Bu o'yinga muhtalo bo'lsang, izzat va jon mulkiga qiron keltirasan, oz fursatda bor-yo'g'ingni, hurmat va obro'yingni qo'ldan boy berasan. Har ishning chegara va andozasi bor bo'lsa ham, qimor

chegara va andozadan tashqaridir. Har ayb dengizining qirg'og'i, sohili bo'lsa ham, ammo qirg'oqsiz, sohilsiz ayb dengizidir. Har kimning turmush kemasi bu ayb dengizining to'foni po'rtanasiga duchor bo'lsa, shubhasiz, g'arq bo'lib, yo'qlik dunyosiga ketadi. Kimki qimmatli umrni buzuq ishlarga sarf qilsa, behuda ishlar bilan hayosizlik kamarini bog'lasa, bu aqlga muvofiq emas. Odam o'jar nafs otini qamchilamasin deb, donishmandlar juda ko'p nasihatlar bitibdur.

Kimki qimor yo'liga qo'ysa qadam,

Oqibat sharmanda-yu rasvo bo'lur.

(Sh. Zunnun)

19-MAVZU. ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR TURLARI

O'zbek tilidagi ergashg gaplarning tasnifi umuman boshqa tillardagi ergash gaplarning tasnifiga yaqin turadi. Ergash gaplarni sodda gap bo'laklariga o'xshatishga asoslangan tasnifga ergash gapli qo'shma gaplarni bosh va ergash qismlarning bog'lanish vositalariga ko'ra shakliy tasniflash qarama-qarshi qo'yiladi. Bunday tasniflash A.M.Peshkovskiy, M.N.Peterson, L.A.Bulaxovskiy, A.B.Shapirolar tomonidan ilgari surilgan va himoya qilingan... Ergash gapli qo'shma gaplar orasida ikki asosi tip farqlangan: bog'lovchi vazifasidagi so'zlar gaplar (nisbiy ergashish) va bog'lovchili gaplar (bog'lovchili ergashish)...

Tarkibiy-mazmuniy tasnifning yaratilishida N.S.Paspelovning ishlari muhim rol o'ynaydi, u ergash gapli qo'shma gaplarning ikki asosiy tipini ajratgan: ikki a'zoli tip va bir a'zoli tip. Ikki a'zoli va bir a'zoli gaplar o'rtasidagi farqni N.S.Paspelov bosh va ergash qismlar o'rtasidagi aloqadorlikning turli tabiati bilan bog'laydi: ikki a'zoli gaplarda ergashg qism bilan yaxlitligicha bog'lanadi, bir a'zoli gaplarda ergash qism bosh gapdagi bir so'zga tegishli bo'ladi.

Ergash gaplarning bosh gapni yaxlitligicha izohlashi yoki uning biror bo'lagi bilan aloqador bo'lishi haqidagi qarash turkiyshunoslikda ham keng tarqalgan. Masalan, M.Asqarova shunday ta'kidlaydi: "Ergash gap esa mazmun va strukturasi ko'ra bosh gapdan ko'ra boshqacharoq tuzilib, bosh gapning biror bo'lagini yoki bosh gapni yaxlitligicha izohlaydi"¹.

N.A.Baskakov hozirgi turk tilidagi ergash gaplarni quyidagicha guruhlariga ajratadi:

1. Bosh gapdagi substantiv bo'laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga ega va to'ldiruvchi ergash gaplar kiradi.

2. Bosh gapdagi atributiv bo'laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga kesim va aniqlovchilar kiradi.

3. Bosh gapdagi atributiv – hol bo'laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga sabab-natija, shart, to'siqsiz, maqsad, payt, o'xshatish va chog'ishtirish ergash gaplari kiradi.²

O'zbek tilshunosligida ergash gaplar mazmuniy-shakliy jihatdan 14 turga ajratiladi: 1) ega, 2) kesim, 3) to'ldiruvchi, 4) aniqlovchi, 5) ravish, 6)

¹ Гуломов А., Аскарлова М. Хозирги ўзбек адабий тили. Силтависис. 3-нашри, Тошкент, Укитувчи, 1987, 187-бет.

² Баскаков А. Н. Предложение в современном турецком языке. – М., Наука, 1984, -С.157.

o'Ichov-daraja, 7) chog'ishtirish-o'xshatish, 8) sabab, 9) maqsad, 10) payt, 11) o'rin, 12) shart, 13) to'siqsiz, 14) natija ergash gaplar³.

Ega ergash gapli qo'shma gaplar. Ega ergash gap bosh gapdan ayrim olmoshlar bilan ifodalangan egani izohlab, konkretlashtirib keladi.

Ega ergash gap bosh gapga ko'pincha fe'lining shart mayli shakli bilan birikadi: **Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi yiqiladi.** (Maqol)

Kesim ergash gapli qo'shma gap. Kesim ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimning ma'nosini izohlab, aniqlashtirib keladi. Kesim ergash gap ko'pincha bosh gapda kesim vazifasida kelgan *shu, shunday, shundan iborat* kabi so'zlarning ma'nosini konkretlashtirib keladi. Kesim ergash gap bosh gap bilan *-ki* yordamchisi orqali birikadi: **O'zbek mushtumining mahkamligi shundaki, bu mushtda juda ko'p halqlarning kuchi birlashgan.** (O.)

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchining ma'nosini izohlab, konkretlashtirib keladi.

To'ldiruvchi ergash gap ko'pincha bosh gapdan keyin keladi va bosh gapga *-ki, -mi* yordamchilari orqali birikadi. Bu yordamchilar bosh gapning kesimiga qo'shib keladi: **Bilasizki, xo'jayinning Nuri degan qizlari bor.** (O.)

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar. Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi aniqlovchi vazifasida qo'llangan so'zlarning ma'nosini izohlab, konkretlashtirib keladi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapda aniqlovchi vazifasida kelgan ayrim, shunday, ba'zi, bir kabi so'zlarning ma'nosini to'laroq ochib beradi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapga *-ki* yordamchisi orqali birikadi va ergash gap bosh gapdan keyin keladi: **Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el oldida manzur va mo'tabar bo'lsin.**(O.)

Ravish ergash gapli qo'shma gap. Ravish ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan harakatning yoki bosh gapdagi butun voqeaning qay tarzda, qanday vaziyatda yuzaga kelishini ko'rsatadi.

Ravish ergash gaplarning kesimi *-b(-ib), -may (-masdan)* qo'shimchali ravishdosh bilan ifodalanib bosh gapga bog'lanadi.

Ravish ergash gaplar bosh gapdan oldin, bosh gapning o'rtasida yoki bosh gapdan keyin keladi: **Yuragida hislar to'lib-toshib, O'ktam haykal tevaragida ancha vaqt asta-sekin yurdi.** (O.)

³ Гуломов А., Аскарлова М. Курсатилган асар, 187-бет..

O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar. O'lchov-daraja ergash gaplar bosh gapdagi voqeani o'lchash hamda bosh gapning darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bu xil ergash gap bosh gapdagi voqeani chegaralab ko'rsatadi.

O'lchov-daraja ergash gaplarning kesimi shart mayli shaklida bo'ladi. Bunda ergash gapdagi *qancha, qanchalik, nechog'lik* olmoshlari bosh gap tarkibida kelgan *shuncha, shunchalik, shu chog'li, shu qadar* kabi so'zlarga mos keladi. Bosh gap tarkibida kelgan bunday so'z kesimga bog'langan bo'lsa, ergash gap bosh gapdagi ish-harakat, holatning qanday darajada, qancha miqdorda bajarilishini bildiradi: *Qiladigan ishingiz qanchalik ulug'vor bo'lsa, g'ayratingiz shuncha qaynay beradi.* (R.F.)

Ergash gapning kesimi sifatdoshdan so'ng *sari, sayin* ko'makchilarini keltirish orqali ifodalanadi. Bunda ergash gapda *qanchalik*, bosh gapda *shunchalik* nisbiy so'zlari ishtirok etadi: **Yoshing ulg'aygan sari, tajribang ham orta borar ekan.** (Jurn.)

Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar. Chog'ishtirish ergash gapi bir harakat bilan ikkinchi harakatni, bir voqea bilan ikkinchi voqeani, bir shaxs bilan ikkinchi shaxsni chog'ishtiradi.

Chog'ishtirish ergash gapi bosh gapga shart fe'l shakli, sifatdoshdan va ravishdoshdan shakllari hamda *-ki* bog'lovchisi orqali bog'lanadi.

Ergash gapning tarkibida *-guncha, -gandan ko'ra, -ishdan ko'ra, qanday, qanday qilib, shunday, o'shanday, shunday qilib, o'shanday qilib* kabi nisbiy so'zlar ishtirok qiladi: **Qul bo'lib yashaguncha, mard bo'lib o'lgan yaxshi.** (Maqol)

Ergash gapning kesimi sifatdoshdan so'ng *-day, -gani, -ganiday* qo'shimchalarini yoki *kabi, singari, sari, go'yo* yordamchilaridan birini keltirish bilan ifodalanib, ergash gap bosh gapdagi harakatning bajarilishini boshqa predmet harakatiga o'xshashtirish orqali bildiradi: **U qimir etmadi, go'yo asabi ham, sezgilari ham o'lgan edi.** (A.M.)

Sabab ergash gapli qo'shma gaplar. Sabab ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelish sababini bildiradi.

Sabab ergash gap bosh gapga *chunki, shu sababli, shu tufayli, sababki, negaki, shekilli, shuning uchun, -gani uchun, -gani tufayli, -ganidan, -i(b), -may* kabi yordamchilar orqali birikadi: **G'ulomjon uzoq o'y surib ketgani sababli, suhbat uzilib qoldi.** (M.Is.)

Maqsad ergash gapli qo'shma gaplar. Maqsad ergash gap bosh gapdagi harakat yoki voqeaning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini

bildiradi. Bunday qo'shma gapning qismlari o'zaro *deb (deya)*, *uchun* yordamchilari vositasida birikadi.

Maqsad mazmunini yanada bo'rttirib ko'rsatish uchun ergash gap oldida *zora, shoyad* kabi so'zlar ishlatiladi. Maqsad ergash gap bosh gapdan oldin yoki keyin keladi: **Zora, xo'jayinning ko'ngli bir oz yozilsa deb, mehmon gaplashadi, hasratlashadi.** (A.M.)

Payt ergash gapli qo'shma gaplar. Payt ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning yuzaga kelish vaqtini bildiradi.

Payt ergash gap bosh gapga *-ganidan keyin (so'ng, avval), -ganda, -gan vaqtda (paytda), -masdan, -masdan oldin (burun, keyin), -mas, -i(b), -gach, -guncha, -may, -(i) shi, bilan* yordamchilari birikadi. Payt ergash gap, asosan, bosh gapdan oldin keladi. **Oradan ko'p vaqt o'tmay, idoraga chollar kirishdi.** (A.Q.)

O'rin ergash gapli qo'shma gaplar. O'rin ergash gapli qo'shma gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelish, bajarilish o'rmini bildiradi. **Ko'z qaerda bo'lsa, mehr ham o'sha yerda bo'ladi.** (Maqol)

O'rin ergash gap bosh gapga ko'pincha fe'lning shart mayli shakli orqali birikadi. Bundan tashqari, o'rin ergash gapli qo'shma gaplarda bosh va ergash gap tarkibida *qaerda-shu yerda, qaerdan-shu yerdan, qaerga-shu yerga* kabi so'zlar qo'llanadi. **Katta kema qayoqqa yursa, kichik kema ham shu yoqqa yuradi.**(Maqol)

Shart ergash gapli qo'shma gaplar. Shart ergash gap bosh gapdagi voqeaning qanday shart bilan yuzaga chiqishini bildiradi.

Shart ergash gap bosh gapga fe'lning shart mayli shakli yoki *-ganda, -ganda edi* yordamchisi, shuningdek, *-(a)r+ekan* shakllari orqali bog'lanadi: **Ilg'orlarni har ishda yetakchi qila bilsangiz, mara sizniki.**(O.)

Ba'zan shart mazmunini yanada kuchliroq ifodalash uchun ergash gapning boshida *agar, bordi-yu, mabodo, basharti* kabi so'zlar keladi: **Agar mamlakatda jabr-zulm benihoyat avj olmasa edi, ishqingiz qora kiymas edi.** (O.)

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap va ergash gapdagi mazmun bir-biriga zid bo'lsa ham, shu zidlikka, to'siqqa qaramay, bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelishi ifodalanadi.

To'siqsiz ergash gap bosh gapga *-sa ham. -sa-da, -ganda ham, qaramay* kabi yordamchilar orqali bog'lanadi: **Quyosh yashiriningan bo'lsa ham, kunduzning yorug'ligi hali tamom so'nmagan edi.** (O.)

Natija ergash gapli qo'shma gaplar. Natija ergash gapli qo'shma gap bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelishidagi natijani bildiradi.

Natija ergash gap *-ki* yordamchisi orqali birikadi. Bunday ergash gaplar ko'pincha bosh gapdagi harakat belgisini ko'rsatadigan *shunday* (*shunaqangi*), *chunon(chunonam)* kabi so'zlarning ma'nosini konkretlashtirib keladi: **Asrorqul chilimni shunday qattiq tortdiki, sarxonasidan alanga ko'tarildi.** (A.Q.)

Mashqlar

I.Gaplarni o'qing. Ergash gapli qo'shma gaplar qanday qismlardan tashkil topganini izohlang.

1. Alam qiladigan joyi shundaki, mening «qavmlarim» – tarjimonlar ham tilni bulg'ashda tobora xuruj qilmoqdalar. 2. Mushukni tomdan tashlasangiz ham, yerga muallaq bo'lib, chirpirab qulamaydi, balki to'rt oyog'i bilan tushadi. 3. Oqilona narx-navo tayin qilinsa, birgina qishloq xo'jaligi mahsulotlari, paxta bilan pillaning o'ziyoq jumhuriyatni bermalol boqa oladi. 4. Shunisi borki, bu yerda ichkilik borasida «qatron qonuni» juda qattiq qo'yilgan. 5. Shuni unutmangki, quyosh hammaga baravar nur sochadi. 6. Illat quritilsa, o'sha illatning o'zi boshqa joydan tag'in nish urib chiqaveradi. 7. U yog'ini so'rasangiz, burchdorlik joyim ham bor.

II.Matnni o'qing. Ergash gapli qo'shma gaplarni toping. Har birini yozib bo'lganingizdan so'ng uning chizmasini chizing. Ergash va bosh gaplarni aniqlang.

Namuna: *Siz shuni unutmangki, yomon illatlar hamisha kulfat keltiradi.*

Bosh gap -ki, Ergash gap

QIMORBOZLIK ILLATI

Bu o'yinga muhtalo bo'lsang, izzat va jon mulkiga qiron keltirasan, oz fursatda bor-yo'g'ingni, hurmat va obro'yingni qo'ldan boy berasan. Har ishning chegara va andozasi bor bo'lsa ham, qimor chegara va andozadan tashqaridir. Har ayb dengizining qirg'og'i, sohili bo'lsa ham, ammo qirg'oqsiz, sohilsiz ayb dengizidir. Har kimning turmush kemasi bu ayb dengizining to'foni po'rtanasiga duchor bo'lsa, shubhasiz, g'arq bo'lib, yo'qlik dunyosiga ketadi. Kimki qimmatli umrni buzuq ishlarga sarf qilsa, behuda ishlar bilan hayosizlik kamarini bog'lasa, bu aqlga muvofiq emas. Odam o'jar nafs otini qamchilamasin deb, donishmandlar juda ko'p nasihatlar bitibdur.

*Kimki qimor yo'liga qo'ysa qadam,
Oqibat sharmanda-yu rasvo bo'lur.*

(Sh. Zunnun)

Ergashgan qo'shma gap haqida ma'lumot

1. Berilgan gaplardan qaysi biri ergashgan qo'shma gap sanaladi?

A) O'zingga do'st tanla, chunki bir o'zing baxtli bo'lolmaysan. B) Badanning quvvati – ovqat, aqlning kaliti – hikmat. C) O'z tilingni hurmat qil, u senga keng imkoniyatlar ochib beradi. D) Jaloliddin Manguberdi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda jasorati tufayli buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida dong taratdi.

2. Ergashgan qo'shma gapni toping.

A) Bulbul gulzorni izlaydi, boyo'g'li esa doim xarobani ko'zlaydi. B) Qo'rqqoq keta turib maqtansa, jasur qaytib kelib maqtanadi. C) Badanning quvvati – ovqat, aqlning kaliti – hikmat. D) Aql ko'pga yetkazadi, hunar bo'lsa insonni ko'kka ko'taradi.

3. Qaysi bog'lovchi vositalar orqali bog'langan qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplar hisoblanadi?

A) ergashtiruvchi bog'lovchilar, ko'makchili qurilmalar, nisbiy so'zlar B) ergashtiruvchi bog'lovchilar C) ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar D) ergashtiruvchi bog'lovchilar va nisbiy so'zlar

4. Qaysi qatorda ergashgan qo'shma gap berilgan?

A) Bulbul gulzorni izlaydi, boyo'g'li esa doim xarobani ko'zlaydi. B) Orzum shul: o'chmasin yongan chirog'ing. C) Tilagim shuki, hamma bilan yaxshi muomalada bo'ling. D) Nuri goh sevinib shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini titroq bosadi.

Bosh va ergash gap

1. Ergashgan qo'shma gaplar tarkibida nechta gap bo'lishidan qat'i nazar, doimo necha qismdan iborat bo'ladi?

A) to'rt qismdan B) uch qismdan C) ikki qismdan D) birdan ortiq qismdan

2. Ergashgan qo'shma gaplarda bosh gap...

A) ergash gap mazmunini izohlovchi gap B) hamisha ergash gapdan keyin keladi C) mazmuni izohlanayotgan gap D) bog'langan qo'shma gaplarda ikkita bo'ladi

3. Ergashgan qo'shma gaplar qaysi xususiyatiga ko'ra so'z birikmalariga o'xshamaydi?

A) tuzilishiga ko'ra B) doim ikki qismdan tashkil topishiga ko'ra C) hokim va tobe munosabatda bo'lishiga ko'ra D) grammatik asoslarining miqdoriga ko'ra

4. Ergashgan qo'shma gaplarda bosh va ergash gapning joylashish o'mi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) ergash gap bosh gapdan oldin keladi B) bosh gap ergash gapdan oldin keladi C) ergash gap bosh gap o'rtasida keladi D) ergash gap bosh gapdan oldin, keyin yoki bosh gap o'rtasida kelishi mumkin

5. Qaysi qatordagi qo'shma gap tarkibida bosh gap ergash gapdan oldin kelgan?

A) Vatanimiz kelajagi shuning uchun ham buyukki, unda yashayotgan aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi. B) To'g'ri so'z qilichdan o'tkir, shuning uchun hamisha rost so'zlashga odatlan. C) Agar Alloh oldida javobgar bo'lsang, boshing, shaksiz, kesilgay. D) A, C

Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar

1. 1) ergashtiruvchi bog'lovchilar; 2) ko'makchili qurilmalar; 3) ayiruv bog'lovchilari; 4) yuklama

(-ki); 5) *bo'lsa, esa* so'zlari; 6) zidlov bog'lovchilari; 7) nisbiy so'zlar; 8) *deb* so'zi. Yuqorida berilgan bog'lovchi vositalardan qaysilari faqat ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lashda ishtirok etadi?

A) 1, 2, 4, 6, 7 B) 2, 3, 5, 6, 8 C) 1, 2, 3, 7, 8 D) 1, 2, 4, 7, 8

2. Yuklamaning qaysi turi ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lashda ishtirok etadi?

A) -u, -yu, -da B) -ki C) -u, -yu, -da, -ki D) -ki, -gach

3. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi qaysi vositalar ikkala qismda ham mavjud bo'ladi?

A) ko'makchili qurilmalar B) nisbiy so'zlar C) ko'rsatish olmoshlari D) ayiruv bog'lovchilari

4. Nisbiy so'zlarning qo'shma gap tarkibidagi joylashish o'mini aniqlang.

A) bosh gap tarkibida bo'ladi B) ergash gap tarkibida bo'ladi C) bosh gap yoki ergash gap tarkibida bo'ladi D) bosh gap va ergash gap tarkibida bo'ladi

5. Ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida bog'langan qo'shma gapni toping.

A) Shunday yaxshi odatlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim. B) Ular mening aytganimni qilishadi, chunki men oilamizning kenjatoyiman. C) Olim kishilar har yerda hurmatlidir, shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo'l. D) Shamol qay tarafga essa, maysa ham o'sha tomonga egiladi.

Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar

1. Quyidagi bog'lovchilardan qaysilari ergash gap oldidan keladi?
A) chunki, negaki B) agar, basharti C) go'yo, xuddi D) sanalganlarning barchasi
2. Qo'shma gap qismlari qaysi bog'lovchilar orqali bog'langanda ergash gap bosh gapdan so'ng keladi?
A) shart bog'lovchilari B) ko'makchili qurilmalar C) deb so'zi D) sabab bog'lovchilari
3. Shart bog'lovchilarining qo'shma gaplarda ishlatilish o'rmini aniqlang.
A) Shart bog'lovchilari bosh gap tarkibida bo'ladi va bosh gap ergash gapdan oldin keladi. B) Shart bog'lovchilari ergash gap tarkibida bo'ladi va ergash gap bosh gapdan oldin keladi. C) Shart bog'lovchilari har ikki qismda ishlatilishi mumkin. D) Shart bog'lovchilari bosh gap tarkibida bo'ladi va ergash gap bosh gapdan oldin keladi.
4. Bu masalani sinfda keng muhokama qilamiz, ... boshqa qaytarilmasin. Nuqtalar o'rminga kerakli bog'lovchini qo'ying.
A) va B) chunki C) toki D) ammo
5. Qaysi bog'lovchilar orqali bog'langanda ergash gap bosh gapdan keyin keladi?
A) chunki, toki, basharti B) negaki, agar, xuddi C) negaki, toki, go'yo D) chunki, mabodo, shuning uchun
6. Qaysi bog'lovchilar orqali bog'langanda bosh gap ergash gapdan keyin keladi?
A) sabab, maqsad, shart bog'lovchilari B) maqsad bog'lovchilari C) shart bog'lovchilari D) sabab bog'lovchilari
7. 1) sabab bog'lovchilari; 2) maqsad bog'lovchilari; 3) shart bog'lovchilari; 4) qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari. Yuqorida berilgan ergashtiruvchi bog'lovchilardan qaysilari bilan bog'langanda ergash gap bosh gapdan keyin keladi?
A) 1, 2, 4 B) 3 C) 1, 2 D) 1, 4
8. Sabab bog'lovchilari berilgan qatorni ko'rsating.
A) chunki, shuning uchun B) toki, deb C) chunki, negaki D) shuning uchun, shu tufayli
9. Qaysi bog'lovchilar orqali bog'langanda bosh gap ergash gapdan keyin keladi va ergash gap kesimi ko'pincha III shaxs buyruq mayli shaklida bo'ladi?
A) *deb* so'zi B) maqsad bog'lovchilari C) sabab bog'lovchilari D) shart bog'lovchilari

10. Qaysi bog'lovchilar ergash gap boshida qo'llanadi va ergash gap bosh gapdan oldin keladi?

A) chunki, negaki B) agar, basharti C) shuning uchun, shu tufayli D) toki

11. Qo'shma gap qismlari shart bog'lovchilari orqali bog'langanda, ergash gap kesimi qanday shaklda bo'ladi?

A) shart mayli shaklida B) buyruq mayli shaklida C) istak mayli shaklida D) xabar mayli shaklida

12. Ergashtiruvchi bog'lovchilar haqidagi qaysi fikr noto'g'ri?

A) sabab bog'lovchisi ergash gap boshida keladi B) maqsad bog'lovchisi ergash gap boshida keladi C) ko'makchili qurilmalar ergash gap tarkibida bo'ladi D) qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari ergash gap boshida keladi

13. Qaysi qatorda qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari berilgan?

A) go'yo B) go'yo, go'yoki C) go'yo, go'yoki, xuddi D) go'yo, go'yoki, xuddi, naq

Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplar

1. Quyidagi bog'lovchilardan qaysilari bosh gap tarkibida keladi?

A) chunki, shuning uchun B) shu tufayli, shuning uchun, C) negaki, shu sababli D) chunki, negaki

2. Ilm martabasi martabalarning zo'ridir,.... yoshlikdan ilm olish payida bo'l. Nuqtalar o'miga ergashtiruvchi bog'lovchilardan mosini qo'ying.

A) negaki B) toki C) basharti D) shu sababli

3. Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gap qismlari orasida qanday munosabat mavjud bo'ladi?

A) maqsad B) sabab C) shart D) qiyoslash

4. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalardan qaysilari bosh gap tarkibida keladi?

A) sabab bog'lovchilari B) shart bog'lovchilari C) ko'makchili qurilmalar D) nisbiy so'zlar

5. Qaysi bog'lovchilar orqali bog'langanda ergash gap bosh gapdan oldin keladi?

A) sabab bog'lovchilari B) ko'makchili qurilmalar C) -ki yuklamasi D) maqsad bog'lovchilari

6. Kamtarin bo'l, hatto bir qadam O'tma g'urur ostonasidan, Piyolani shuning-chun inson O'par doim peshonasidan. Ushbu gap turini aniqlang.

20-MAVZU: BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAPLAR

Yuqoridagi darslarda qo'shma gaplarning doimo ikki va undan ortiq sodda gaplardan tashkil topishi, qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar uning qismlari ekanligi, ana shu tarkibiy qismlar bir-biri bilan ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishi va qismlari qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplarning quyidagi uch turga bo'linishi haqida ma'lumotga ega bo'ldingiz: 1) qismlari teng bog'lovchilar yoki *bo'lsa, esa* so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplar; 2) qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida yoki bir qismning kesimi nomustaqil shaklda turgan qo'shma gaplar; 3) qismlari maxsus bog'lovchi vositalarsiz, ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar.

Bularning birinchi turi bog'langan, ikkinchi turi ergash gapli, uchinchi turi esa bog'lovchisiz qo'shma gap hisoblanishini bildingiz.

Esda saqlang. *Qo'shma gap qismlari teng bog'lovchilar yordamida ham, ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida ham bog'lanmasa, u holda ular bir-biri bilan ohang yordamida bog'lanadi. Ana shunday qo'shma gaplar ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar deyiladi.*

Ohang yordamida bog'langan qo'shma gap qismlari o'rtasida turli xil ma'no munosabatlari bo'ladi. Masalan,

Zidlik: Ko'prikni biz qurdik, dushmanlar o'tdi.

Sabab: Qo'ng'iroq chalindi, dars boshlandi.

Payt: Dalasida o'smas tikonlar, cho'llarida chopmas ilonlar va boshqalar.

Bunday ma'nolar bog'langan va ergash gapli qo'shma gap qismlari o'rtasida ham mavjudligidan xabaringiz bor. Ana shu ma'no umumiyligi asosida bunday qo'shma gaplar o'zaro sinonimik munosabatda bo'ladi. Masalan,

Ko'prikni biz qurdik, dushmanlar o'tdi.

Ko'prikni biz qurdik, lekin (ammo) dushmanlar o'tdi.

Esda saqlang. *Yuqoridagi ikkita qo'shma gap qismlari o'rtasida bir xil ma'no munosabati — zidlik (birinchi gap ma'nosi bilan ikkinchi gap ma'nosi o'rtasida zidlik bor) munosabati ifodalangani uchun bu ikki gap bir-biri bilan sinonim sanaladi.*

Ular o'rtasidagi farq faqat qo'shma gap qismlari o'rtasida qanday bog'lovchi vositaning ishlatilishidadir. Shuningdek, *Anor so'ylar va*

Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar. (H.Olimjon) qo'shma gap qismlari o'rtasida payt munosabati ifodalangan. Qo'shma gap tarkibidagi ikkita sodda gap bir paytda ro'y berayotgan ikkita voqea-hodisani (birinchisi — Anorning so'zlashi, ikkinchisi — Zaynab qalbi-ning qaltirashi) ifodalaydi. Ikkala qism va bog'lovchisi qatnashmagan holda ohang yordamida ham bog'lanishi mumkin: *Anor so'ylar, Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar.* Bu vaqtda bog'langan qo'shma gap emas, balki bog'lovchisiz, ohang yordamida bog'langan qo'shma gap hisoblanadi.

Juda muhim. *Qo'shma gap qismlari o'rtasida sabab-natija (bir sodda gap sababni, ikkinchisi esa undan kelib chiqqan natijani bildiradi) munosabati mavjud bo'lsa, unday qo'shma gaplar ergash gapli qo'shma gap shaklida ham, bog'langan qo'shma gap shaklida ham, ohang yordamida bog'langan qo'shma gap shaklida ham ifodalanishi mumkin.*

Masalan, Paxtalar qiyg'os ochildi, terim avjiga chiqdi. Paxtalar qiyg'os ochildi, shuning uchun terim avjiga chiqdi. Paxtalar qiyg'os ochildi va terim avjiga chiqdi.

Yuqoridagi uchta qo'shma gap sabab-natija umumiy ma'nosi bilan o'zaro sinonimik munosabatda bo'lsa ham, lekin qo'shma gapning qaysi turiga mansubligi bilan bir-biridan farq qiladi. Ko'rinadiki, bir xil ma'noni turli qo'shma gap shakllari orqali ifodalash mumkin. Shuning uchun ulardan nutqda o'rinli foydalana olish nutq madaniyatiga ega bo'lishda katta ahamiyatga ega.

Mashqlar

I.O'zingizni sinab ko'ring. Shu so'zlar ishtirokida bog'lovchisiz qo'shma gaplar tuzing.

«M» dan «M» gacha

1. Yelim.
2. Arab harfi.
3. Ish sur'atini belgilovchi mezon.
4. Doim.
5. Aza.
6. Musiqiy atama.
7. Zarur.
8. Yilning ma'lum fasli.
9. Oshkor, ayon, aniq.
10. Dardga davo dori.
11. Vafot etgan.
12. Noaniq.
13. Jazoga hukm qilingan.
14. Bebahra, benasib.
15. O'qituvchi, ustoz.
16. Azim, ulkan, ulug'vor.
17. Shakllangan, joylashgan.
18. Mashina, asbob, apparat va shunga o'xshash narsalarning ichki tuzilishi.
19. Hurmat va ehtiromga sazovor.
20. Eng ko'p miqdor.
21. Qamariy yil hisobida birinchi oyning nomi.
22. Og'irlik o'lchovi.
23. Mahkam.

II. Nuqtalar o'rniga kerakli bog'lovchilar va tinish belgilarini qo'yib, qo'shma gaplarni ko'chiring, turini ayting.

1. Dadam shaxt bilan o'rnidan turdi... cho'loqlanib tokcha yoniga bordi. 2.... xuddi shunaqa zax bosgan yerda, loyga belanib yetib, miltiq otayotgandir?... u tomonlarda allaqachon qor tushgandir. 3. Robiya... menga qaradi,... Bashoratga qarab talmovsiradi. 5. Bir kuni oradan gap qochsa...dushmanga aylanib qolsa, har nima kutish mumkin undan. 6. Qaysi birligini bilmaymanu,... bitta o'g'lingiz tirik, erta-indin...o'zi keladi,...xabari deydi. U bir zum jilib qoldi... qo'shib qo'ydi. 7. Bir zum jim o'tirdi... shoshilmay o'midan turib, ot oldiga bordi. 8. Bu jonivor qachon sigir bo'ladi...qachon sutga kiradi. 9.... uyda tinim bor,... dalada tinim bo'ladi. 10.... ikkovlashib ishkomda uzum uzamiz... allaqanday notanish ko'chalarda yurgan bo'lamiz.

(O'. Hoshimov)

21-MAVZU. MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR USLUBIYATI.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan ergash gaplarning hamma turlari ham birdan ortiq holda kelib yoki boshqa ergash gaplar bilan birga qo'llanilib murakkaab tipdagi qo'shma gap hosil qiladi.

Qo'shma gapni tashkil etgan ergash gaplar bosh gapdan anglashilgan mazmunni turli tomondan izohlaydi, fikrni to'la va mukammal ifodalashga xizmat qiladi.

Murakkab qo'shma gap tarkibidagi ergash gaplar mazmunan va tuzilishi jihatdan bir-biriga zid bog'lanib, yaxlit bir qurilmani tashkil etadi:

Men o'zimni inson bilganda,
Gulga to'lib bahor kirganda,
Yuragimda havas uyg'ondi. (H.O.)

Murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro turlicha munosabatda bo'ladilar. Shunga ko'ra, murakkab qo'shma gaplar quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar.
3. Bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakab qo'shma gaplar.
4. Bog'lovchisiz tuzilgan murakkab qo'shma gaplar.
5. Aralash murakkab qo'shma gaplar.

Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gapda ergash gap bir necha bo'lib, ular bitta bosh gapga tobelanadi. Qo'shma gapningbu turi bir necha ergash gapli qo'shma gap deb ham yuritiladi.

Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarning tobe komponentlari bir bosh gapga alohida-alohida ergashuvi yoki ketma-ket ergashuvi mumkin. Bunday qo'shma gapda ergash gaplarning bosh gapga bog'lanish usuli ikki xil bo'ladi:

1. Birgalik ergashuvi orqali birikuvchi murakkab qo'shma gaplar.
2. Ketma-ket ergashuv orqali birikuvchi murakkat qo'shma gaplar.

Qo'shma gap tarkibidagi ergash gaplarning biri ikkinchisi bilan grammatik aloqaga kirishmay, o'zaro teng holatda to'g'ridan-to'g'ri bosh gapga bog'lansa, bunday ergashish usuli birgalik ergashish deyiladi. **Qizlar chayladay buzilib, munchog'i uzilib, oyog'i qaltirab, ko'zlari yaltirab, sipohiga bir so'z dedi.**(E.J.)

Birgalik ergashuvi orqali bosh gapga birikadigan murakkab qo'shma gaplar uyushgan komponentlardan tuziladi.

Uyushgan komponentli murakkab qo'shma gaplarda bir xil ergash gaplar bir bosh gapga ergashib keladi. Bunda ergash gaplarning har biri bosh gapning ma'lum bir bo'lagini bir xilda izohlaydi, aniqlaydi, to'ldiradi. Ular bir xil so'roqqa javob bo'ladilar.

Qo'shma gap tarkibidagi ergash gaplar bosh gapga to'g'ridan-to'g'ri tobelanmay, biri ikkinchisiga tobelanib, so'ng birgalikda bosh gapga tobelanadi. Ergashishning bu turi ketma-ket ergashish deyiladi. Bu xil qo'shma gapdagi ergash gaplar ketma-ket ergash gaplar sanaladi. Ular mazmunan zich bog'langan bo'ladi. Ergash gaplardan biri tushirilsa, umumiy mazmun anglashilmay qoladi. **Ovqat tanovul qilarkan, suhbat jiddiylashib, so'zning kalavasi chuvalmasdan sug'urilaveradi. (O.)**

Ketma-ket ergashuv orqali tuzilgan murakkab qo'shma gaplar tarkibi jihatdan ikki guruhga bo'linadi:

1. Bir xil ergash gaplardan tashkil topgan ketma-ket ergashuvli qo'shma gaplar.

2. Har xil ergash gaplardan tashkil topgan ketma-ket ergashuvli qo'shma gaplar.

Bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplarda sodda gaplar o'zaro bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordami bilan birikadilar.

Bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning bog'lanish yo'llari va semantik munosabatlariga ko'ra, bog'langan qo'shma gaplardan farq qilmaydi. Farq faqat sodda gaplarning miqdorida bo'ladi, ikkitadan ortiq sodda gap qatnashadi: **Bahor keldi, lekin havo uncha ochilganicha yo'g'-u, daraxtlar kurtak ota boshladi. (Gazeta.)**

Bog'lovchisiz tuzilgan murakkab qo'shma gap o'z tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro bog'lanish usuli, sodda gaplarning tuzilishi va semantik munosabati jihatidan bog'lovchisiz qo'shma gapdan farqlanmaydi. Faqat sodda gaplarning o'zaro munosabati murakkabroq bo'ladi.

Qo'shma gaplarning komponentlari bir-biri bilan ba'zan ham bog'lanish, ham ergashish orqali birikadi. Bunday gaplar aralash murakkab qo'shma gap deyiladi.

Aralash murakkab qo'shma gaplarning quyidagi turlari ko'p uchraydi.

1. Bir ergash gap va ikki bosh gapning birikishidan yasalgan qo'shma gaplar. Bunday gaplarda ergash gap bosh gaplarning bittasiga yoki alohida-alohida bog'lanadi. **Bu gap kutilmagan bo'lsa ham, Mirhomidho'janing yoshiga munosib ravishda tarang va tiniq qizil yuzi oqarishdi, oq oralagan cho'qqi soqol xiyol titradi.(A.Q.)**

2. Ikki komponentli ergash gapli qo'shma gap hamda ikki komponentli bog'langan qo'shma gapning birikishidan yasalgan aralash qo'shma gaplar: **Bir eshitdimki, qochibdi deb; bir eshitdimki, qo'lga tushdi deb. (A.Q.)**

3. Ikki ergash gap va ikki bosh gapdan tashkil topgan aralash qo'shma gaplar tarkibida ham bir necha ergash gapli qo'shma gap, ham bog'langan qo'shma gap bo'lishi mumkin: **Agar traktor berilsa, yerlar traktor bilan haydalsa, birinchidan, mehnat unimi ortadi, ikkinchidan, hosil mo'l bo'ladi. (A.Q.)**

"Aqliy hujum" savol va topshiriqlari

1. Ko'chirma gap nima?
2. Ko'chirma qurilmali qo'shma gaplarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Ko'chirma gaplarning qanday turlari bor?
4. Ko'chirma gapda qo'llanadigan fe'llarni leksik-semantik xususiyatiga ko'ra qanday guruhlar bo'linadi?
5. Ko'chirma gapda tinish belgilarni qo'llanishi haqida gapiring.
6. O'zlashtirma gap nima?
7. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar qanday bo'ladi?

22-MAVZU. KO'CHIRMA GAPLI QO'SHMA GAPLAR, ULARDA TINISH BELGILARINING QO'LLANISHI. KO'CHIRMA VA O'ZLASHTIRMA GAPLAR. KO'CHIRMA GAPLARNI O'ZLASHTIRMA GAPLARGA AYLANTIRISH YO'LLARI

Nutq jarayonida so'zlovchi o'zi bevosita kuzatgan, bilgan voqea va hodisalar haqida axborot beribgina qolmasdan, o'zgalardan eshitgan voqea-hodisalarni ham bayon qiladi. Ko'pincha so'zlovchi o'z fikrini qo'shimcha dalillar bilan isbotlamoq uchun o'zigacha bo'lgan buyuk shaxslarning asarlaridan namunalar keltiradi. Yoki ma'lum bir shaxs xarakterini ochish uchun shu shaxs bayon qilgan gapdan foydalanadi. Masalan, «*Tiz cho'kib yashagandan tik turib o'lmoq yaxshiroq*», – deydi G'ofir. Bu esa nutqning ta'sirchan, mantiqli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Juda muhim. *Monologik nutqda so'zlovchining o'zgalari gapidan aynan foydalanishi ko'chirma gapli qo'shma gapni hosil qiladi.*

Bunda qo'shma gap ikki qismdan tashkil topadi: 1) so'zlovchining (muallifning) gapi; 2) o'zganing gapi. Masalan. «*Ko'p narsalarni ko'zimga ko'rsatdingiz. Yana ko'p narsalarni ko'rganingiz qo'limga chiroq berdingiz, O'rmonjon aka*», – dedi Siddiqjon.

Yuqoridagi gapda *dedi Siddiqjon* qismi muallif gapi, ungacha bo'lgan qism esa o'zganing gapi hisoblanadi.

Fikrni asosli va go'zal ifodalamoq uchun ko'p hollarda xalq maqollaridan, hikmatli so'zlardan, adabiy parchalardan foydalaniladi. Nutqqa tayyor olib kirilgan bu maqol va hikmatli so'zlardan so'ng — *deydi xalqimiz, — deydi adib singari muallif gaplari qo'llanilib, ko'chirma gapli qo'shma gapni hosil qiladi.* Masalan, «*Oltin boshing omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas*», — *deydi xalqimiz.*

Ko'rinadiki, bunday iboralardan o'rinli foydalanish nutqiy madaniyatni oshiradi.

Ko'chirma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi

Nutq jarayonida so'zlovchi o'zi bevosita kuzatgan, bilgan voqea va hodisalar haqida axborot beribgina qolmasdan, o'zgalardan eshitgan voqea-hodisalarni ham bayon qiladi. Ko'pincha so'zlovchi o'z fikrini qo'shimcha dalillar bilan isbotlamoq uchun o'zigacha bo'lgan buyuk shaxslarning asarlaridan namunalar keltiradi. Yoki ma'lum bir shaxs xarakterini ochish uchun shu shaxs bayon qilgan gapdan foydalanadi.

Masalan, «Tiz cho'kib yashagandan tik turib o'lmoq yaxshiroq», — deydi G'ofir. Bu esa nutqning ta'sirchan, mantiqli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Juda muhim. Monologik nutqda so'zlovchining o'zgalar gapidan aynan foydalanishi ko'chirma gapli qo'shma gapni hosil qiladi.

Bunda qo'shma gap ikki qismdan tashkil topadi: 1) so'zlovchining (muallifning) gapi; 2) o'zganing gapi. Masalan. «Ko'p narsalarni ko'zimga ko'rsatdingiz. Yana ko'p narsalarni ko'rgani qo'linga chiroq berdingiz, O'rmonjon aka», — dedi Siddiqjon.

Yuqoridagi gapda dedi Siddiqjon qismi muallif gapi, ungacha bo'lgan qism esa o'zganing gapi hisoblanadi.

Fikrni asosli va go'zal ifodalamoq uchun ko'p hollarda xalq maqollaridan, hikmatli so'zlardan, adabiy parchalardan foydalaniladi. Nutqqa tayyor olib kirilgan bu maqol va hikmatli so'zlardan so'ng — deydi xalqimiz, — deydi adib singari muallif gaplari qo'llanilib, ko'chirma gapli qo'shma gapni hosil qiladi. Masalan, «Oltin boshing omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas», — deydi xalqimiz.

Ko'rinadiki, bunday iboralardan o'rinli foydalanish nutqiy madaniyatni oshiradi.

Mashqlar

I. Monolog shaklidagi ko'chirma gaplar nutqimizda ko'p ishlatiladi. Shuning uchun Siz ham «Nega yerga qaraysiz, Ra'no?» mavzusida ko'chirma gapli matn tuzing. Matnga «Mehrobdan chayon»ni asos qilib oling.

II. Quyidagi nutq fe'llarini qatnashtirib, ko'chirma gaplar hosil qiling: demak, aytmoq, deb qichqirdi, deb aytdi, deb pichirladi, deya iltijo qildi, deb yolvordi, so'radi.

III. O'qing. Muallif va ko'chirma gaplarni aniqlang.

OZ ISHLA, SOZ ISHLA

Kunlardan bir kuni bir mutakabbir o'rgimchak ipak qurtiga: «Men Senga juda achinaman, bir ozgina ipak uchun shoshmasdan ishlab ko'p vaqt sarf etasan. Mana, menga qara, tez-tez ishlab ozgina vaqt ichida bu devorning boshidan oyog'igacha to'r o'rab bitirdim. Menga o'xshab shoshib-pishib to'r o'rasang bo'lmaydimi? — dedi. Ipak qurti unga: «To'g'ri, ishda sur'at, tezlik kerak, lekin sen singari apil-tapil ishlashdan foyda chiqmaydi, shuning uchun to'ring hech qimmatga ega emas, mening to'rim esa juda qimmatli to'r, — deb javob berdi.

Hissa: Shoshma-shosharlik bilan ishlashdan hech foyda hosil bo'lmaydi. Ishning soniga emas, sifatiga diqqat qilish lozim. «Oz ishla, soz ishla» deb bekor aytmaganlar.

Bayt:

Shoshqaloqlik niholin o'tqazsang,

Bergusi meva pushaymonlik.

(«Durdonalar xazinasi» dan)

IV. Suqrot hakimning quyidagi hikmatlarining mag'zini chaqing. Muallif gapini oldin, keyin, o'rtasida keltirib ko'chiring.

Suqrot hakim aytadi: «Takabburlik va zulm — ulug'likning ofati, muloyimlik va tavoze' — insonning ziynati, sharm-hayo uning go'zal, yoqimli libosidir».

Me'yorni ko'p buzari odam bolasi.

Uning kattasidan kichigigacha

Arziydi jazoga tortilsa dangal.

U — aybdor.

U «me'yor bo'lsin» deydi-yu,

Aslo o'z gapiga qilmaydi amal.

23-MAVZU: MATN VA UNING TURLARI. MATN TUZISH. MATN VA IQTIBOS. MATN USTIDA ISHLASH

Har qanday og'zaki va yozma nutq parchasi matn (makromatn) hisoblanadi. Matn mikromatnlarning o'zaro mazmuniy va grammatik bog'lanishidan hosil bo'ladi.

Esda saqlang. *Bir necha gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og'zaki nutq parchasi mikromatn hisoblanadi.*

Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga makromatn deyiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida ishtirok etgan barcha mikromatnlar «o'g'irlik» umumiy mavzusi ostida birlashgan.

Matnning eng kichik birligi gap hisoblanib, ular matn tarkibida ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi. Ular quyidagilardan iborat:

bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi ayrim so'zlar, takroriy bo'laklar, olmoshlar, sinonimlar.

Karimjon a'lo o'qish va odobi bilan litseyda katta hurmatga ega. U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi.

Matn tarkibidagi ikkinchi gap boshida kelgan *u* olmoshi birinchi gap tarkibida kelgan *Karimjon* o'rnida kelib, ikkinchi gapni birinchi gapga mazmunan bog'lab keladi. Shuning uchun ham *u* olmoshi matn qismlarini bog'lovchi, ya'ni matn hosil qiluvchi vosita sanaladi.

Mikromatnni hosil qilishda takrorlar eng muhim vositadir, chunki *u* ham gaplarni bog'lovchi vosita hisoblanadi, ham uslubiy bo'yoqdorlik hosil qiladi.

E'tibor bering:

Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada,

Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad.

Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada

Iste'dodim so'nganidan qilar karomat. (A. Oripov)

Takrorlar gap oxirida qo'llanilishi ham mumkin.

Angladimki, olamda

Yurt tanho, Vatan tanho

Band etgan xayolimni

Tengsiz shul chaman tanho,

Nokaslar emas, yo'q, yo'q,

Onajonim, she'riyat,

Topgan toj-taxtim mening,

Jonajonim she'riyat. (A. Oripov)

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Mahmudov N.M., Sobirov A.Sh., Odilov Y.R., Ziyodullayeva G.Sh. Ona tili (O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik). – Toshkent: “O'zME”, 2017.
2. Mahmudov N.M., Odilov Y.R., Ziyodullayeva G.Sh. Ona tili (O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik). –Toshkent: “O'zME”, 2018.
3. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik (2-qism). –Toshkent: “O'qituvchi”, 2020.
4. Nurmonov A. Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1, 2, 3-kitob. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning I, II, III bosqich talabalari uchun darslik. –Toshkent: “Ilm ziyo”, 2013.
5. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. –Toshkent: “Sharq”, 2013.
6. Abdurahmonov G'., Xo'jayeva D. Hozirgi o'zbek adabiy tili // I kurs uchun. Toshkent: «O'qituvchi», 2010.
7. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 5-nashr). –Toshkent: “G'afur G'ulom”, 2020.
8. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik). – Toshkent: “Tasvir”, 2017.
9. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). –Toshkent: “Ma'naviyat”, 2017.
10. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik). –Toshkent: “Cho'lpon”, 2019.
11. Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). –Toshkent: “Tasvir”, 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar:

12. Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). –Toshkent: “Tasvir”, 2014.
13. Hamroyev M. Ona tili fanidan yaxlit o'quv-didaktik majmua. (Abituriyentlar uchun). Toshkent: “Sharq”, 2014.
14. Mengliyev B. O'zbek tilidan universal qo'llanma. (Abituriyentlar uchun uslubiy qo'llanma). Toshkent: “Fan”, 2014.
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. I, II, III, IV, V tomlar. –Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006-2008.
16. O'zbek tilining imlo lug'ati. –Toshkent: “Akademnashr”, 2013.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
ONA TILI.....	6
1-MAVZU: SINTAKSIS	8
SO‘ZLARNING TENG VA TOBE BOG‘LANISHI.....	8
GAP VA SO‘Z BIRIKMASI	8
2-MAVZU. GAPDA SO‘ZLARNING BOG‘LANISHI.....	14
SO‘Z BIRIKMALARINI TUZISH.....	14
3-MAVZU. GAP BO‘LAKLARI. EGA VA KESIMNING IFODALANISHI. EGALI VA EGASIZ GAPLAR	19
4-MAVZU. GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO‘LAKLARI.....	28
TO‘LDIRUVCHI VA UNING IFODALANISHI.....	28
5-MAVZU: HOL VA UNING IFODALANISHI	33
6-MAVZU: ANIQLOVCHI VA UNING IFODALANISHI	40
7-MAVZU. SINTAKTIK VOSITALARNI NUTQIY USLUBLARDA QO‘LLASH. GAP BO‘LAKLARINING TARTIBI. ODATDAGI VA O‘ZGARGAN TARTIB.....	47
8-MAVZU: UYUSHIQ BO‘LAKLAR:JINS VA XUSUSIYLIK	49
UMUMLASHTIRUVCHI BO‘LAK: TUR VA UMUMIYLIK.....	49
9-MAVZU. AJRATILGAN BO‘LAKLI GAPLAR VA GAP BO‘LAKLARINI AJRATISH YO‘LLARI: TARTIBNI O‘ZGARTIRISH VA IZOHLASH ORQALI GAP BO‘LAKLARINI AJRATISH	58
10-MAVZU: AJRATILGAN BO‘LAKLI GAPLARDA TINISH BELGILARINING QO‘LLANILISHI.	66
11-MAVZU. UNDALMALI MURAKKABLASHGAN GAPLAR. KIRISHLAR VA KIRITMALAR USLUBIYATI	74
12-MAVZU: KIRISH SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI.....	80
13-MAVZU. GAP VA UNING BELGILARI. GAPNING IFODA MAQSADIGA KO‘RA TURLARI. DARAK, BUYRUQ,ISTAK, SO‘ROQ GAPLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI.	85

14-MAVZU. RITORIK SO'ROQ GAPLAR USLUBIYATI. GAPLARNING HIS-HAYAJON ISHTIROKIGA KO'RA TURLARI	95
15-MAVZU. SODDA GAPLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI. SODDA YIG'IQ VA YOYIQ GAPLAR	99
16-MAVZU: QO'SHMA GAPLAR HAQIDA MA'LUMOT. QO'SHMA GAP QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR VA QO'SHMA GAP TURLARI	107
17-MAVZU. BOG'LANGAN QO'SHMA GAP USLUBIYATI	116
18-MAVZU. ERGASHGAN QO'SHMA GAPLARNING QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR.....	122
19-MAVZU. ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR TURLARI	128
20-MAVZU: BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAPLAR	137
21-MAVZU. MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR USLUBIYATI....	140
22-MAVZU. KO'CHIRMA GAPLI QO'SHMA GAPLAR, ULARDA TINISH BELGILARINING QO'LLANISHI. KO'CHIRMA VA O'ZLASHTIRMA GAPLAR. KO'CHIRMA GAPLARNI O'ZLASHTIRMA GAPLARGA AYLANTIRISH YO'LLARI	143
23-MAVZU: MATN VA UNING TURLARI. MATN TUZISH. MATN VA IQTIBOS. MATN USTIDA ISHLASH	146
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	147

SH.O.DJAMALDINOVA., H.A UNAROVA, S.N. SARIYEVA

ONA TILI

O'quv qo'llanma

Guvohnoma raqami: G/00067-2023

Nashriyot litsenziya raqami: 143413

“SAMARQAND” nashriyoti

Mas'ul muharrir — Dildora TURDIYEVA

Musahhih — Anvar UMRZOQOV

Texnik muharrir — Akmal KELDIYAROV

Sahifalovchi — Dilshoda ABDIAXATOVA

Dizayner — Davron NURULLAYEV

“SARVAR MEXROJ BARAKA” bosmaxonasida chop etildi.

Guvohnoma raqami — 704756. Pochta indeksi 140100.

Samarqand shahar, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 3-uy.

Bosishga 29.03.2023 ruxsat etildi. Bayonnoma raqami: 8

Bichimi 60x841/16. “Times New Roman” garniturasida. 8,84 bosma taboq.

Adadi: 200 nusxa. Buyurtma raqami: 269/2023

Tel/faks: +998 94 822-22-87, e-mail: sarvarmexrojbaraka@gmail.com



